

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligi

S.SH.Rustamova, M.A.Saydullayeva
R.M.Abdullayeva

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA

Билим соҳаси: 500000 – Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот

Таълим соҳаси: 510000 – Соғлиқни сақлаш

Таълим йўналиши: 5510100 – Даволаш иши

5510300 – Тиббий – профилактика иши

5111000 – Касбий таълим (5510100 – Даволаш иши)

UO’K 811.124

KBK 5ya2+81.2 Lat-4

Taqrizchilar: Toshkent Tibbiyot Akademiyasi O’JTXA kafedrası
prof. T.A.Sagatov.

Toshkent Davlat Jahon tillar Universiteti ingliz tili
fakulteti dekani B.Kulmatov

Mualliflar : Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tillar kafedrası
katta o’qituvchisi S.SH. Rustamova.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tillar kafedrası
katta o’qituvchisi M.A.Saydullaeva.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tillar kafedra
mudiri dotsent R.M.Abdullayeva.

Annotatsiya

Tibbiy terminologiya fanidarsligi tibbiyot oliygohi talabalari uchun fanning namunaviy dasturi asosida yaratildi. Darslik anatomiya, klinika, farmatsevtikabo'limlaridan iboratdir. Bu uch bo'limlar o'zichiga barcha tibbiyot terminlarini qamrab olib, talabalarga fundamental va mutaxassislik fanlarini integral o'qishida yaqindan yordam beradi.

Uch bo'limdan iborat bo'lgan mazkur darslikda barcha Grammatik mavzular keng yoritilib, shu bilan birga "Medical Terminology", "Simplifield", G.Barbara, R.Masters, avtorligidagi xorijiy adabiyotdan tajriba almashgan holda ma'lumotlar kiritildi. Bunda, mashqlar, leksik minimum hamda nazorat ishlar kabi qismlar kiritildi.

Darslik ilyustratsion holatda yoritilib, talabalarga tibbiy terminlarni visual xotiraga ega bo'lishlarida katta ahamiyatga egadir.

Mazkur darslikning maqsadi tibbiy terminlarni o'qish, anatomic terminlarni tarjima qilish va tushunishga tayyorlash bemorga klinik tashxisn ito'g'riva grammatik, orfografik jihatdan retseptni to'g'ri yozishdir.

Darslik tibbiyot oliygothlarining 1-bosqich talabalari uchun tibbiy terminologiya fanini o'zlashtirishga tavsiya etiladi.

Аннотация

Данный учебник предназначен для студентов I курса бакалавриата всех направлений медицинского образования.

Учебник состоит из трех разделов: анатомического, клинического и фармацевтического, которые входят в основной материал типовой программы.

Медицинские термины, содержащиеся в этих разделах будут хорошим фундаментом для интегрального обучения фундаментальных и клинических предметов.

Материал учебника широко освещает грамматические темы, содержит лексические минимумы, систему упражнений для изучения и укрепления материала по специальности.

В материал учебника вошли также теоретический материал, упражнения и наглядный материал из учебника "Medical Terminology Simplified" под авторством Barbara Gyls и Regina Masters.

Annotation

The textbook "Medical terminology" was created for the first year students on the base of typical program. The textbook is consisted of three parts: anatomical, clinical and pharmaceutical parts. All medical terms are related to these parts which can help to students and also to research works in while training of fundamental subjects and the subjects on specialty.

All grammatical themes, lexical minimums were enlightened widely and additional information from foreign literatures under the author “Barbara Gylys, ReginaMasters”, “Medical Terminology Simplified” were included in three parts of the book.

The purpose of this textbook is to prepare the students for reading and understanding of medical terminologies in Latin language, translation of anatomical terms to correct clinical diagnosis and correct grammatical and spelling of prescriptions.

This textbook is recommended for the students of bachelor degree of all medical institutions.

Mundarija

SO‘ZBOSHI	18
SHARTLI QISQARTMALAR RO‘YXATI.....	19
KIRISH.....	20
I BO‘LIM.....	24
LOTIN ALIFBOSI. FONETIKA. LOTIN GRAMMATIKASI TERMIN HOSIL QILISH ENG AKTUAL ELEMENTLARI. ANATOMO-GISTOLOGIK TERMINSHUNOSLIK	25
§1.Lotin alifbosi. Fonetika. Unlilar talaffuz etilishi. Diftonglar va undoshlar talaffuz etilishni o‘ziga xosligi.	26
Lotin alifbosi.....	26
Tovushlar tasnifi	27
Unliharflarning talaffuzi	27
Diftonglar.....	28
Undosh harflar talaffuzining o‘ziga xosligi.....	28
Harf birikmalarining talaffuzi.....	29
Digraflar talaffuzi	30
Mashqlar	30
Leksik minimum.....	33
§2. Lotin tilida bo‘g‘in cho‘ziqligi va qisqaligi. Urg‘u qoidalari.....	34
Urg‘u	34
Mashqlar	36
Leksik minimum.....	38
§3. Anatomik termin tuzilishi. So‘z turkumlari va terminni tashkil etuvchi so‘zning grammatik kategoriyalari. Ot. Otning grammatik kategoriyalari. Otning lug‘at shakli. Turlanish va negiz haqida umumiy ma’lumotlar. Moslashmagan aniqlovchi.....	40

Ot (nomen substantivum). Otning grammatik kategoriyalari. Otning lugʻat shakli	40
Otning turlanishi	41
Otning negizini aniqlash	42
Ot rodinianiqlashningumumiyqoidolari.....	42
Nominativus va Genetivus singularisdaot qoshimchalari	42
Mashqlar	44
Leksik minimum	45
§4. Sifat. Sifatning grammatik kategoriyalari. Sifatning ikki guruhi. Sifatning lugʻat shakli. Sifatlarning ot bilan moslashish qoidalar.	49
Sifat. Sifatning grammatik kategoriyalari. Sifatning lugʻat shakli.....	49
Mashqlar	50
Murakkab anatomik terminlarning tuzilishi	52
Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi	53
Mashqlar	53
Leksik minimum	54
§5. Sifatlar darajalari. Qiyosiy darajani hosil qilish. Anatomik terminlarda koʻp uchraydigan qiyosiy darajadagi sifatlar, ularning maʼnosi va qoʻllanilishidagi oʻziga xosligi.....	58
Sifatning qiyosiy darajasi	58
Mashqlar	59
Leksik minimum	62
§6. Sifatning orttirma darajasi. Sifat haqida maʼlumotlarni umumlashtirish.	65
Sifatning orttirma darajasi	65
Sifatlarni ot oʻrnida ishlatilishi	66
Mashqlar	66

Leksik minimum	68
TIBBIY MUTAXASSISLIKLAR	71
ANATOMIK VA FIZIOLOGIK UMUMIY TUSHUNCHALAR	71
§7. Otning III turlanishi: uning rod belgilari va negiz xususiyati. Otning III turlanish Genus Masculinum.	74
Otlarning III turlanishi.	74
III turlanish Genus Masculinumdagi otlar	75
Mashqlar	75
Vazifasiga ko‘ra mushaklar nomlanishi	76
Mashqlar	77
Leksik minimum	80
Istisno so‘zlar	80
§8. Otning III turlanishi Genus Femininum.	81
III turlanish Genus Femininumdagi otlar	81
Mashqlar	81
Leksik minimum	84
Istisno so‘zlar	85
§9. Otning III turlanish Genus Neutrum.	87
III turlanish Genus Neutrumdagi otlar	87
Mashqlar	87
Leksik minimum	89
Istisno so‘zlar	89
§10. I-V turlanishdagi ot va sifatlarning bosh kelishik ko‘plik formasi (Nominativus pluralis).	91
Bosh kelishik ko‘plik formasi	91
Nomenklaturada uchraydigan qisqartmalar	93

Mashqlar	94
Leksik minimum	96
§11. I-V turlanishdagi ot va sifatlarning qaratqich kelishik ko‘plik son (Genetivus pluralis) shakli.	100
Qaratqich kelishik ko‘plik formasi	100
III turlanishdagi ot, IIguruh sifati va qiyosiy darajadagi sifatlarning	101
Genetivus pluralis qo‘shimchalari	101
Mashqlar	102
Leksik minimum	104
§12. Son.	107
1 dan 15 gacha miqdor va tartib sonlari	107
Old qo‘shimcha sifatida qo‘llaniluvchi lotin va yunon sonlari.	108
§13. I bo‘lim anatomiya va gistologiya atamashunoslik ta‘limoti bo‘yicha takrorlash	109
Mashqlar	109
II BO‘LIM	114
KLINIK TERMINOLOGIY. KLINIK TERMIN YASASH USULLARI	114
§14. Yunon alifbosi. Terminologik so‘z yasashining ba‘zi umumiy tushunchalari: so‘z tarkibi → morfema → so‘z yasashi strukturasi → so‘z yasovchi va yasama negiz → TE → so‘zlarning bo‘linishi → so‘z yasash usullari. Terminologik so‘z yasashida suffiksatsiya.	115
Yunon alifbosi	116
So‘z yasashining ba‘zi umumiy tushunchalari	117
Termin so‘zlarning bo‘linishi va yunon-latin termin elementlari (TE)	118
So‘z yasash usullari	119
Suffiksatsiya	119

Lotin va lotinlashgan yunon suffikslari	119
Mashqlar	124
Leksik minimum	127
Birikmashakllar	130
§15. So‘z yasalihi (davomi). Prefiksatsiya. Prefiks-suffiksli yasama so‘zlar.....	132
Prefiksatsiya.....	132
Prefikslar	132
Ko‘p qo‘llaniluvchiyunon-lotin prefikslari	133
Prefiks-suffiksli yasama so‘zlar.....	141
Mashqlar	141
§16. Muakkab so‘zlar. Murakkab yasama so‘zlar.Yunon-lotin dubletlari va yakka TE. Klinik terminlar tuzilishi haqida umumiy tushuncha.....	145
Murakkab so‘zlar	145
A‘zo, tana qismlarin va yuz jag‘ni ifodalovchiyunon-lotin dubletlari	146
Ta‘limot, fan, tashxislash usullari, davolash, dard va kasalliklarni ifodalovchiyunon TE	150
Mashqlar	151
§17. So‘z yasalihi (davomi). Klinik terminshunoslikda -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma suffikslari. Qisqartma so‘zlar. Yunon-lotin dubletlari va yakka TE(davomi).....	155
Klinik terminshunoslikda -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma suffikslari.....	155
Qisqartma so‘zlar	157
A‘zo, tana qismlarini ifodalovchiyunon-lotin dubletlari	157
A‘zo va to‘qimalardagi patologik o‘zgarishlarni, terapevtik va xirurgik usullarini ifodalovchiyunon AE	159
2.4-rasm. Yurak tuzilishi	161

Mashqlar	161
§18. So‘z yasalishi (davomi). To‘qima, a‘zo, ajralma, jins, yoshni ifodalovchiyunon-lotin dubletlari. Funktsional va patologik holat, jarayonlarni ifodalovchiyakka AE. Turli fizik xususiyatlar, sifatlar, munosabatlar va boshqa belgilarni ifodalovchiyakka AE.....	170
To‘qima, a‘zo, ajralma, jins, yoshni ifodalovchiyunon-lotin dubletlari.....	170
Funksional va patologik holat, jarayonlarni ifodalovchiyakka AE	174
Turli fizik xususiyatlar, sifatlar, munosabatlar va boshqa belgilarni ifodalovchiyakka TE.....	179
Mashqlar	181
Maxsus klinik iboralar	188
§19. So‘z yasalishi va klinik terminshunoslik bo‘limini takrorlash uchun mashqlar.....	191
Mashqlar	191
III BO‘LIM	204
RETSEPTURA BILAN BOG‘LIQ LOTIN GRAMMATIKASI ELEMENTLARI. FARMASEVTIK TERMINSHUNOSLIK VA RETSEPT	204
§20. Farmasevtik terminologiyaga kirish. Dori vositalari nomenklaturasi.	205
Farmasevtik terminshunoslik.....	205
Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar.....	205
Keng tarqalgan dori shakllari.....	209
3.1-rasm. Dori shakllari	212
Mashqlar	212
Leksik minimum	214

§21. Fe'l. Fe'ning grammatik kategoriyalari va lug'at shakli. 4 tuslanish va negiz haqida tushuncha. Buyruq mayli (Imperativus). Istak mayli (Conjunctivus).	215
Fe'ning grammatik kategoriyalari	215
Retseptura formulirovkalari.....	215
Retseptura formulirovkalarida fio, fieri fe'li	216
Mashqlar	217
Leksik minimum	217
§22. Tushum va ablativ kelishiklari. Ko'makchilar.	219
Ko'makchilar	220
Keng foydalaniladigan ko'makchili retseptura formulirovkalari va kasbiy iboralar	220
§23. Retsept. Retsept strukturasi.	222
Mashqlar	223
Leksik minimum	226
§24. Lotin tilida kimyoviy nomenklatura. Kimyoviy moddalar, kislotalar, oksidlar nomlari.	227
Kimyoviy moddalarning nomlari	228
Kislotalar.....	229
Oksidlar.....	229
Mashqlar	230
§25. Tuzlar nomi.....	232
Tuzlar	233
Uglevodorod radikallar nomlarida qo'llaniladigan tarkibiy qismlar.....	233
Mashqlar	233
Leksik minimum	236

§26. Retseptdagi muhim qisqartmalar.	238
Retseptdagi qisqartmalar.....	238
Mashqlar	241
Leksik minimum	245
§27. Retseptura va farmasevtik terminshunoslik bo'limi bo'yicha takrorlash.....	247
§28. Gaudeamus.....	253
Mustahkamlash uchun mashqlar.	254
1-mashq	254
2-mashq	256
3-mashq	257
4-mashq	257
Lotin tilidagi hikmatli so'zlar, maxsus iboralar, maqollar.....	261
Lug'at	279

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ.....	3
Список условных сокращений.....	4
ВЕДЕНИЕ.....	5
РАЗДЕЛ I. ЛАТИНСКИЙ АЛФАВИТ. ФОНЕТИКА. ОБРАЗОВАНИЕ ТЕРМИНОВ В ЛАТИНСКОЙ ЯЗЫКЕ. АНАТОМА-ГИСТОЛОГИЧЕСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ.....	7
§1. Латинский алфавит. Фонетика. Произношение гласных. Особенности произношения дифтонгов и согласных.	8
§2. Долгота и краткость слога. Правила ударения.....	14
§3. Структура анатомического термина. Части речи и грамматические категории слов, составляющих термины. Имя существительное. Грамматические категории имени существительного. Словарная форма. Общие сведения о склонениях и основе. Общие правила определения рода. Несогласованное определение.....	19
§4. Имя прилагательное. Грамматические категории имени прилагательного. Две группы прилагательных. Словарная форма. Принципы согласования прилагательных с существительными.....	27
§5. Сравнительная степень имен прилагательных. Образование сравнительной степени. Наиболее часто встречающиеся прилагательные и существительные в анатомической терминологии.....	34
§6. Превосходная степень прилагательных. Обобщение сведений об имени прилагательном. Краткие сведения о некоторых префиксальных, сложных и субстантивированных прилагательных.....	40
§7. III склонение существительных: их родовые признаки и характер основ. Существительные мужского рода III склонения.	47
§8. Существительные женского рода III склонения.....	53
§9. Существительные среднего рода III склонения.....	57
§10. Именительный падеж множественного числа (Nominativus pluralis) существительных I-V склонений и прилагательных.....	60

§11. Родительный падеж множественного числа (Genetivus pluralis) существительных I-V склонений и прилагательных	67
§12. Число.....	73
§13. Самоподготовка к итоговой контрольной работе по I разделу курса по материалу анатомио-гистологической терминологии.....	74
РАЗДЕЛ II. Терминологическое словообразование. Клиническая терминология.....	77
§14. Некоторые общие понятия терминологического словообразования: состав слова → морфема → словообразовательная структура → производная (мотивирующая) и производная (мотивированная) основа → терминологический элемент (ТЭ) → способы словообразования. Суффиксация в терминологическом словообразовании	78
§15. Словообразование (продолжение). Префиксация. Префиксально – суффиксальное словообразование.....	89
§16. Основасложение (словосложение). Производные – сложные слова. Греко-латинские дублеты и одиночные терминологические элементы. Общие представления о структуре клинических терминов.....	96
§17. Словообразование (продолжение). Суффиксы -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma в клинической терминологии. Сложносокращенные слова. Греко-латинские дублеты и одиночные ТЭ (продолжение).....	103
§18. Словообразование в клинической терминологии (продолжение). Греко-латинские дублетные обозначение тканей, органов, секретов, выделений, пола, возраста. Одиночные ТЭ, обозначающие функциональные и патологические состояния, процессы.....	114
§19. Самоподготовка к контрольной работе по II разделу курса по материалу словообразования и клинической терминологии.	128
РАЗДЕЛ III. ЭЛЕМЕНТЫ ЛАТИНСКОЙ ГРАММАТИКИ В РЕЦЕПТУРЕ. ФАРМАЦЕВТИЧЕСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ	137
§20. Общее представление о фармацевтической терминологии. Номенклатура лекарственных средств.....	138

§21. Глагол. Грамматические категории и словарная форма глаголов. Представление о 4 спряжениях и основе. Повелительное наклонение (Imperativus). Сослагательное наклонение (Conjunctivus)	144
§22. Винительный падеж и аблятив. Предлоги.....	148
§23. Рецепт. Структура рецепта.	150
§24. Химическая номенклатура на латинском языке. Названия химических элементов, кислот, оксидов.....	154
§25. Название солей.....	158
§26. Важнейшие рецептурные сокращения. Частотные отрезки с химическим значением.....	163
§27. Самоподготовка к контрольной работе по материалу фармацевтической терминологии	169
§28. Gaudeamus.....	174
Латинские афоризмы , специальные выражения, пословицы, относящиеся к медицине.....	174
Словарь.....	189

Contents

Proverb	3
List of conditional abbreviation.....	4
INTRODUCTION.....	5
SECTION 1. Latin alphabet. Phonetics. The most relevant formation of terms in Latin grammar. Anatomical -histological terminology	7
§1. Latin alphabet. Phonetics. Pronunciation of vowels. Features of the pronunciation of diphthongs and consonants.	8
§2. Duration and brevity of the syllable in latin language. Stress rules.	14
§3. The structure of the anatomical terminology.. And the term of the constellation of the word grammar categories. Noun. Grammar categories of the noun. Dictionary for of noun. Declension and base. Inconsistent definition.	19
§4. Adjective. Grammar categories of adjective. Two groups of adjectives. Dictionary form of adjective. Rules of alignment adjectives and nouns.	27
§5. Adjective degrees. Origin of comparison of comparison degree. Common comparison degrees of adjectives in anatomical terminology, their definition and usage.....	34
§6. Superlative degree of adjective. Summary of adjective.	40
§7. III declension of noun: its genus features and base. III declension of noun Genus Masculinum.	47
§8. III declension of noun Femininum.	53
§9. III declension of noun Neutrum.	57
§10. Nominative plural of adjectives and nouns in I-V declension (Nominativus pluralis).....	60
§11. Genitive plural of adjectives and nouns in I-V declension (Genetivus pluralis).....	67
§12. Numeral.	73

§13. I section. Revision of anatomical histological terms	74
II Section. Clinical terminology. Ways of creation of clinical terms.....	77
§14. Greek alphabet. Some terms used in creation of clinical terms: word composition → morpheme → structure of word building → word building and base → TE → word divisions → word building ways. Suffixation.....	78
§15. Word building (duration). Prefixation. Prefix – suffix	89
§16. Complicated words. Complicated words building mechanisms. Greek – latin dublets and TE. Building of clinical term.....	96
§17. Word building (continuance). -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma in clinic terms building. Short words. Greek-latin dublets and alone TE(continue).	103
§18. Word building (continuance). Tissue, organ, excretions, genus, age describing words in greek- latin dublets. Functional and pathologic form, process describing alone AE. Various physical features. Adjectives, relations and other signs describing alone AE.	114
§19. Word building and and clinical word building exercises for revision	128
III Section. Formulation related grammar elements. Pharmaceutical terminology and receipt	137
§20. Introduction to pharmaceutical terminology. Medicines nomenclature.	138
§21. Verb. Grammar categories of verbs and dictionary form. 4 conjugations and base definition. Imperative and Conjunctive forms.	144
§22. Accusative and Ablative forms. Prepositions.	148
§23. Receipt. Receipt structure.	150
§24. Chemical nomenclature in latin language. Chemical substances, acids, oxides names.	154
§25. Salt names.	158
§26. Important abbreviations in receipt.	163
§27. Revision of materials in formulation and pharmaceuticals section	169
§28. Gaudeamus	174
Aphorisms in latin language, special word combinations, proverbs.....	174
Dictionary.....	189

SO‘ZBOSHI

Ma'lumki kasbni mukammal egallash, kasb tilini aks ettiruvchi so'zlar va terminlarni o'rganish bilan boshlanadi. Hozirgi zamon tibbiy terminlari – keng qamrovli va murakkab terminlardan deb hisoblash mumkin. Bunda bir necha ming yillik so'zlar va birikmalar mujassamlashgan. Tibbiy va biologik terminlarda ko'p asrlik an'analarni lotin tilining ishlatilishida alohida ahamiyatga ega. Talabalar tibbiyot tilini o'rganishi uchun o'quv bazasini yaratish lozim. "Lotin tili va tibbiy terminlar asosi" qo'llanmasi shular jumlasidandir. U bilimdon shifokor tayyorlashda va uning kasbiy til madaniyatini rivojlantirishda kerak bo'ladi. Lotin tilini o'qitish tibbiy terminlarining asosini o'qitishdan boshlanadi.

Barcha tibbiy terminlar ichida "tizimlar tizimi" sifatida qaraladigan yetakchi tizimlar quyidagilar:

- 1) morfologik fanlarterminshunosligi – anatomiya va gistologiyasi
- 2) patologik anatomiya va klinik fanlar kompleksi terminshunosligi
- 3) farmasevtik terminshunoslik dori vositalari nomenklaturasi bilan

Qo'llanmaning struktur birligi yakka tipdagi sxema bo'yicha tuzilgan mashg'ulot hisoblanadi. Har bir mashg'ulot o'z ichiga asosan, quyidagi komponentlarni oladi: yangi mavzu tushunchasi; talaba bilishi va qila olishi kerak bo'lgan mashg'ulot maqsadini formulirovkasi; o'tilgan mavzu bo'yicha talabaning bilim darajasini tekshirish maqsadida auditoriyada mustaqil ish uchun mashqlar; yangi grammatik yoki nazariy materialni tushuntirish; mustaqil ish uchun uyga vazifalar. Ba'zi darslar strukturasi talabalar bilim va ko'nikmalari hajmini aniqlashtirishga yordamlashish hamda o'tilgan materialni o'zlashtirishda xulosa chiqarish uchun nazariy savollar kiritilgan.

Alohida e'tibor berish kerak bo'lgan eng muhim holatlar NB! (Nota Bene!) – Yaxshi Tushun! E'tibor Ber! qisqartmasi bilan belgilangan.

SHARTLI QISQARTMALAR RO‘YXATI

ar. - arabcha

asl. - asliga muvofiq

b. k. - bosh kelishik

h. - hokazo

hoz. zam. - hozirgi zamon

ist. - istehzo bilan

lot. - lotincha

mas. - masalan

od. d. - oddiy daraja

ort. d. - orttirma daraja

q. k. - qaratqich kelishigi

qiy. d. - qiyosiy daraja

s. t. - so‘z turkumi

turl. - turlanish

tusl. - tuslanish

yun. - yunoncha

Abl. - Ablativus

Abl. sing. - Ablativus singularis

Acc. - Accusativus

Acc. pl. - Accusativus pluralis

Acc. sing. - Accusativus singularis

Demin. - Deminutio

Gen. pl. - Genetivus pluralis

Gen. sing. - Genetivus singularis

NB! - Nota bene!

Nom. pl. - Nominativus pluralis

Nom. sing. - Nominativus singularis

KIRISH

Ko'plab ta'limotlar: fizika, kimyo, astronomiya va xususan anatomiya, botanika hamda butun tibbiyotterminlari uchun yunon tili juda zarur.

Lomonosov M. V.

Invia est in medicina via sine lingua Latina (Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q).

Lotin tili va tibbiy terminlar asosi – Siz uchun yangi fan. Shuning uchun avvalambor biz uni o'rganishdan qanday maqsad borligini, umumiy ko'rinishda uning hajmi va tarkibini, tibbiyot va biologiyada bir nechayuz yilliklar mobaynida nega aynan lotin tili qo'llanilayotganini yoritib olishimiz lozim.

Termin. Ilmiy tushuncha. Fan, texnika va sanoat sohasida muvaffaqiyatli ish olib mutaxassis uchun terminlar mohiyatini maxsus leksika, yoki boshqacha aytganda *terminologiyani* to'g'ri tushunishi hamda undan aniq foydalanishi zarur. Terminning (lot. terminus – chegara) asosiy vazifasi ilmiy tushunchani faqat o'ziga xos ifodalashdan iborat. Termin sifatida alohida yakka so'z (*organizm, hujayra, organ, gen, kasallik, appenditsit, fluorografiya*) bilan bir qatorda so'z birikmasi (*ko'krak qafasi, ensa suyagi, gipertonik kasallik, sanitar ishlov berish, radiatsion gigiyena*) ham bo'lishi mumkin. Kundalik hayotda ishlatiladigan adabiy tilning ommabop so'zlaridan farqli o'laroq terminlarda ilmiy va ilmiy-texnik tushunchalar ifodalanadi. Ilmiy tushuncha o'zining ilmiy nazariy xulosalar mahsuliligi, ma'lum bir ilmiy nazariya, bilimlar ilmiy tizimi fragmentini aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Definitsiya, yoxud ta'rif. Kundalik so'zlaridan farqli ravishda ilmiy tushunchadefinitsiya (lot. definitio), yoki qisqa ta'rifga ega. Definitsiyada ilmiy tushunchaning ayrim mavjud belgilari namoyom bo'ladi. Maxsus (terminologik), ensiklopedik lug'atlarda terminlar ta'riflar bilan boyitilgan, misol uchun: "Pnevmoniya – mustaqil kasallik sifatida yoki biron-bir kasallik asorati sifatida hosil bo'luvchi o'pka to'qimalarining yallig'lanish jarayoni".

Mutaxassis ham, mutaxassis bo'lmagan shaxs ham umumadabiy til so'zlari va so'z birikmalaridan teng foydalansada, mutaxassis bo'lmagan shaxsdan farqli ravishda mutaxassis definitsiyaga ko'ra baho berish mumkin bo'lgan ilmiy

tushunchamohiyatini biladi, misol uchun: *pnevmoniya, sil, skleroz, kardiogramma, stress* va boshqalar.

Ilmiy tushuncha mohiyatini bilish – ushbu tushuncha (termin) ni boshqalariga bog‘lash, fanning tushunchalar tizimidan ma’lum bir o‘rin ajratish demakdir. Definitsiyada faqat ma’lum bir bosqichdagina ushbu bog‘liqlik va o‘rin namoyon bo‘ladi.

Terminologiya. Terminlar tizimi. Bilim, fan sohasining ma’lum bir terminologiyasi – bu tushunchalar tizimida ilmiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan, o‘zaro ma’lum bir aloqa va bog‘liqlikda bo‘lgan terminlar, so‘zlar va so‘z birikmalari tizimidir.

Terminologiya doimiy harakatda: nimadir o‘zgaradi, qo‘shiladi, eskiradi, ta’minotdan chiqadi, yo‘qotiladi. Ko‘plab qadimdan ma’lum maxsus so‘zlar yangi ilmiy tarkibga ega bo‘ladi. Ko‘plab qadimdan ma’lum maxsus so‘zlar yangi ilmiy mazmun oladi. Terminologiya – ilm, ilmiy adabiyot tilining muhim ajralmas qismidir.

Nega bir nechayuz yillardan buyon “o‘lik tillar” deb atalmish guruhga mansub bo‘lgan aynan lotin tili “o‘lik” qadimgi yunon tili bilan birgalikda hali hanuz tibbiyot va biologiya ilmiy tillari rivojiga faol ta’sir ko‘rsatib kelmoqda? Ushbu savolga javob berish uchun lotin tili tarixi va uning tibbiyot rivojlanishidagi roli haqida tanishib olishimiz zarur.

Lotin tili tarixidan. Lotin tili (*lingua Latina*) hind-yevropa tillari oilasining italiy tillari guruhiga mansub. U uzoq o‘tmishda hosil bo‘lgan. Dastlab bu tilda Italiya markazidagi Latsiy viloyatida istiqomat qiluvchi lotin qabilasi (*Latini*), hamda Qadimgi Rim ahli va milodiy I asr boshlarida Rim qo‘l ostiga o‘tgan Apennin yarim oroli hududidagi italiy qabilalar so‘zlashishgan. Mil. av. III asr o‘rtalaridan boshlab lotin tili Rim legioni bilan birga yanada qadimiyroq madaniyatga ega davlatlar – Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya va b. – hamda Yevropaning u davrda madaniyati kam yerlarga kirib bordi.

Qadimiy davr lotin tili tarixi bir-biridan u yoki bu darajada farqlanuvchi 5 ta davrga ajratiladi:

- 1) eng qadimgi lotin tili davri (mil. av. VI-IV asrlar);
- 2) klassik davrgacha bo'lgan lotin tili davri (mil. av. III-II asrlar, adabiy lotin tilining shakllanish vaqti);
- 3) klassik, "oltin" lotin tili davri (mil. av. I asr, juda boy leksika va rivojlangan adabiyoti bilan ajralib turadi);
- 4) klassik davrdan keyingi, "kumush" lotin tili davri (milodiy I asr, adabiy tilning fonetik va morfologik meyorlari uzil-kesil shakllandi);
- 5) so'ngi bosqichdagi lotin tili (II-VI asrlar; yozuv tili bilan xalq-so'zlashuv tili – "xalqona lotin" o'rtasida tafovut paydo bo'ldi).

V asrda Rim imperiyasi qulaganidan keyin xalq-so'zlashuv tilining mintaqaviy farqlanishi tezlashib, bu narsa IX asrga kelib alohida, mustaqil roman tillarining (italyan, fransuz, portugal, ispan, rumin, moldavan va b.) paydo bo'lishiga olib keldi. Yozma lotin tilining birligi saqlanib qoldi, u leksik jihatdan rivojlanishda davom etdi, klassik lotin tilining asosiy lug'at tarkibi va grammatik qurilishi barqarorlashdi. Adabiy lotin tili tarqalgan barcha hududlarda u ma'muriy boshqaruv, savdo-tijorat, maktab tili edi; o'rta asrlarda butun G'arbiy Yevropa umumiy yozuv tili bo'lib qo'llandi; XVIII-XIX asrlargacha diplomatiya, ilm-fan va falsafa tili, XX asrda esa katolik cherkovi tili, Vatikanning (italyan tili bilan birga) rasmiy tili bo'lib qoldi. Lotin tili Yevropa madaniyati rivojida ulkan rol oynadi. Yevropa tillaridagi siyosiy, ilmiy va texnik terminologik tizimlarning leksik jihatdan boyishi va ko'payib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Lotin tili qadimiy Hind-Yevropa tillariga xos, uni Xett tili, Hind-Eron, Kelt tillari bilan yaqinlashtiruvchi xususiyatlarni saqlab qolgan. Asosiy fonetik jihatlari unda unlilar cho'ziqligining fonologik farqlanishiga egaligi, urg'uso'zning oxirgi bo'g'iniga tushmasligi, undoshlarning kuchsizlanib borishi kabilardan iborat. Morfologik xususiyatlari: fleksiya shakl yasashning asosiy vositasi sifatida foydalanish, fleksiyaning 5 turi mavjudligi, turlanishning 6 kelishikka asoslanishi, fe'llarda 3 xil mayl (indikativ, konyunktiv, imperativ) va 2 xil nisbat (aktiv va

o'rtapassiv) farqlanishi va b. So'z tartibida fe'lgap oxirida keladi. Lotin tili leksikasida yaqin qarindosh yoki noqarindosh qabilalar tillarining ta'siri saqlanib qolgan. Lotin tiliga yunon tili, ayniqsa, mil. av. III-I asrlarda kuchli va davomli ta'sir ko'rsatgan. Lotin tili leksikasi, yunon tili bilan birga, ilmiy terminologiya sohasida hanuz baynalmilal terminlarni yaratishda manba bo'lib xizmat qilmoqda.

I BO'LIM

LOTIN ALIFBOSI. FONETIKA. LOTIN GRAMMATIKASI TERMIN HOSIL QILISH ENG AKTUAL ELEMENTLARI. ANATOMO-GISTOLOGIK TERMINSHUNOSLIK



§1.Lotin alifbosi. Fonetika. Unlilar talaffuz etilishi. Diftonglar va undoshlar talaffuz etilishni o‘ziga xosligi.

Maqsad: Lotin alifbosi harflari yozilishi va o‘qilishini *eslab qolish*. Ushbu harflarni ifodalaydigan tovushlarni talaffuz *qila olish*.

Lotin alifbosi

Lotin alifbosi 25 harfdan iborat:

<i>Yozilishi</i>	<i>Nomi</i>	<i>O‘qilishi</i>
A a	a	a
B b	be	b
C c	tse	ts / k
D d	de	d
E e	e	e
F f	ef	f
G g	ge	g
H h	ga	h
I i	i	i
J j	yot	y
K k	ka	k
L l	el	l
M m	em	m
N n	en	n
O o	o	o
P p	pe	p
Q q	ku	k
R r	er	r
S s	es	s / z
T t	te	t

U u	u	u
V v	ve	v
X x	iks	ks
Y y	ipsilon (igrek)	i
Z z	zeta	z

Tovushlar tasnifi

a, e, o, i, u, y harflari unli harflarni beradi.

b, c, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z harflari undosh harflarni beradi.

Unli harflar o‘z navbatida bir unlilar (monoftonglar) va ikki unlilar (diftonglar) ga bo‘linadi.

Unliharflarning talaffuzi

a – a – aorta – [aorta] – aorta

e – e – vertebra – [vertebra] – umurtqa

o – o – foramen – [foramen] – teshik

i – i – vita – [vita] – hayot

I i harfi so‘z yoki bo‘g‘in boshida unli harfdan oldin kelsa, hamda ikki unli harf orasida kelsa [y] kabi talaffuz etiladi: *iugularis* [yugularis] bo‘yinturuqqa oid; *iunctura* [yunktura] bog‘lanma; *maior* [mayor] kattaroq; *iuga* [yuga] tepalik.

Yuqorida ko‘rsatilgan vaziyatlarda zamonaviy tibbiyotterminshunosligida *i* o‘rniga *J j* – yot harfi qo‘llaniladi: *jugularis* [yugularis]; *junctura* [yunktura]; *major* [mayor]; *juga* [yuga].

J j harfi faqat yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlardagina yozilmaydi, chunki unda [y] tovushi bo‘lmagan: *iatria* [iatria] davolash; *iodum* [iodum] yod.

u – u – rotundus – [rotundus] – yumaloq

y – i – myologia – [miologiya] – muskullar haqidagi fan

Y y ipsilon, igrek (*fr. i grec – yunoncha «i»*)yunon tilidan kelib chiqqan so‘zlarda ishlatiladi: *tympanum* [timpanum] (yun. τυμπανον) nog‘ora; *gyrus* [girus] (yun. γυρος) pushta.

Diftonglar

Diftong – ikkita turli unli harflarning bitta tovush sifatida talaffuz etilishi.

Lotin tilida 6 diftong bor:

<i>au</i> – au – <i>auris</i>	– [auris]	– quloq
<i>eu</i> – eu – <i>pneumonia</i>	– [pnevmoniya]	– pnevmoniya
<i>ae</i> – e – <i>gangraena</i>	– [gangrena]	– gangrena
<i>oe</i> – e – <i>oedema</i>	– [edema]	– shish

Agar [e] harfi ustida ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda harflar o'zining alohida tovushni ifoda etadi:

<i>aë</i> – ae – <i>aër</i>	– [aer]	– havo
<i>oë</i> – oe – <i>aloe</i>	– [aloe]	– aloë

Undosh harflar talaffuzining o'ziga xosligi

Sc harfi a, o, u unlilar oldida, barcha undosh harflari oldida, so'z oxirida [k] kabi o'qiladi, mas.:

<i>caput</i>	– [kaput]	– bosh
<i>costa</i>	– [kosta]	– qovurg'a
<i>cutis</i>	– [kutis]	– teri
<i>cranium</i>	– [kranium]	– kalla
<i>lac</i>	– [lyak]	– sut

Sc harfi e, i, u unlilari oldida va ae, oe diftonglar oldida tursa [ts] kabi o'qiladi, mas.:

<i>cito</i>	– [tsito]	– tez
<i>cella</i>	– [tsellya]	– hujayra
<i>cyclus</i>	– [tsiklyus]	– sikl
<i>caecus</i>	– [tsekus]	– ko'r
<i>coeruleus</i>	– [tseruleus]	– zangori, ko'k

H h harfi [g] kabi o'qiladi:

<i>herba</i>	– [gerba]	– ko'kat
<i>homo</i>	– [gomo]	– inson

K k harfi lotin tiliga chet tildan kirgan so'zlarda ishlatiladi, mas.:

kalium – [kalium] – kaliy

L l harfi juda yumshoq talaffuz etiladi:

lac – [lyak] – sut

S s harfi ko‘p holatlarda va ikkilanib kelganda [s] kabi, unli harflar orasida kelganda hamda *m, n* bilan unlilar orasida kelganda [z] kabi o‘qiladi:

semen – [semen] – urug‘

processus – [protsessus] – o‘simta

fossa – [fossa] – chuqur

resina – [rezina] – yelim

chiasma – [xiazma] – kesishma

X x harfi [ks] tovushini beradi:

radix – [radiks] – ildiz

maxilla – [maksillya] – yuqori jag‘

Z z harfi yunon tilidan kelib chiqqan so‘zlarda [z] kabi, yunon tilidan kelib chiqmagan so‘zlarda esa [ts] kabi o‘qiladi:

zona – [zona] – soha

zincum – [tsinkum] – rux

Harf birikmalarining talaffuzi

Q q harfi doim *u* bilan qo‘llaniladi va [kv] kabi o‘qiladi:

aqua – [akva] – suv

Ngu harf birikmasi unlilardan oldin kelsa, [ngv] kabi, undoshlar oldidan kelsa, [ngu] kabi o‘qiladi:

lingua – [lingva] – til

angulus – [angulyus] – burchak

Ti harf birikmasi unlilardan oldin kelsa, [tsi] kabi, *x, s* undoshlaridan keyin kelsa, [ti] kabi o‘qiladi:

solutio – [solyutsio] – eritma

mixtio – [mikstio] – aralashma

Digraflar talaffuzi

Yunon tilidan kelib chiqqan soʻzlarni tegishli tovush orqali yetkazish uchun rimliklar tomonidan lotin tiliga kiritilgan *ch, ph, rh, th* digraflari mavjud:

<i>ch</i> – x – nucha	– [nuxa]	– gardan
<i>ph</i> – f – phosphorus	– [fosforus]	– fosfor
<i>rh</i> – r – rheum	– [reum]	– rovoch
<i>th</i> – t – thorax	– [toraks]	– koʻkrak qafasi

Sch harf birikmasi [sx] kabi oʻqiladi:

<i>ischium</i>	– [isxium]	– quymuch
----------------	------------	-----------

Mashqlar

I. "C" harfi oʻqilishiga eʼtibor bering:

caput - bosh; collum - boʻyin; cavitas - boʻshliq; occiput - ensa; truncus - poya, tana; facies - yuza; caecus - koʻr; cerebrum - bosh miya; clavicularis - oʻmrovga oid; scapula - kurak suyagi; accessorius - qoʻshimcha; musculus - mushak; sceleton - skelet; cruciatus - xochsimon; cementum - sement; cavum cranii - kalla boʻshligʻi; saccus lacrimalis - koʻz yoshi haltasi; cartilago - togʻay; condylus - doʻng; biceps - ikki boshli; cellula - katakcha, hujayra; corpus - tana; sulcus palatinus - tanglay egati; sulci palatini - tanglay egatlari; vertebrae cervicales - boʻyin umurtqalari; vertebrae sacrales - dumgʻaza umurtqalari; os coccygis - dum suyagi; foramina sacralia dorsalia - orqa dumgʻaza teshiklari; bucca - lunj; buccae - lunjlar.

II. "I" va "j" harflari oʻqilishiga eʼtibor bering:

intestinum - ichak; infraspinitus - oʻtkir qirra osti; iater (*yun.*) - shifokor; paries inferior - pastki devor; insula - orolcha; junctura (iunctura) - bogʻlanma; jugum (iugum) - tepalik; jugularis (iugularis) - boʻyinturuqqa oid; canalis palatinus major (maior) - katta tanglay kanali; fossa infratemporalis - chakka osti chuqurchasi; tuberculum majus (maius) - katta doʻmboqcha; jejunum (ieiunum) - och ichak; iliacus - yonboshga oid

III. "Ss" va "s" harflari oʻqilishiga eʼtibor bering:

fossa - chuqurcha; humerus - yelka suyagi; mesenterium - ingichka ichak tutqichi; impressio - botiq; sinus - sinus; sigmoideus - sigmasimon; septum nasi - burun to'sig'i; canalis hypoglossalis - til osti kanali; processus styloideus - bigizsimon o'simta; basis cranii - kalla asosi; segmentum - segment; pars petrosa - toshsimon qism; chiasma - kesishma; fissura - yoriq; dens incisivus - kesuvchi tish; platysma - bo'yinning teri osti mushagi; mesogastrium - me'da tutqichi; mucosus - shillikli; nasolacrimalis - burun-ko'z yoshiga oid; sulcus sinus transversi - ko'ndalang sinus egati.

IV.”X” va “z” harflari o'qilishiga e'tibor bering:


flexio - bukish; axis - o'q, ikkinchi bo'yin umurtqasi; externus - tashqi; maxillaris - yuqori jag'ga oid; fornix - gumbaz; index - ko'rsatkich, ko'rsatkich barmoq; punctum fixum - qotirilgan nuqta; plexus - chigal; larynx - hiqildoq; dexter - o'ng; maxilla - yuqori jag'; circumflexus - aylanib o'tuvchi; radix - ildiz; extremitas - oxir; os coxae - chanoq suyagi; stratum zonale - belbog'li qavat; zygomaticus - yonoqqa oid; trapezius - trapetsiya; zona orbicularis - aylanma soha; vena azygos - toq vena.

V.”Qu” va “ngu” harflari o'qilishiga e'tibor bering:

squama occipitalis - ensa tangasi; lamina quadrigemina - to'rtlik yassi qatlami; quadratus - kvadrat; vertebra quinta - beshinchi umurtqa; linea obliqua - qiyshiq chiziq; lingua - til; lingula - tilcha; inguinalis - chovga oid; unguis - tirnoq; squamosus - tangasimon; os triquetrum - uch qirrali suyak; sublingualis - til osti; angulus - burchak; sanguis - qon; sanguineus - qonga oid.

VI.Quyidagi so'zlarni lotin harflari yordamidayozing:

nervus, subkutaneus, akustikus, organon, apeks, skeleton, kapitulum, maksilla, kauda, dentes, kvantus, tenzor, sella, sangvis, sellula, artikulatsio, rinensefalon, mukozus, komissura, kvadritseps, fibroza, pleksus, vas, vaza, os kokse, diafragmatikus.



1.1-rasm. Odam tanasining lotin tilida nomlanishi.



Leksik minimum

Otlar

atlas	atlant, I bo'yin umurtqasi
axis	o'q, II bo'yin umurtqasi
caput	bosh
cerebrum	katta bosh miya
collum	bo'yin
columna	pog'ona
corpus	tana
cranium	kalla
dorsum	orqa, orqa tomon
encephalon	bosh miya
homo	inson, odam
os	suyak
skeleton	skelet
substantia	modda
thorax	ko'krak qafasi
truncus	poya, tana
vertebra	umurtqa

Sifatlar

dexter	o'ng
distalis	markazdan uzoqlashgan, distal
dorsalis	orqagaoid, dorsal
externus	tashqi
horizontalis	yotiq, gorizontal
internus	ichki
lateralis	tashqari, lateral
major	kattaroq
medialis	ichkari, medial
medianus	o'rtalikdagi

medius

o‘rtadagi

minor

kichikroq

profundus

chuqur

proximalis

tanaga yaqinroq, proksimal

sinister

chap

superficialis

yuzaki

ventralis

old (qorin)



Nazorat savollari:

1. Lotin alifbosi nechta harfdan iborat?
2. Lotin alifbosi nechta unli bor?
3. Lotin alifbosi nechta undosh bor?
4. Qanday diftonlar mavjud?
5. Lotin tilida qanday digraflar ishlatiladi?
6. “C” harfi qanday tallaffuz qilinadi?
7. “Ss” harfi qanday o‘qiladi?
8. “Xx” qanday tovushni beradi?

*Natūra incipit, ars dirigit, usus perficit. –
Tabiat boshlaydi, san’at yo‘naltiradi, mahorat
mukammallashtiradi.*

*Primum noli nocēre. – Avvalambor,
ziyonyetkazma.*

§2. Lotin tilida bo‘g‘in cho‘ziqligi va qisqaligi. Urg‘u qoidalarini.

Maqsad: Urg‘u qoidalarini *bilib olish*. Lotin so‘zlari talaffuzida urg‘uli bo‘g‘inni ajratib o‘qiy olish.

Urg‘u

Lotin tilida ham so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi, urg‘u olgan bo‘g‘in katta ovoz kuchi bilan talaffuz etiladi. So‘zda qancha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi.

1. Bo‘g‘inlar so‘zning oxiridan boshlab hisoblanadi:

pro – fūn – dus

3 2 1

2. Bir bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u unli harfga tushadi:

déns ós

3. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u so‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘inga tushadi:

vé – na ós – sa

2 1 2 1

4. Lotin tilida urg‘u odatda so‘z oxiridan ikkinchicho‘ziq bo‘g‘inga qo‘yiladi. Agar so‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘in qisqa bo‘lsa, u holda urg‘u so‘z oxiridan uchinchi bo‘g‘inga qo‘yiladi.

trans – vér – sus tu – bér – cu – lum

3 2 1 4 3 2 1

5. So‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘inlar quyidagi hollarda cho‘ziq o‘qiladi:

a) bo‘g‘in tarkibida diftong bo‘lsa:

di – áe – ta pe – ri – to – náe – um

3 2 1 5 4 3 2 1

b) unli harf ikki yoki undan ko‘p undoshdan oldin kelsa:

li – ga – mén – tum la – bi – rín – thus

4 3 2 1 4 3 2 1

c) unli harf z va x undoshlaridan oldin kelsa:

re – flé – xus gly – cyr – rhí – za

3 2 1 4 3 2 1

d) -ura, -itis, -oma ot yasovchi suffikslari:

in – ci – sú – ra bron – chí – tis a – de – nó – ma

4 3 2 1 3 2 1 4 3 2 1

e) -al-, -ar-, -at-, -in-, -os-sifat yasovchi suffikslari:

or – bi – tá – lis ar – ti – cu – lá – ris ha – má – tus

4 3 2 1 5 4 3 2 1 3 2 1

pel – ví – nus pa – la – tí – nus spi – nó – sus

3 2 1 4 3 2 1 3 2 1

NB! Serotinus va trigeminus sifatlarida -in- suffiksi qisqa o‘qiladi.

6. So‘z oxiridan ikkinchi bo‘g‘inlar quyidagi hollarda qisqa o‘qiladi:

a) *b, c, d, g, p, t* harflari *l, r* harflari bilan birikmalaridan oldin unli kelsa:

vér – te – bra	cé – re – brum
3 2 1	3 2 1

b) unli yoki *h* harfidan oldin unli kelsa:

ó – le – um	fó – ve – a	éx – tra – hunt
3 2 1	3 2 1	3 2 1

c) *-ol-, -ul-*ot yasovchi suffikslari:

scá – pu – la	al – vé – o – lus
3 2 1	4 3 2 1

d) *-ic-, -id-, -il-, -it-* sifat yasovchi suffikslari:

tho – rá – ci – cus	flú – i – dus	so – lú – bi – lis
4 3 2 1	3 2 1	4 3 2 1

com – pó – si – tus

4 3 2 1

7. Bo'g'inning cho'ziqligi harf ustiga to'g'ri chiziqcha (¯), qisqaligi – yarim oy (ˇ) qo'yib belgilanadi: fissūra, canālis, tunīca, tuberositas, lamīna, gingīva, pylōrus, orbīta.

Mashqlar

I. Ikki bo'g'inli so'zlarni o'qing:

costa - qovurg'a; apex - uch; arcus - yoy; bursa - halta; bulbus - piyozbosh; cauda - dum; barba - soqol; cavum - bo'shliq; minor - kichikroq; cornu - muguz; situs - holat; ramus - shox; collum - bo'yin; manus - qo'l; vomer - dimog'; sternum - to'sh suyagi; atlas - I bo'yin umurtqasi; sella - egar.

II. So'z oxiridan ikkinchi bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligini aniqlab, urg'u qo'ying:


medulla ossium - suyak iligi; membrum inferius - quyi mucha; epigastrium - qorin usti; substantia compacta - zich modda; ligamentum - boylam; processus transversus - ko'ndalang o'simta; corpus maxillae - yuqori jag' tanasi; ductus choledochus - o't yo'li; facies poplitea - taqim yuzasi; quadruplex - to'rt karra; palpebra superior - yuqori qovoq; periosteum - suyak usti pardasi; arcus vertebrae - umurtqa ravog'i.

III. Suffikslar cho‘ziq yoki qisqaligini hisobga olib, urg‘u qo‘ying:

hiatus sacralis - dumg‘aza tirqishi; incisura vertebralis - umurtqa o‘ymasi, clavicularis - o‘mrovga oid; mentalis - engakka oid; sulcus pulmonalis - o‘pka egati; foramen spinosum - o‘tkir qirrali teshik; fossa glandulae lacrimalis - ko‘z yoshi bezi chuquri; processus zygomaticus - yonoq o‘simtasi; incisura supraorbitalis - ko‘z kosasi usti o‘ymasi; pars squamosa - tangasimon qism; nodi pancreatici - me‘da osti bezi (limfatik) tuguni; pelvinus - chanoqqa oid; pubicus - qovga oid; foveolae granulares - donador chuqurchalar; glomerulus - koptokcha; geniculum - tizzacha; hamulus pterygoideus - qanotsimon ilmoqcha; fossa pterygopalatina - qanot-tanglay chuquri; digitatus - barmoqsimon; cribrosus - g‘alvirsimon.

IV. Zaruriy holatlarda lug‘atga murojaat qilgan holda urg‘u qo‘ying:

alae vomeris - dimog‘ suyagi qanotlari; gingiva - milk; trachea - kekirdak; osteologia - osteologiya; myologia - miologiya; pars superior duodeni - o‘n ikki barmoq ichak yuqori qismi; glossopharyngeus - til-halqumga oid; orbita oculi - ko‘z kosasi; peroneus - kichik boldirga oid; carpeus - qo‘lning kaft usti qismiga oid; articulatio sacrococcygea - dumg‘aza-dum bo‘g‘imi; cartilagineus - tog‘ayga oid; organon gustus - ta‘m a‘zosi; gluteus - dumbaga oid; pylorus - pilorus; peritoneum - qorin parda; metathalamus - metatalamus (ko‘ruv bo‘rtig‘i ortidagi miya qismi); minimus - eng kichik; musculus levator fornicis - gumbazni ko‘taruvchi mushak; os coccygis - dum suyagi; apertura thoracis inferior - ko‘krak qafasi pastki tuynugi; nervus trigeminus - uch shoxli asab tolasi; labyrinthus ethmoidalis - g‘alvirsimon labirint.



1.2-rasm. Odam tanasining lotin tilida nomlanishi.



Leksik minimum

Otlar

acromion
articulatio
brachium
canalis
cingulum
clavicula

akromion
bo‘g‘im
yelka
kanal
belbog‘, kamar
o‘mrov

coccyx	dum
costa	qovurg'a
dens	tish
fissura	yoriq
foramen	teshik
fossa	cho'zinchoq chuqur
fovea	dumaloq chuqur
hiatus	tirqish
humerus	yelka suyagi
incisura	o'yma
mandibula	pastki jag'
maxilla	yuqori jag'
membrum	mucha
olecranon	tirsak suyagi o'simtasi
periosteum	suyak usti pardasi
radius	bilak suyagi
scapula	kurak suyagi
tuber	do'mboq
tuberculum	do'mboqcha
ulna	tirsak suyagi

Sifatlar

articularis	bo'g'imga oid
clavicularis	o'mrovga oid
coccygeus	dumga oid
costalis	qovurg'aga oid
jugularis	bo'yinturuqqa oid
pharyngeus	halqumga oid
thoracicus	ko'krakka oid
transversus	ko'ndalang



Nazorat savollari:

1. Lotin tilida odatda urg'u nechanchi bo'g'inga qoyiladi?
2. Bo'g'inlar soni so'zning qayeridan hisoblanadi?
3. Bir bo'g'inli so'zda urg'u qaysi harfga tushadi?
4. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u nechanchibo'g'inga tushadi?
5. Qaysi hollarda bo'g'in cho'ziq bo'ladi?
6. Cho'ziqlik belgisi qanday ifodalanadi?
7. Qaysi hollarda bo'g'in qisqa bo'ladi?
8. Bo'g'in qisqa bo'lganda urg'u nechanchi bo'ginga qoyiladi?

*Salus aegrōti suprema lex medicōrum. – Bemor sog'ayishi - shifokorlar oliy qonuni.
Ad medicum confungēre opem. –Shifokor yordamiga tayanmoq.*

§3. Anatomik termin tuzilishi. So'z turkumlari va terminni tashkil etuvchi so'zning grammatik kategoriyalari. Ot. Otning grammatik kategoriyalari. Otning lug'at shakli. Turlanish va negiz haqida umumiy ma'lumotlar. Moslashmagan aniqlovchi.

Maqsad: Otning grammatik kategoriyalari, V xil turlanish belgilari, -um, -on, -a, -us, -en, -urod belgilari, otning 5 xil turlanish lug'at shakli leksik minimumni *bilib olish*. Anatomik termintuzilishi va terminni tashkil etuvchi so'zning grammatik shakllarini aniqlashni; otning turlanishini aniqlashni; otning I, II, IV va V turlanish hamda rod negizini aniqlashni; -um, -on, -a, -us, -u, -en otlarining lug'at shaklini tuzishni; terminlarni lotin tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan lotin tiliga moslashmagan aniqlovchi bilan tarjimaqila olish.

Ot (nomen substantivum). Otning grammatik kategoriyalari. Otning lug'at shakli

Lotin tilida otlar rus tilidagi kabi uchta rodga ega:

Genus masculinum (<i>m</i>)	- mujiskoy rod
Genus femininum (<i>f</i>)	- jenskiyrod
Genus neutrum (<i>n</i>)	- sredniy rod

Lotin tilida otning 2 xil son shakli:

birlik	– numerus singularis (<i>sing</i>),
ko'plik	– numerus pluralis (<i>pl</i>) va 6 kelishik mavjud:

Nominativus (<i>Nom.</i>)	- bosh kelishik - kim? nima?
Genetivus (<i>Gen.</i>)	- qaratqich kelishigi - kimning? nimaning?
Dativus (<i>Dat.</i>)	- jo‘nalish kelishigi - kimga? nimaga?
Accusativus (<i>Acc.</i>)	- tushum kelishigi - kimni? nimani?
Ablativus (<i>Abl.</i>)	- O‘rin payt kelishigi - kim bilan? nima bilan? kim tomonidan?
Vocativus (<i>Voc.</i>)	- chiqish kelishigi (tibbiyotterminshunosligida uchramaydi)

Lotin tilida kelishik tugallanmalari bilan farq qiluvchi 5 turlanish mavjud.

Otining lug‘at shakli 4 tarkibiy qismdan iborat: 1) termin bosh kelishik shakli, 2) termin qaratqich kelishikdagi tugallanmasi; 3) rod belgisi; 4) ma‘nosi:

costa, ae <i>f</i>	- qovurg‘a
musculus, i <i>m</i>	- mushak
sternum, i <i>n</i>	- to‘sh suyagi

Otning turlanishi

NB! Otlarnig turlanish turi qaratqich kelishigi birlik qo‘shimchasi yordamida aniqlanadi:

Turlanish	I	II		III			IV		V
Rod	<i>f</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>
Nom. Sing.	a	us er	um on	har xil			us	u	es
Gen. Sing.	ae	i		is			us		ei

costa, ae <i>f</i>	- qovurg‘a	- I turl.
nervus, i <i>m</i>	- asab	- II turl.
septum, i <i>n</i>	- to‘siq	- II turl.
olecranon, i <i>n</i>	- tirsak o‘simtasi	- II turl.
canalis, i <i>m</i>	- kanal	- III turl.
pars, partis <i>f</i>	- qism	- III turl.
foramen, i <i>n</i>	- teshik	- III turl.

ductus, usm	- ariq	- IV turl.
cornu, usn	- muguz	- IV turl.
facies, eif	- yuza	- V turl.

Otning negizini aniqlash

Soʻzning asosiy tugallanmasiz qismi *negiz* deb ataladi. Negizni aniqlash uchun soʻz qaratqich kelishigiga qoʻyilib uning tugallanmasi olib tashlanadi.

Bosh kelishik	Qaratqich kelishik	Rod	Negiz
vertebra	Vertebrae	<i>f</i>	vertebr-
canalis	Canalis	<i>m</i>	canal-
septum	Septi	<i>n</i>	sept-
zygoma	Zygomatis	<i>n</i>	zygomat-
regio	Regionis	<i>f</i>	region-
ductus	Ductus	<i>m</i>	duct-
cornu	Cornus	<i>n</i>	corn-
facies	Faciei	<i>f</i>	faci-
crus	Cruris	<i>n</i>	crur-
foramen	Foraminis	<i>n</i>	foramin-

Ot rodinianiqlashningumumiyqoidalari.

Nominativus va Genetivus singularisdaot qoshimchalari

Lotin tili otlarining grammatik rod belgisi *Nom. sing.* qoshimchasi hisoblanadi. Misol uchun, *Nom. sing.* da er qoshimchasini olgan barcha otlar *m*rodiga mansub (cancer, cri *m* - saraton - II turl.; vomer, eris *m* - dimogʻ - III turl.); *Nom. sing.* da u bilan tugallanuvchi otlarning barchasi *n*rodida (genu, us *n* - tizza; cornu, us *n* - muguz) va h. Turli rodli otlarda *Nom. sing.* bir xil qoshimchaga ega bolgan holatlarda, rodini faqat *Gen. sing.* qoshimchalarining maʼlum birikmasi orqali aniqlash mumkin.

Turlanish	<i>I</i>		<i>II</i>		<i>III</i>			<i>IV</i>		<i>V</i>
Rod	f		<i>m</i>	<i>n</i>	m	f	n	m	n	f

Nominativ us singularis	a	us er	um	Har xil	us	u	es
Genetivus singularis	ae	i		is	us		ei

NB!

1. *Nom. sing.* da -a qoshimchali otlar *frodiga* mansub. *Gen. sing.* da ular -a qoshimchasini oladi, ya'ni I turlanishda turlanadi:

costa, ae *f* - qovurg'a - I turl.

vertebra, ae *f* - umurtqa - I turl.

pulpa, ae *f* - pulpa - I turl.

NB! -ma otlari orasida *Gen. sing.* da -atis bilan tugallanuvchi, yunoncha kelib chiqishli *nroddagi* so'zlar mavjud: *zygoma*, *atis n* - yonoq.

2. *Nom. sing.* da -umyoki -on qoshimchali otlar *neutrum* rodiga mansub. *Gen. sing.* da ular -i qoshimchasini oladi, ya'ni II turlanishda turlanadi:

tuberculum, i *n* - do'mboqcha - II turl.

sternum, i *n* - to'sh suyagi - II turl.

acromion, i *n* - acromion - II turl.

skeleton, i *n* - skelet - II turl.

3. *Nom. sing.* da -us qoshimachali otlar ko'pinchamrodiga mansub va II yoki IV turlanishda turlanadi, ya'ni *Gen. sing.* da -iyoki -us qoshimchalarini oladi. Bundan tashqari -us dagi otlar III turlanishda ham uchraydi va asosan *nrodiga* mansub. -us dagi otlar lug'at shaklini adashtirmaslik uchun tibbiyotterminshunosligida ko'p uchraydigan IV turl. *m* va III turl. *n* ga mansub -us dagi ba'zi otlarni yodlab olish muhim (-us dagi qolgan otlarning asosiy qismi II turl. *m* ga mansub).

-us dagi IV turl. *m* rodiga mansub otlar:

ductus, us *m* - oqim

processus, us *m* - o'simta

meatus, us *m* - yo'l, yo'lak

sinus, us *m* - bo'shliq, sinus

arcus, us <i>m</i>	- yoy, ravoq
hiatus, us <i>m</i>	- tirqish
plexus, us <i>m</i>	- chigal
tractus, us <i>m</i>	- yo‘l
textus, us <i>m</i>	- to‘qima
recessus, us <i>m</i>	- cho‘ntak

-us dagi III turl. *n* rodigaga mansub otlar:

corpus, oris <i>n</i>	- tana, gavda
crus, cruris <i>n</i>	- boldir, oyoqcha
pectus, oris <i>n</i>	- ko‘krak
tempus, oris <i>n</i>	- chakka

4. -enqoshimchasiga ega otlar *n*rodiga mansub. *Gen. sing.* da ular -inis bilan tugallanadi (negiz o‘zgaradi), III turlanishda turlanadi: foramen, foraminis *n* - teshik; abdomen, abdominis *n* - qorin; nomen, nominis *n* - nom.

5. -uqoshimchali otlar ham *n*rodiga mansub. *Gen. sing.* da ular -usqoshimchasini oladi, ya’ni IV turlanishda turlanadi: cornu, us *n*—shox, genu, us *n* - tizza.

Mashqlar

I. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. umurtqa tanasi, qovurg‘a boshchasi, aorta yoyi, kallaning asosi, burun bo‘shlig‘i, kurak bo‘yinchasi, o‘simta qini, burun yo‘li, pastki jag‘ o‘ymasi, gangliy kapsulasi, yuqori jag‘ do‘mbog‘i, bo‘yin mushagi, egar orqasi.

B. to‘sh dastasi, yelka suyagi boshchasi, kallachoki, asab shoxchasi, tirsak o‘simtasi chuquri, nog‘ora bo‘shlig‘i, tizza qopqog‘ining asosi, bosh miya asabi, bilak suyagining bo‘yinchasi.


C. sement tolasi, tanglay mushagi, bez tanasi, burun uchi, so‘rg‘ich yaprog‘i, til to‘sig‘i, emal pardapo‘sti, dentin so‘rg‘ichi, lab yuganchasi.

D. qovurg‘a bo‘ychasining qirrasi, qovurg‘a do‘mboqchasining boylami, umurtqa ravog‘i plastinasi, xo‘roz toji qanoti, dahliz suv yo‘li tuynugi (aperturasi), nog‘ora toriningi kanalchasi, chig‘anoq kanalchasining tuynugi.

E. burun to'sig'i, pastki jag' o'ymasi, o'simta chuqurchasi, umurtqa ravog'ning oyoqchasi, qovurg'a do'mboqchasiningyuzasi, o'simta plastinasi, egar orqasi, shox yadrosi, chig'anoq asosi, burun (bo'shlig'i) dahlizi.

II. O'zbek tiliga tarjima qiling:

collum radii, caput humeri, fossa olecrani, os digiti, sulcus sinus, os coxae, truncus encephali, fossa acetabuli, basis patellae, vagina musculi, bulbus aortae, limen nasi, arteria genus, musculus uvulae.



1.3-rasm. Odam kalla suyagi



Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

ala, ae *f*

aorta, ae *f*

arteria, ae *f*

bucca, ae *f*

qanot

aorta

arteriya

lunj

concha, ae <i>f</i>	chig‘anoq
costa, ae <i>f</i>	qovurg‘a
crista, ae <i>f</i>	qirra
gingiva, ae <i>f</i>	milk
lamina, ae <i>f</i>	varaq, plastina
lingua, ae <i>f</i>	til
lingula, ae <i>f</i>	tilcha
mandibula, ae <i>f</i>	pastki jag‘
maxilla, ae <i>f</i>	yuqori jag‘
orbita, ae <i>f</i>	ko‘z kosasi
papilla, ae <i>f</i>	so‘rg‘ich
patella, ae <i>f</i>	tizza qopqog‘i
protuberantia, ae <i>f</i>	do‘nglik
pulpa, ae <i>f</i>	go‘sht, pulpa
raphe, es <i>f</i>	chok (yumshoq to‘qima, pay, mushaklarniki)
scapula, ae <i>f</i>	kurak suyagi
spina, ae <i>f</i>	o‘tkir qirra
sutura, ae <i>f</i>	chok (suyakniki)
tuba, ae <i>f</i>	nay
vena, ae <i>f</i>	vena
vertebra, ae <i>f</i>	umurtqa

II turlanishdagi otlar

alveolus, i <i>m</i>	katakcha, alveola
angulus, i <i>m</i>	burchak
brachium, i <i>n</i>	yelka
calcaneus, i <i>m</i>	tovon suyagi
cavum, i <i>n</i>	bo‘shliq
cranium, i <i>n</i>	kalla
digitus, i <i>m</i>	barmoq

frenulum, i <i>n</i>	yugancha
humerus, i <i>m</i>	yelka suyagi
jugum, i <i>n</i>	tepalik
labium, i <i>n</i>	lab
ligamentum, i <i>n</i>	boylam
manubrium, i <i>n</i>	dasta
musculus, i <i>m</i>	mushak
septum, i <i>n</i>	to'siq
sulcus, i <i>m</i>	egat
radius, i <i>m</i>	bilak suyagi
sternum, i <i>n</i>	to'sh suyagi
tympanum, i <i>n</i>	nog'ora

III turlanishdagi otlar

corpus, oris <i>n</i>	tana, gavda
crus, cruris <i>n</i>	bilak, oyoqcha
foramen, inis <i>n</i>	teshik
os, ossis <i>n</i>	suyak

IV turlanishdagi otlar

arcus, us <i>m</i>	yoy, ravoq
cornu, us <i>n</i>	shox, muguz
ductus, us <i>m</i>	ariq, yo'l
meatus, us <i>m</i>	yo'l, yo'lak
processus, us <i>m</i>	o'simta
sinus, us <i>m</i>	bo'shliq, sinus
textus, us <i>m</i>	to'qima
genu, us <i>n</i>	tizza

V turlanishdagi otlar

facies, ei <i>f</i>	yuz, yuza
---------------------	-----------

**super/
infer/ior**

Super/ior va infer/ior terminlarini qo'llab tana bo'shliqlaridagi joylashishni belgilang:

Ko'krak qafasi bo'shlig'i qorin-chanoq bo'shlig'ining _____ / _____ qismida joylashgan.

Umurtqa pog'onasi bo'shlig'i kalla bo'shlig'ining _____ / _____ qismida joylashgan.

2-52

(5) **Diaphragma** – nafas olishda muhim rol o'ynovchi gumbazsimon mushak. U thorac/ic bo'shliqni abdomin/o/pelv/ic bo'shliqdan ajratib turadi. Diafragmani 2-3 rasmdan toping.

**pelvis
thorax
abdomen**

2-53

Quyidagi ma'noli terminlar so'z o'zaklarini yozing:

chanoq: _____

ko'krak qafasi: _____

qorin: _____

**crani/alis
spin/alis**

2-54

2.41. Dors/al bo'shliq (6)cavitas cranialis va (7)cavitas spinalisdan tashkil topgan. Bu bo'shliqlarda nerv sistemasi a'zolari: bosh va orqa miya joylashgan. Asab tizimi organizmning eng murakkab tizimlaridan bo'lib, organizmning hayot faoliyatini boshqaradi.

Quyidagi ma'noli terminlarni yasang:

kallaga oid: _____ / _____

umurtqa pog'onasiga oid: _____ / _____

**crani/alis
spin/alis**

2-55

Oldingi muhokamada dors/al bo'shliq, boshga oid bo'shliq o'z ichiga oladi, orqa bo'shliq umurtqa pog'onasi bo'ylab shakllanadi, orqa miyani ham o'z ichiga oladi. 2-3 jadvalni to'ldiring.

Tana bo'shlig'i o'rab turadi

kalla suyagi _____ / _____

bo'shlig'i. orqa miya _____ / _____

bo'shlig'i.

¹Barbara A.Gylys, Regina M.Masters"Medical Terminology Simplified fourth edition "USA2010/Chapter-1.P.45



Nazorat savollari:

1. Lotin tilida otlar nechta rodga ega?
2. Otda nechta son bor?
3. Otlar nechta kelishikka ega?
4. Lotin tilida otlar nechta turlanishga ega?
5. Otlarning lugʻat shakli qanday?
6. Lotin tilida otlar negizi qanday aniqlanadi?
7. Moslashmagan aniqlovchi qaysi soʻz turkumidan iborat?

Aegroto, dum anima est, spes esse dicitur. –Bemor nafas olar ekan, umid bor deyishadi.

Comple aegrōtum bonā spe. –Bemorni yaxshilikka umidvor qil

§4. Sifat. Sifatning grammatik kategoriyalari. Sifatning ikki guruhi. Sifatning lugʻat shakli. Sifatlarning ot bilan moslashish qoidalar.

Maqsad: Lotin tilida sifatning grammatik kategoriyalarini, lugʻat shakli tarkibini, sifatning ot bilan moslashish tartibini *bilib olish*. -us va -is sifatlarining lugʻat shaklini tuzishni; -us, -a, -um, -is, -e sifatlarining *Gen. sing.* shaklini hosil qilishni; terminlarni lotin tilidan oʻzbek tiliga va oʻzbek tilidan lotin tiliga moslashgan aniqlovchi bilan tarjima *qila olish*.

Sifat. Sifatning grammatik kategoriyalari. Sifatning lugʻat shakli

1. I va II guruh sifatlarining bosh va qaratqich kelishigidagi qoʻshimchalari:

	I guruh sifatlar			II guruh sifatlar		
Rod	M	f	n	m	f	n
Nom.sing	Us	a	u m	is	is	e
Gen.sing	I	ae	i	is		

2. Sifatlar lugʻatda *mrodida* toʻliq yoziladi, soʻngra *f* va *n*rodtugallanmalari yoziladi:

<i>M</i>	<i>F</i>	<i>n</i>	
longus	A	um	uzun

Liber	era	erum	erkin
dexter	tra	trum	o'ng

-er qoshimchali ko'pchilik sifatlarda e harfi faqat *m* rodi *Nom. sing.* da saqlanib qoladi; barcha vositali to'ldiruvchilar hamda *f* va *n* rodida u tushib qoladi (ya'ni negiz o'zgaradi!). Shuning uchun bunday sifatlarning lug'at shaklida *f* va *n* rodining qoshimchasidan oldin negiz oxiri yoziladi: sinister, tra, trum - chap.

3. Sifatlarning katta guruhi *m* va *f* rodida bir xil -is qoshimchasiga ega. Bunday sifatlarning lug'at shakli ikki komponentdan: *m* va *f* rodidagi bir xil shakldan (-is) hamda *n* ro qoshimchasidan (-e) iborat:

<i>m, f</i>	<i>N</i>	
Vertebralis	E	umurtqaga oid
Frontalis	e	peshonaga oid

4. Barcha rodga bir xil tugallanuvchi sifatlarning guruhi ham mavjud: simplex, icis - oddiy.

Mashqlar

I. Sifatlarni lug'at shaklida yozing:

transversus, spinosus, cervicalis, osseus, spinalis, ethmoidalis, latus, obliquus, costalis, vertebralis, zygomaticus, orbitalis.

II. Sifatlarning *n* roddagi shaklini hosil qiling, tarjima qiling:

longus, costarius, palatinus, sphenoidalis, frontalis, articularis, nutricius, ovalis, pelvinus, cerebralis.

III. Sifatlarning *f* rodidagi shaklini hosil qiling, tarjima qiling:

medianus, thoacicus, spongiosus, pterygoideus, mastoideus.

IV. Sifatlarning rodini aniqlang, tarjima qiling:

substantia compacta et substantia spongiosa, os temporale, columna vertebralis, foramen vertebrale, facies articularis, processus articularis, processus transversus, foramen transversarium, cornu sacrale, crista sacralis, foramen sacrale pelvinum, os

sacrum, linea transversa, porus acusticus externus, sutura squamosa, palatum durum, palatum molle, protuberantia occipitalis externa, vena cava.

V. Lotin tiliga tarjima qiling, sifatlarni otlar bilan moslashtiring.

A. ko'ndalang (egat, chiziq, boylam); umurtqaga oid (kanal, o'yma, teshik); so'rg'ichsimon (o'simta, qism, g'or); venaga oid (qopqoqcha, chigal, sinus); tanglayga oid (o'simta, suyak, egat); bo'g'imga oid (o'simta, yuza, do'mboqcha); ponasimon (sinus, chig'anoq, suyak); peshonaga oid (burchak, chok, do'mboq); qanotsimon (mushak, chuqur); yonoqqa oid (yoy, suyak).

B. g'alvirsimon (teshik, qirra, labirint); ko'z kosasi ostiga oid (kanal, teshik, egat); engakka oid (do'nglik, do'mboqcha, teshik); alveolaga oid (o'simta, yoy, bo'rtiq).

VI. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. oval teshik, ko'krakka oid fassiya, ichki kapsula, o'tkir qirrali teshik, kalla tepasiga oid bo'lak, yuzaki vena, o'rta chakkaga oid arteriya, tohsimon shox, ko'ndalang tanglaga oid chok, halqumga oid chigal, chuqur bo'yinga oid limfa tuguni.

B. dumg'azga oid shox, qo'l kafti ustiga bo'g'imga oid yuza, qizil yadro, yonbosh o'tkir qirra, yonbosh do'mboqcha, dumg'azga oid segment, o'rta dumg'azga oid qirra, tashqi ensaga oid qirra.

C. qattiq tanglay, yumshoq tanglay, chaynovchi fassiya, tashqi tishga oid epiteliy, ichki eshituga oid teshik, o'rta burunga oid chig'anog', qo'shimcha burunga oid tog'ay, ichki ensaga oid do'nglik.

D. burunning suyakka oid to'sig'i, tohsimon sinusning egati, chap bel poyasi, o'rta kalla suyagining chuqurchasi, yuqori jag'ning tanglayga oid o'simtasi, umurtqaning bo'g'imga oid o'simtasi.

E. to'shning bo'yinturuq o'ymasi, qovurg'a do'mboqchasining bo'g'im yuzasi, o'mrovning trapetsiyasimon chizig'i, bilak suyagining bigizsimon o'simtasi, tizzaning ko'ndalang boylami, katta boldir suyagining medial yuzasi, dahliz suvotkazgichining tashqi tuynugi, chig'anoq kanalchasining tashqi aperturasi.

F. periodont tish alveolasi, lateral tishning plastinasi, tilning o'rta egati, yuzning chuqur venasi, og'iz labining oraliq qismi, yuqori jag'ning burunga oid yuzasi, o'rta burunga oid yo'l, tanglay suyagining peripendikular plastinasi.

G. umurtqa pogʻonasining boylami, ensaga oid arteriyaning egati, peshonaga oid sinusning egati, qalqonsimon bezning fibroz kapsulasi.

H. koʻz yosh beziga oidchuqurcha, ensaga oid arteriyaning shoxi, bigizsimon oʻsimta qini, toshsimon asabning egati, eshituv nayining egati, ensaga oid suyakning tangachasi, quymichga oid suyakning shoxi, prostata fassiyasi.

VII. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring, oʻzbek tiliga tarjima qiling:

protuberantia (occipitalis, e; externus, a, um); facies (articularis, e; carpeus, a, um); foramen (occipitalis, e; magnus, a, um); musculus (intercostalis, e; externus, a, um); ligamentum (sacrococcygeus, a, um; dorsalis, e; profundus, a, um); ductus (hepaticus, a, um; communis, e); substantia (albus, a, um; niger, gra, grum).

Murakkab anatomik terminlarning tuzilishi

Terminlar tuzilish turlari			
Bir soʻzli	Qoʻshmateterminlar-soʻz birikmalari		
	Ikki soʻzli		Koʻp soʻzli
Bosh kelishik birlikdagi yoki koʻplikdagi ot: <u>cor</u> , <u>ossa</u>	Bosh kelishikdagi ot + moslashgan aniqlov- chi (sifat, sifatdosh, tartib son): vertebra thoracica	Bosh kelishikdagi ot + moslashmagan aniq-lovchi (qaratqich kelishigidagi ot): caput costae	Moslashgan yoki moslashmagan aniqlovchili soʻz birikmasi + butun soʻz birikmasiga aniqlovchi: fovea articularis superior

NB!1. Anatomik terminda birinchi oʻrinda doim bosh kelishikdagi ot turadi, undan soʻng bir yoki bir nechta tobe soʻz keladi.

Bunday aniqlovchilar lotin termini boshlanuvchi ot turkumiga mansub bosh soʻz bilan doim moslashadi va koʻp holatlarda oxirgi oʻringa qoʻyiladi: *protuberantia occipitalis externa*–tashqi ensa doʻngligi, *linea nucha suprema*– eng yuqori ensa chizigʻi, *canalis palatinus major*– katta tanglay kanali.

Moslashgan va moslashmagan aniqlovchi

Moslashgan aniqlovchi deb aniqlanmish ot bilan bir xil rodada, sonda va kelishikda bo'lgan aniqlovchilar tushuniladi. Moslashgan aniqlovchi ko'p holatlarda sifatda ifodalanadi: *columna vertebralis*– umurtqa pog'onasi, *tonsilla palatina*– tanglay bodomchasi.

Moslashmagan deb qaratqich kelishigida bo'lgan ot bilan ifodalanuvchi aniqlovchilar tushuniladi: *corpus vertebrae*– umurtqa tanasi, *cavum nasi*– burun bo'shlig'i, *fossa cranii*– kalla chuquri, *arcus pubis*– qov ravog'i, *crista galli*– xo'roz toji.


Mashqlar

Lotin terminlarining so'zma-so'z tarjimasidan foydalangan holda har bir so'zning kelishigini aniqlang.

A. *vertebra thoracica* - ko'krak umurtqasi; *arcus vertebrae* - umurtqa ravog'i; *massae laterales* - yon massalar; *collum radii* - bilak suyagi bo'yni; *pediculi arcus vertebrae* - umurtqa ravog'i oyoqchalari; *ligamentum longitudinale anterius* - oldingi bo'ylama boylam; *ligamentum capitis costae intraarticulare* - qovurg'a boshchasi bo'g'im ichi boylami; *basis ossis sacri* - dumg'aza suyagi asosi (=dumg'aza asosi); *labium mediale lineae asperae* - g'adir-budur chiziq medial labi; *sulcus sinus sigmoidei* - sigmasimon sinus egati; *fovea articularis processus articularis superioris* - yuqori bo'g'im o'simtasi bo'g'im chuquri; *aponeurosis musculi obliqui externi abdominis* - qorin tashqi qiyshiq mushagi aponevrozi; *musculus rectus capitis posterior major* - boshning katta orqa to'g'ri mushagi; *arteriae alveolares superiores anteriores* - oldingi yuqori alveola arteriyalari.

B. *processus articularis inferior vertebrae lumbalis secundae* - ikkinchi bel umurtqasi quyi bo'g'im o'simtasi; *ligamenta columnae vertebralis* - umurtqa pog'onasi boylamlari; *caput superius musculi pterygoidei lateralis* - yon qanotsimon mushakning yuqori boshi; *articulationes cinguli membri superioris* - yuqori mucha kamari bo'g'imlari (=yelka kamari bo'g'imlari); *sinus venarum cavarum atrii dextri* - o'ng bo'lmacha kavak venalari sinusi.

C. tuber maxillae - yuqori jag‘ do‘mbog‘i; palatum durum - qattiq tanglay; apex radialis dentis - tish ildizi uchi; foramen palatinum majus - katta tanglay teshigi; tunica mucosa linguae - til shilliq qavati; cartilago septi nasi - burun to‘sig‘i tog‘ayi; concha nasalis inferior - quyi burun chig‘anog‘i; plexus cavernosi concharum - chig‘anoqlar g‘orsimon chigallari.



1.4-rasm. Boshning yonbosh qismi



Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

clavicula, ae <i>f</i>	o‘mrov
fascia, ae <i>f</i>	fassiya
fibula, ae <i>f</i>	kichik boldir suyagi
nucha, ae <i>f</i>	ensa
squama, ae <i>f</i>	tanga
tibia, ae <i>f</i>	katta boldir suyagi
tonsilla, ae <i>f</i>	bodomcha
ulna, ae <i>f</i>	tirsak suyagi

II turlanishdagi otlar

nasus, i <i>m</i>	burun
organum, i <i>n</i>	a'zo
palatum, i <i>n</i>	tanglay
porus, i <i>m</i>	teshikcha
vestibulum, i <i>n</i>	dahliz

III turlanishdagi otlar

caput, itis <i>n</i>	bosh
os, oris <i>n</i>	og'iz

I guruh sifatleri

albus, a, um	oq
asper, a, um	g'adir-budur
coronarius, a, um	tojsimon
dexter, tra, trum	o'ng
durus, a, um	qattiq
iliacus, a, um	yonboshga oid
liber, era, erum	erkin
massetericus, a, um	chaynovchi (mushak)
mylohoideus, a, um	jag'-til osti
niger, gra, grum	qora
obliquus, a, um	qiyshiq
osseus, a, um	suyakka oid
palatinus, a, um	tanglayga oid
palatoglossus, a, um	tanglay-til osti
pterygoideus, a, um	qanotsimon
rectus, a, um	to'g'ri
sacer, cra, crum	dumg'azaga oid
sinister, tra, trum	chap
thoracicus, a, um	ko'krakka oid
thyr(e)oideus, a, um	qalqonsimon

transversus, a, um
venosus, a, um
zygomaticus, a, um

ko‘ndalang
venaga oid
yonoqqa oid

II guruh sifatlari

alaris, e
cerebralis, e
cervicalis, e
dentalis, e
ethmoidalis, e
frontalis, e
infraorbitalis, e
jugularis, e
mandibularis, e
maxillaris, e
mentalis, e
mollis, e
nasalis, e
occipitalis, e
orbitalis, e
sacralis, e
sphenoidalis, e
temporalis, e
vertebralis, e

qanotga oid
miyaga oid
bo‘yinga oid
tishga oid
g‘alvirsimon
peshonaga oid
ko‘z kosasi osti
bo‘yinturuqqa oid
pastki jag‘ga oid
yuqori jag‘ga oid
engakka oid
yumshoq
burunga oid
ensaga oid
ko‘z kosasiga oid
dumg‘azaga oid
ponasimon
chakkaga oid
umurtqaga oid


QORIN-CHANOQ KVADRATLARI VA SOHALARI

Qorin-chanoq sohasi o'z navbatida kvadrantlar va kichik sohalarga bo'linadi (2-4 rasmga qarang).

2–
56

2.42. Abdomen/o/pelv/ic bo'shliq katta maydonni egallar ekan, uni yana ham kichikroq qismlarga bo'lib o'rganish qulayroqdir. Abdomin/o/pelvic bo'shliqni bo'lish usullaridan biri kvadrantlarga ajratishdir. Ikkinchi usul esa esa uni sohalarga ajratish hisoblanadi. Shifokorlar va tibbiyot xodimlari kvadrant va sohalardan mo'ljal sifatida foydalanishadi.

Abdomen/o/pelv/in bo'shliqdagi katta bo'linishlar to'rtta kvadrantni o'z ichiga oladi: o'ng yuqori kvadrant, chap yuqori kvadrant, o'ng quyi kvadrant va chap quyi kvadrant. Kvadrantlarni rasmdan toping.



Rasm 1.5 Qorin-chanoq kvadrantlari va sohalari. (A) Qorinning to'rt kvadranti. (B) Qorinning to'qqiz sohasi.

¹Barbara A.Gylys, Regina M.Masters"Medical Terminology Simplified fourth edition
"USA2010/Chapter-1.P.46



Nazorat savollari

1. Sifatlarda nechta guruh bor?
- 2.1-guruh sifatlarini qo'shimchalari qanday?
- 3.2-guruh sifatlarini qo'shimchalari qanday?
4. Sifatlar otlar bilan qanday moslashadi?

Cave, ne laedas. – Zarar yetkazma, ehtiyot bo'!

Diagnōsis bona - curatio bona. – Durust tashxis - durust davo.

§5. Sifatlar darajalari. Qiyosiy darajani hosil qilish. Anatomik terminlarda ko'p uchraydigan qiyosiy darajadagi sifatlar, ularning ma'nosi va qo'llanilishidagi o'ziga xosligi.

Maqsad: Qiyosiy darajani hosil qilish qoidalar va ko'p uchraydigan qiyosiy darajadagi sifatlarni *bilib olish*. Qiyosiy darajadagi shaklni oddiy darajadagi shakldan ajratishni; qiyosiy daraja *Gen. sing.* shaklini hosil qilishni; qiyosiy darajadagi sifatning negizini ajratishni; qiyosiy darajadagi sifatlarni otlar bilan *moslashtira olish*.

Sifatning qiyosiy darajasi

Lotin tilida sifatlar uchta darajaga ega:

1. Oddiy daraja – *Gradus positivus*
2. Qiyosiy daraja – *Gradus comperativus*
3. Orttirma daraja – *Gradus superlativus*

Oddiy daraja		O'zak	Qiyosiy daraja <i>m, f, n</i>
uzun	longus, a, um	long-	+ ior (m,f), ius (n) longior, ius
qisqa	brevis, e	brev-	brevior, ius
katta	magnus, a, um	noto'g'ri darajali sifalar	Major (m,f), ius (n)
kichik	parvus, a, um		Minor (m,f), us (n)

Sifatlarning qiyosiy darajasini hosil qilish:

Rod	M	f	n
Nom. Sing	Ior	ior	ius
Gen. sing	ioris		

Quyidagi qiyosiy darajadagi sifatlar anatomik terminlarda oddiy darajada tarjima qilinadi:

anterior, ius	oldingi
posterior, ius	orqadagi
superior, ius	yuqori
inferior, ius	pastki
major, jus	katta
minor, us	kichik

Qiyosiy darajadagi sifatlar III turlanish bo'yicha turlanadi, ya'ni (Gen. sing.) -is qo'shimchasini oladi. Qiyosiy darajadagi Gen. sing. shakli uchala rod uchun bir xil:

Nom. sing.	Gen. sing.
major (m)	
major (f)	majoris
majus (n)	
superior (m)	
superior (f)	superioris
superius (n)	

NB!

1. Qiyosiy darajadagi sifatlarning negizi Gen. Sing. shakli bo'yicha aniqlanadi.
2. Uchala roddagi sifat negizi birxilbo'ladi.
3. Qiyosiy darajadagi sifatlarning negizi *m* va *f* rodidagi sifatlarning (Nom. sing.) shakliga mos keladi.

Mashqlar

I. Sifatlarning qiyosiy darajasi lug'at shaklini tuzing:

minor, major, anterior, superior, inferior, posterior, simplicior, longior, brevior, albior, rubrior.

II. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

anterior, superior, inferior, minus, majus, anterior, posterior, inferior, posterius, superius, minor, major.

III. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring:

yuqori (o‘simta, o‘yma, teshik); orqa (ravoq, yuza, boylam); katta (egat, qanot, bosh); katta va kichik (shox); oldingi (do‘mboqcha, egat, qirra, boylam, teshik); pastki (sinus, qism, o‘tkir qirra); kichik (do‘mboqcha, teshik, chuqur)

IV. Lotin tiliga tarjima qiling:

katta tanglay kanali, kekirdak va katta bronx, pastki burunga oid chig‘anogi, oldingi ko‘z yoshga oid qirra, kichik toshsimon asab, pastki qalqonsimon do‘mboqcha, orqa uzun boylam, tashqi ko‘ruv asabining qini, pastki hiqildoqqa oid arteriY.

V. Qiyosiy darajadagi sifatlarning *Gen. sing.* ni hosil qiling:

major, us; minor, us; inferior, ius; superior, ius; posterior, ius; anterior, ius; brevior, ius; longior, ius; simplicior, ius; latior, ius; albior, ius; nigrior, ius.

VI. *Gen. sing.* gaqo‘ying:

processus superior, incisura superior, foramen superius, arcus posterior, facies posterior, ligamentum posterius, sulcus major, ala major, caput majus, cornu majus et minus, labium inferius, ramus superior, incisura ischiadica major, tuberculum obturatorium posterius.

VII. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

musculus scalenus anterior, tuberculum musculi scaleni anterioris, processus articularis superior, fovea articularis processus articularis superioris, caput superius musculi pterygoidei lateralis, cingulum membri superioris, tuberculum mediale processus posterioris tali, tendo musculi tibialis posterioris, nervus cutaneus brachii lateralis inferior.

VIII. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. katta tanglay egati, yuqori ko'ndalang boylam, katta tanglayga oid teshik, oldingi medial yuza, yuqori ko'ndalang arteriya, oldingi uzun boylam, yuqori bo'yin gangliyi, katta toshsimon asab, orqa g'alvirsimon teshik.


B. kichik quymuch o'ymasi, orqa dumba chizig'i, pastki bo'g'im o'simtasi, yuqori orqa yonbosh o'tkir qirra, oldingi dumg'aza teshigi, oldingi teri shoxchasi.

C. oldingi til bezi, katta til osti yo'li, pastki lab, yuqori orqa alveola teshigi, kichik yonoq mushagi.

D. pastki toshsimon sinusning egati, katta do'mboqcha qirrasi, pastki burun chig'anog'i o'simtasi, katta qanotning chakkaga oid yuzasi, darvoza venaning o'ng tarmog'i, bel umurtqasining yuqori bo'g'im o'simtasi, pastki bo'sh venaning kirish teshigi, bo'yinturuq venasining yuqori piyozchasi, yuqori qovoqning mushagi, til osti suyagning katta shoxi.

E. yuqori a'zo skeleti, kichik boldir suyagi boshchasining oldingi boylami, miyachaning oldingi bo'lagi, siydik pufagining tubi, kichik toshsimon asab kanalining tirqishi (yorig'i), ponasimon suyakning kichik qanoti, yuqori bo'sh venaning kirish teshigi.

F. yuqori labning yuganchasi, tilning pastki yuzasi, pastki burun chig'anog'ining yuqori jag' o'simtasi, yuqori uzunchoq tilning mushagi, pastki tishga oid yoy.



1.6-rasm. Odam sohalarining lotin tilida nomlanishi



Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

bursa, ae <i>f</i>	halta
pleura, ae <i>f</i>	plevra
valvula, ae <i>f</i>	qopqoq
vena portae	darvoza vena

II turlanishdagi otlar

cerebellum, i <i>n</i>	miyacha
cerebrum, i <i>n</i>	katta bosh miya
encephalon <i>n</i>	bosh miya
ganglion, i <i>n</i>	asab tuguni, gangliy
nodus, i <i>m</i>	tugun
nervus, i <i>m</i>	asab
oculus, i <i>m</i>	ko'z
ostium, i <i>n</i>	kirish teshigi

I guruhsifatlari

cavus, a, um	bo'sh (kavak)
cutaneus, a, um	teriga oid
ischiodicus, a, um	quymuchga oid
laryngeus, a, um	hiqildoqqa oid
latus, a, um	keng
longus, a, um	uzun
magnus, a, um	katta
mastoideus, a, um	so'rg'ichsimon
parvus, a, um	kichik
pharyngeus, a, um	halqumga oid
profundus, a, um	chuqur
squamosus, a, um	tangachasimon
trapezoideus, a, um	trapetsiyasimon

II guruh sifatleri

auricularis, e	quloqqa oid
dorsalis, e	orqagaoid
facialis, e	yuzgaoid
lacrimalis, e	ko'z yoshga oid
lingualis, e	tilga oid
muscularis, e	mushakka oid
parietalis, e	parietal, tepa suyakka oid
ventralis, e	old (qorin) ga oid

Qiyosiy darajadagi sifatlar

anterior, ius	oldingi
inferior, ius	quyi
major, jus	katta
minor, us	kichik
posterior, ius	orqa(ortki)
superior, ius	yuqori

BO'LIMNIQ AY TARISH 2 – 1

Quyidagitibbiyatamallarnielemlaribo'yichatarjimaqiling. Birinchisi namunatariqasidaberilgan:

Term	Meaning
1. dist/al	-al: -gaoid ; uzoq, eng uzoq
anter/ior	
6. later/al	
7. medi/ad	
8. cyt/o/toxic	
9. proxim/al	
10. ventr/al	

O'zlashtirish niteksirish O'z javoblaringiz Qo'shimcha B dan, Javob kalitlaridan tekshiring. Key, page 555.
Agarsizoz'zingizoz'zlashtirgandarajadanqoniqmasangiz, review the vocabulary and retake the review.
To'g'ri javoblar 10 % Natija

Tuzulish Asosiy Birliklari

nucle/o	2-1 Hujayra – odam tanasidagi eng kichik tirik tuzilish va faoliyat biirligidir. Tanadagi har bir to'qimavaa'zohujayralardan iborat. 2-1 rasmda hujayra darajasidagi tuzilmalarga qarang. Markazdagi soyalangan maydon – nucleu sgae'tibor bering. U hujayraning boshqaruv markazi bo'lib, ko'payishga javob beradi. Ushbu harsimon birlik organizm tizimlarining hayotini saqlab turish hamda o'sish va ko'payish uchun buyruqlar haqidairis axborot tutadi. Nucle/us atamasibirik mashakli: _____/_____.
-toxic nucle/o	2-2 Yadroning hujayra viyko'payish jarayoniga xalaqit beruvchi yoki buzuvchi harqanday kimyoviy modda – nucle/o/toxic substance deyiladi. Nucle/o/toxic dorivositasi sifatida saratonlibemorlarga yuboriladigan ximioterapiyani misol qilsabo'ladi. Shu qismdagielmentlarnitahlil qiling poison: _____ nucleus: _____/_____



Nazorat savollari:

1. I turlanishdagi otlar Norminativus et Genetivivus singularisda qanday qo'shimchalarga ega?
2. II turlanishdagi otlarni yasashda qanday qo'shimchaalar qo'llaniladi?
3. Moslashmagan aniqlovchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalaniladi?
4. IV turlanishdagi otlar qanday qo'shimchaga ega?
5. Noteng bo'g'inli otlar deganda nimani tushunasiz? Teng bo'g'ili otlar deganda-chi?
6. III turlanishdagi otlarning negizini qanday aniqlash mumkin?
7. III turlanishdagi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
8. I-II guruh sifatleri III turlanishdagi otlar bilan qanday moslashadi? Misollar keltiring.

Hygiēna amīca valetudinis. – Gigena - sog'liqning dugonasi.

Natūra sanat, medīcus curat morbos. – Tabiat sog'lomlashtiradi, shifokor kasallikni davolaydi.

§6. Sifatning orttirma darajasi. Sifat haqida ma'lumotlarni umumlashtirish.

Maqsad: Orttirma daraja hosil qilish qoidasi va lug'at shaklini; bir xil tugallanmali sifatlarining lug'at shakli va *Gen. sing.* ni; ichak va pardalar nomida qo'llaniluvchi substantivatlarni *bilib olish*. Barcha darajalardagi sifatlar ifodalangan tushunchalarni *Nom.* va *Gen. sing.* da otlar bilan *moslashtira olish*.

Sifatning orttirma darajasi

Sifatlarning orttirma darajasi oddiy daraja negiziga *-issim* suffiksi (*-er* qo'shimchali sifatlardan tashqari) va rodning qo'shimchalari (m) *-us*, (f) *-a*, (n) *-um* qo'shish yordamida hosil bo'ladi:

Oddiy daraja		Suffiks	Orttirma daraja <i>m, f, n</i>
uzun	longus, a, um	-issim-	longissimus, a, um
qisqa	brevi, e	-issim-	brevissimus, a, um
qizil	ruber, bra, brum	-rim-	ruberrimus, a, um

	<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Orttirma daraja</i>
oldingi	anterior, ius	—
orqadagi	posterior, ius	postremus, a, um
yuqori	superior, ius	supremus, a, um
pastki	inferior, ius	infimus, a, um
katta	major, jus	maximus, a, um
kichik	minor, us	minimus, a, um

Sifatlarni ot o'rnida ishlatilishi

Sifatlarni ot o'rnida ishlatilishisifat yoki sifatdoshlarning ot turkumiga o'tishiga aytiladi.

1. **Ichaklar nomi.** Ichaklar nomi *n* roddagi otlashgan sifatlardan iborat: ileum, i *n* - yonbosh ichak; colon, i *n* - chambar ichak (nazarda tutilgan so'z intestinum, i *n*).

Istisno: intestinum tenue - ingichka ichak

2. **Pardalar nomi:** arachnoidea, ae *f* (mater, tris *f*) - to'r parda; conjunctiva, ae *f* (tunica, ae *f*) - ko'zning biriktiruvchi to'qimali pardasi, konyunktiva; cornea, ae *f* - muguz parda; decidua, ae *f* - ko'chuvchi parda; mucosa, ae *f* - shilliq parda.

Mashqlar

I. Lotin tiliga tarjima qiling:

orqaning eng uzun mushagi, orqaning eng uzun mushagining haltasi, eng yuqori orqa chizig'i, eng katta dumbaga oid mushak, ko'krak qafasining eng uzun mushagi, eng yuqori burun chizig'i, eng kichik dumbaga oid mushak, bo'yinning eng uzun muskuli, eng kichik barmoq (jimjiloq), jimjiloqning eng qisqa muskuli, eng kichik narvonsimon muskul.

II. O'zbek tiliga tarjima qiling:

musculus teres minor, musculus pronator teres, bursa musculi teretis majoris, ligamentum teres acetabuli, articulatio simplex, musculus biceps femoris, substantia duplex, substantia triplex, caput longum musculi tricipitis brachii, caput breve musculi bicipitis brachii, crus simplex canalis lateralis.

III. Gen. sing. ga qo'ying:

os longum, os breve, ligamentum teres, ligamentum latum, cornu majus, musculus teres major, crus osseum simplex, substantia triplex, musculus quadriceps, ductus sublingualis major, glandula alveolaris simplex, ductus bilifer.

IV. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

A. arcus palatoglossus, glandula sublingualis, lamina muscularis mucosae oesophagi, musculus bronchooesophageus, vena cerebri magna, musculus latissimus dorsi, bulbus duodeni, spatium retroperitoneale, cavum periton(a)ei, tunica muscularis oesophagi, tunica mucosa tracheae, bronchus lobaris superior dexter, caput breve muscoli bicipitis brachii, incisura ligamenti teretis hepatis, musculus retrococcygeus, glandula parathy(r)oidea inferior, corpus ossis hyoidei, valvula semilunaris dextra ventriculi sinistra, tunica serosa vesicae felleae (biliaris), curvatura ventriculi minor, plica transversalis recti, papilla duodeni major, spina iliaca anterior superior, bronchus lobaris superior dexter.

B. tuberculum humeri minus, caput longum muscoli bicipitis femoris, raphe perinei, flexura duodenojejunalis, tenia libera coli et c(a)eci, musculus quadriceps femoris, tunica spongiosa urethrae, musculus flexor digiti minimi brevis, ramus ascendens nervi hypoglossi, valva ileocecalis, bursa subtendinea muscoli bicipitis femoris inferior, gyrus occipitotemporalis medialis, labium uteri anterius, papilla duodeni major, ostium urethrae externum, tunica muscularis vaginae.


V. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. to‘g‘ri ichak ampulasi, o‘n ikki barmoq ichakning uzunchoq burmasi, ingichka ichakning muskul pardasi, sigmasimon chambar ichak, chambar ichakning o‘ng bukigi, yonbosh do‘mboqcha, me‘daning tubi, me‘da-o‘n ikki barmoq ichakka oid arteriya, halqum orqasiga oid limfa tuguni, eng baland ensa chizig‘i, me‘daning kardial teshigi (kirish teshigi), chap qorincha, katta yumaloq mushak, bachadonning yumaloq boylami, o‘n ikki barmoq ichakning gorizontaal qismi, o‘mrov ustiga oid qism, bilakning teriga oid orqa asabi, oddiy bo‘g‘im, bachadonning ichakka oid yuzasi, yonbosh qirra.

B. umumiy yonbosh arteriya, bigiz-halqum mushagi, g‘orsimonaro sinus, bigiz-til osti mushagi, o‘ng bo‘yinturuq gavdasi, bez tubi, to‘sh-qalqonsimon mushak, qinning

kirish teshigi, chotning chuqur ko'ndalang mushagi, konyunktivaning yarimoysimon burmasi, to'g'ri ichakning dumg'azaga oid bukigi, bachadon tubi, to'g'ri ichak-qinga oid to'sig', qin atrofiga oid limfa tuguni, shilliq ostiga oid chigal, chotning ko'ndalang boylami, bachadon nayi, qirg'oq ustiga oid pushta, markaz atrofiga oid bo'lakcha, uch boshli mushak.

C. pastkii kesuvchi tish, medial yuqori kesuvchi tishning ildizi, doimiy tish, yuqori qoziq tish, pastki qoziq tishning do'mboqchasi, pastki kichiq oziq tishning tilga oid yuzasi, katta oziq tish, yuqori katta oziq tish karonkasining yuzasi, sut tishi, aql tish.



1.7-rasm. Ichaklar



Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

conjunctiva, ae *f*

corona, ae *f*

flexura, ae *f*

mucosa, ae *f*

tunica, ae *f*

konyunktiva

toj

bukilma

shilliq parda

qobiq, parda

urethra, ae *f*

siydik chiqaruv yo‘li

II turlanishdagi otlar

anus, i *m*

orqa peshov

caecum, i *n*

ko‘r ichak

colon, i *n*

chambar ichak

crassum, i *n*

yo‘g‘on ichak

duodenum, i *n*

o‘n ikki barmoq ichak

fundus, i *m*

tub

jejunum, i *n*

och ichak

ileum, i *n*

yonbosh ichak

intestinum, i *n*

ichak

(o)esophagus, i *m*

qizilo‘ngach

ovarium, i *n*

tuxumdon

perineum, i *n*

chot

peritoneum, i *n*

qorin parda

rectum, i *n*

to‘g‘ri ichak

truncus, i *m*

poya, tana

uterus, i *m*

bachadon

ventriculus, i *m*

qorincha

III turlanishdagi otlar

dens, dentis *m*

tish

I guruh sifatleri

caninus, a, um

itga oid, qoziq (tish)

deciduus, a, um

to‘kiluvchi, ko‘chuvchi, sut (tishi)

geniohyoideus, a, um

engak-til osti

hyoideus, a, um

tilosti (suyagi)

hypoglossus, a, um

tilosti (asabi)

iliacus, a, um

yonbosh

incisivus, a, um

kesuvchi

infrahyoideus, a, um

til osti tagi

mucosus, a, um
 omohyoideus, a, um
 sacrococcygeus, a, um
 sternohyoideus, a, um
 stylohyoideus, a, um
 stylopharyngeus, a, um
 submucosus, a, um
 suprahyoideus
 supremus, a, um
 thyrohyoideus, a, um

shilliqli
 kurak-til osti
 dumg‘aza-dumga oid
 to‘sh-til osti
 bigiz-til osti
 bigiz-halqumga oid
 shilliq osti
 til osti usti
 eng baland
 qalqonsimon-til osti

II guruh sifatlari

biceps, it is
 intestinalis, e
 molaris, e
 premolaris, e
 quadriceps, itis
 simplex, icis
 tenuis, e
 intestinum tenue
 teres, etis
 triceps, itis
 vaginalis, e

ikki boshli
 ichakka oid
 katta oziq tishga oid
 kichik oziq tishga oid
 to‘rt boshli
 oddiy
 ingichka
 ingichka ichak
 yumaloq
 uch boshli
 qinga oid

TIBBIY MUTAXASSISLIKLAR

Pulmonology – quyi nafas yo‘llari tuzilmalari, xususan o‘pkalar, ularning nafas yo‘llari va qon tomirlari hamda ko‘krak qafasi kasalliklarini tashxislash va davolash bilan shug‘ullanuvchi tibbiyot tarmog‘i. Nafas kasalliklarini davolovchishifokorlarga pulmonologist deyiladi. Nafas kasalliklariga astma, emfizema, surunkali bronxit, o‘pkaning kasb kasalliklari va o‘pka tomir kasalligi kiradi, lekin faqat shulardan iborat emas. Pulmonologlar maxsus ventilatsiya bilan ta‘minlashga va o‘pkalarni ko‘chirib o‘tkazishga muhtoj bemorlarni ham parvarishlaydi. Umuman olganda, ular o‘pka kasalliklari hamda o‘tkir va surunkali nafas yetishmovchiliklarini tashxislash va davolashga ixtisoslashadi. O‘pka kasalliklarini tashxislash va boshqarish o‘z ichiga o‘pka faoliyatini tekshiruv, arterial qonning gazga to‘yinish darajasi tahlili, ko‘krak qafasi rentgenografiyasi va kimyoviy yoki mikrobiologik tekshiruvlarni olishi mumkin.

ANATOMIK VA FIZIOLOGIK UMUMIY TUSHUNCHALAR

Nafas tizimi yuqori va quyi nafas yo‘llaridan tashkil topgan. Yuqori nafas yo‘llari burun, halqum, hiqildoq va kekirdakdan iborat. Quyi nafas yo‘llari esa o‘ng va chap bronxlar, bronxiolalar, alveolalar hamda o‘pkalarni o‘z ichiga oladi (4-1 rasimga qarang). Nafas tizimining asosiy vazifasi tanani o‘pka ventilatsiyasi bilan ta‘minlashdir. Nafas tuzilmalari, yurak-qon tomiri tizimi tuzilmalari bilan bir qatorda, tana hujayralariga kislorodni tashiydi va ulardan uglerod dioksidi (qoldiq mahsulot) ni chiqaradi. Bu jarayon nafas olish, tashqi muhit havosi va o‘pkada aylanayotgan qon orasida kislorod va ugrerod dioksidi almashinuvi hamda nafas chiqarish hodisalari orqali amalga oshadi. Nafas tizimining ikkilamchi vazifalariga tanaga o‘tayotgan havoni ilitib berish va nutq faoliyatida qatnashish (hiqildoq va ovoz boylamlarini havo bilan ta‘minlash) kiradi.


¹Barbara A.Gyls, Regina M.Masters”Medical Terminology Simplified fourth edition
“USA2010/Chapter-4.P.104

NafasTizimi

MAQSAD VA VAZIFALAR:

Boboxirida qilaolishingiz kerak:

- Pulmonologo ‘tkazadigandavolashturinita’ riflashni;
- Anatomik suratlarni belgilash orqali nafas tizimi tuzilmalarini aniqlashni;
- Nafas tizimi asosiy vazifalarini ta’riflashni;
- Nafas tizimi bilan bog‘liq keng tarqalgan kasalliklarni ta’riflashni;
- Nafas tizimi bilan bog‘liq umumiy tashxislash, konservativ va jarrohlik amaliyotlarini ta’riflashni;
- Nafas tizimi bilan bog‘liq tibbiy atamalarni tuzish orqali so‘zlash ko‘nikmalarini qo‘llashni;
- Nafas tizimi bilan bog‘liq umumiy qisqartmavaishoralarni ta’riflashni;
- Atamalarni tanish, aniqlash, to‘g‘ri talaffuz qilish va yozishni;
- Topshiriqlarni muvaffaqiyatli yakunlagan holda ushbu bobda o‘lgan bilimlaringizni namoyish etishni.



1.8-rasm Yuqori va quyi nafas yo'llarining old ko'rinishi.

¹Barbara A.Gyls, Regina M.Masters"Medical Terminology Simplified fourth edition
 "USA2010/Chapter-4.P.105



Nazorat savollari:

1. Lotin tilida nechta daraja bor?
2. Oddiy daraja qo'shimchalari qanday?
3. Qiyosiy daraja qo'shimchalari qanday?
4. Ortirma daraja qo'shimchalari qanday ?

Medicus amicus et servus aegrotorum est. – Shifokor bemorning ham do'sti, ham qulidir.

Nec quisquam melior medicus, quam fidus amicus. – A'lo shifokor yo'q, sodiq do'stdan boshqa.

§7. Otning III turlanishi: uning rod belgilari va negiz xususiyati. Otning III turlanish Genus Masculinum.

Maqsad: Otning III turlanish o'ziga xos xususiyatlarini; otning Masculinum rodi belgilari va negiz xususiyatlarini *bilib olish*. Otning III turlanish rodi va negiz xususiyatini aniqlashni; III turlanish Masculinumdagi otlarni sifatlar bilan bosh va qaratqich kelishik birlikda moslashtira olishni; mushaklarning lotincha nomlarini vazifasiga ko'ra hosil *qila olish*.

Otlarning III turlanishi.

1. III turlanishga *Gen. sing.* da -is bilan tugallanuvchi uchala roddagi otlar kiradi.
2. *Nom. sing.* da ular turlicha qo'shimchalarga ega: cortex, radix, pulmo, pes, crus, canalis, pars, dens, pulvinar.

Ba'zan ikki xil roddagi otlar bir xil qo'shimchaga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, III turlanish *Nom. sing.* da -us bilan tugallanuvchi otlar (II va IV turlanish *m* rodidagi otlar bilan adashtirilmasin!) *n* yoki *f* rodida bo'lishi mumkin. Rodga aniqlik kiritish uchun negiz xususiyatida farq qidirish kerak. Agar negiz -r bilan tugallansa, ot *n* rodida, agar -ty yoki -d bilan tugallansa, *f* rodiga tegishli bo'ladi:

-us				
-or+is	-er+is	-ur+is	-ut+is	-ud+is
<i>N</i>			<i>f</i>	
corpus, oris <i>n</i>	viscus, eris <i>n</i>	crus, cruris <i>n</i>	senectus, utis <i>f</i>	incus, udis <i>f</i>

3. Ko'pchilik otlarning *Nom.* va *Gen. sing.* dagi negizlari o'zaro mos kelmaydi:

<i>Nom.</i>	cort-ex	rad-ix	crus	pes
<i>Gen.</i>	cortic-is	radic-is	crur-is	ped-is

4. III turlanish otlari *Nom.* va *Gen. sing.* da bo'g'inlar soni mos kelish yoki kelmasligiga ko'ra teng va noteng bo'g'inli otlarga bo'linadi:

Teng bo‘g‘inli

Noteng bo‘g‘inli

Nominativus

Genetivus

rete

retis

canalis

canalis

pubes

pubis

Nominativus

apex

dens

pars

Genetivus

apicis

dentis

partis

5. -es tugallanmali (V turlanish *f* rodidagi otlar bilan adashtirilmasin!) III turlanishdagi otlarning rodini aniqlash uchun teng yoki noteng bo‘g‘inlilikni inobatga olish kerak:

-es	
Teng bo‘g‘inli	Noteng bo‘g‘inli
<i>F</i>	<i>m</i>
pubes, is <i>f</i>	paries, etis <i>m</i>

6. Negiz otning *Gen. sing.* shaklidan -is qo‘shimchasini olib tashlash orqali aniqlanadi. Ushbu negizga birlik va ko‘plikdagi boshqa kelishik qo‘shimchalari qo‘shilishi mumkin.

III turlanish Genus Masculinumdagi otlar

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-os	-or+is
-or	-or+is
-o	-on/in+is
-er	-er+is
-es	-t/d+is
-ex	-ic+is

Mashqlar

I. Otlarni *Gen. sing.* ga qo‘ying, negizni belgilang:

pulmo, carbo, embryo, sapo, mos, flos, tumor, humor, rubor, calor, dolor, doctor, tuber, masseter, sphincter, herpes, paries, apex, culex, pulex, (a)equator, liquor, levator, pronator, buccinator, pollex, aër, venter, gaster.

II. Sifatlarni otlar bilan moslashtiring, qaratqich kelishigda qo‘ying, tarjima qiling:

paries (anterior, mastoideus, jugularis); tuber (ischiodicus, frontalis, parietalis); pes (calcaneus, planus); trochanter (major, minor); venter (posterior, frontalis); humor (vitreus, aquosus); liquor (cerebrospinalis, flavus); pulmo (dexter, sinister); mater (pius, durus, arachnoideus); cor (adiposus).

III. III turlanishdagi otlarning rodini aniqlang:

apex cordis, apex nasi, apex linguae, angulus oris, tunica mucosa oris, liquor cerebrospinalis, paries labyrinthicus, paries mastoideus, liquor pericardii, flos ruber, flos albus, homo sapiens, homo sanus, cor sanum, gaster sana, cortex cerebelli, ala vomeris, cortex cerebri, vertex corneae, vertex cranii, os zygomaticum, os lacrimale, os pedis, os tarsi (s. tarsale).

IV. III turlanishdagi otlarning lugʻat shaklini aniqlang:

A. pulmo dexter, pulmo sinister, apex pulmonis dextri, cortex glandulae suprarenalis, facies pulmonis, lobus pulmonis superior, fissura horizontalis pulmonis dextri, tuber frontale, tuber parietale, atrium cordis, os frontale, os parietale, os hyoideum, os planum, os nasale, apex pulmonis sinistri, paries jugularis, paries mastoideus, paries tympanicus ductus cochlearis, dura mater spinalis, tunica mucosa gastris seu ventriculi, ventriculus sinister cordis, trochanter major, cor pulmonale, pia mater encephali.

B. tuber ossis ischii, os breve, paries membranaceus, apex vesicae urinariae, pes hippocampi, os ut organum, caput stapedis, membrana stapedis, venter muscui, venter posterior, vertex corneae, vertex cordis, os coxae, os ischii, apex ossis sacri.

C. apex linguae, tuber maxillae, ala vomeris, agger nasi, vertex cranii, angulus oris, rima oris, vestibulum oris, paries lateralis orbitae, musculus orbicularis oris, paries vestibularis ductus cochlearis.

V. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. miyacha po'stlog'i, katta bosh miya po'stlog'i, limfa tugunining po'stloq qavati, katta va kichik ko'st, yurak uchi, o'ng va chap o'pka, tilosti suyagi, bosh miyaning yumshoq pardasi, peshonaga oid do'mbog', bo'lmacha, dimog' egati, o'pkaning medial yuzasi, chap o'pkaning yurak o'ymasi, nog'ora bo'shlig'ining bo'yinturuq devori, ponasimon suyak, kekirdakning pardali devori, me'daning oldingi devori, til osti suyagining kichik shoxi, yonoq suyagining chakkaga oid o'simtasi, burun suyagining g'alvirsimon egati, yurak uchining o'ymasi.

B. mushakning oldingi qornchasi, dung'aza suyagining uchi, quymuch do'mbog'i, oyoq kaftining orqasi, o'pka darvozasi, qinning oldingi devori, oyoq kaftining yuzasi, yonbosh suyakning qanoti, quymuch suyagining shoxi, uzangi pardasi, mushakning qorni, orqa miya suyuqligi, shishasimon suyuqlik, bosh miya yumshoq pardasi, me'daning mushak pardasi, ikki qorinli mushaning oldingi qorni, bo'yinturuq devori, orqa shoxning uchi.

C. og'iz yorig'i, o'g'iz dahlizi, burun bo'shlig'i, yonoq suyagining lateral yuzasi, uzangi boshchasi, til uchi, dimog' qanoti, til osti suyagi, burun uchi, burun suyagi, ko'z kosasining medial devori, chig'anoq yo'lining nog'oraga oid devori.

Vazifasiga ko'ra mushaklar nomlanishi

-or- suffiksi yordamida amaldagi narsa va shaxslar mohiyatini beruvchi III turlanishdagi otlar hosil qilinadi.

Vazifasiga ko‘ra mushaklarning lotincha nomi ikki otdan iborat: 1) *musculus* (PNA da odatda qisqartirilgan holatda: *m.*); 2) III turlanish *m* rodidagi -or-yoki kam holatda -er- (*yun.* sphincter, eris; cremaster, eris; masseter, eris) suffiksli ot. Ushbu ikki otning son va kelishik shakli doim o‘zaro mos keladi.

<i>m. abductor</i>	uzoqlashtiruvchi mushak
<i>m. adductor</i>	yaqinlashtiruvchi mushak
<i>m. buccinator</i>	lunj mushagi
<i>m. constrictor</i>	toraytiruvchi mushak
<i>m. corrugator</i>	chimiruvchi mushak
<i>m. cremaster</i>	moyakni ko‘taruvchi mushak
<i>m. depressor</i>	tushiruvchi mushak
<i>m. dilatator</i>	kengaytiruvchi mushak
<i>m. extensor</i>	yozuvchi mushak
<i>m. flexor</i>	bukuvchi mushak
<i>m. levator</i>	ko‘taruvchi mushak
<i>m. masseter</i>	chaynovchi mushak
<i>m. pronator</i>	ichkari tarafga buruvchi mushak
<i>m. rotator</i>	aylantiruvchi mushak
<i>m. sphincter</i>	qisuvchi mushak
<i>m. supinator</i>	tashqari tarafga buruvchi mushak
<i>m. tensor</i>	taranglovchi mushak

Mashqlar

I. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

A. *musculus tensor fasciae latae*, *musculus levator ani* (*prostatae*, *scapulae*, *palpebrae superioris*), *musculus rotator cervicis* (*thoracis*), *musculus constrictor pharyngis medius* (*superior*), *musculus depressor supercilii* (*anguli oris*, *septi nasi*).

B. *musculus extensor indicis*, *musculus flexor pollicis longus*, *musculus sphincter pupillae* (*ani*, *pylori*, *urethrae*, *ductus choledochi*, *vesicae urinariae*), *musculus abductor digiti minimi* (*pollicis*, *hallucis*), *musculus flexor digiti minimi brevis*, *musculus pronator teres*, *musculus cremaster*, *musculus supinator*, *musculus corrugator supercilii*, *musculus dilatator pupillae*.



C. *m. buccinator*, *m. masseter*, *m. levator veli palatini* (*labii superioris alaeque nasi*), *m. tensor veli palatini*, *bursa tensoris veli palatini*.

II. Lotin tiliga tarjima qiling:


A. nog'ora pardansining taranglovchi mushak, pastki (o'rta) halqumning toraytiruvchi mushak, kurakning ko'taruvchi mushak, bo'yinning aylantiruvchi mushak, qalqonsimon bezng ko'taruvchi mushak, pastki labning tushiruvchi mushak.

B. bosh barmog'ining (jimjiloq, oyoqning bosh barmog'i) uzoqlashtiruvchi uzun mushak, oyoqning bosh barmog'ini (qo'lning bosh barmog'ini) yaqinlashtiruvchi mushak, siydik pufagining (pilorus, o't yo'li, siydik chiqaruv kanali, qorachiq) qisuvchi (sfinkter) mushak, orqa tiqaruv teshigining tfsiqi sfinkter mushagi, prostataning (kurak, yuqori qovoq) ko'taruvchi mushak, qo'l kaftining yozuvchi uzun mushak, oyoq bosh barmog'ininig kalta yozuvchi mushagi, tirsakning bukuvchi mushak, qoshni jimiruvchi mushak.

C. tanglay pardasining taranglovchi mushak, chaynovchi mushak, lunj mushagi, tanglay pardrsining (yuqori lab, qanot) ko'taruvchi mushak, og'iz burchagining (qosh, burun to'sig'i) tushiruvchi mushak, qorachiqning kengaytiruvchi mushak, qorachiqninig qisuvchi (sfinkter) mushak, yuqori qovoqninig ko'taruvchi mushak.



Rotator



1.9-rasm. Tana harakatlari.



Leksik minimum

apex, icis <i>m</i>	uchi
cortex, icis <i>m</i>	po'stloq
flos, oris <i>m</i>	gul
homo, inis <i>m</i>	odam
humor, oris <i>m</i>	namlik
index, icis <i>m</i>	ko'rsatkich barmoq
liquor, oris <i>m</i>	suyuq modda (<i>orqa miyaniki</i>)
paries, etis <i>m</i>	devor
pes, pedis <i>m</i>	oyoq
pollex, icis <i>m</i>	bosh barmoq
pulmo, onis <i>m</i>	o'pka
stapes, edis <i>m</i>	uzangi
ureter, eris <i>m</i>	siydik nayi
venter, ntris <i>m</i>	qorin
vertex, icis <i>m</i>	cho'qqi
vomer, icis <i>m</i>	dimog'

Istisno so'zlar

cor, cordis <i>n</i>	yurak
gaster, tris <i>f</i>	me'da, oshqozon
mater, matris <i>f</i>	ona, miya pardasi
dura mater	miyaning qattiq pardasi
pia mater	miyaning yumshoq pardasi
os, oris <i>n</i>	og'iz
os, ossis <i>n</i>	suyak
tuber, eris <i>n</i>	do'mboq



Nazorat savollari:

1. III turlanishda turlanuvchi olarning asosiy xususiyatlari nimadan iborat ?
2. Teng bo'g'inli otlar deganda nimani tushunasiz?
3. Noteng bo'g'inli otlar deganda nimani tushunasiz?
4. III turlanishda turianuvchi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
5. III turlanishda turianuvchi otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?
6. I guruh sifatleri III turlanishda turianuvchi otlar bilan qanday moslashadi?
7. Masculinum rodiga tegishli otlar Nom. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega?

Praesente medico nihil nocet. – Shifokor huzurida hech nima ziyonyetkazmaydi.

Tempus vulnera sanat. – Vaqt yaralarni davolaydi.

§8. Otning III turlanishi Genus Femininum.

Maqsad: Otning III turlanishif rodi belgilari va negiz xususiyatlarini *bilib olish*. Otning *f* rodi va negiz xususiyatini aniqlashni; III turlanish *f* rodidagi otlarni sifatlar bilan bosh va qaratqich kelishik birlikda *moslashtira olish*.

III turlanish Genus Femininumdagi otlar

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-io	-ion+is
-do	-din+is
-go	-gin+is
-as	-at+is
-is	-is
-es	-is
-s	-nt/rt+is
-x	-ng+is

Mashqlar

I. Qaratqich kelishigini birlik formasining hosil qiling, negizni belgilang:

Noteng bo'g'inlilar:

tuberositas, sanitas, asperitas, extremitas; salus, senectus, juvenus, virtus; ars, pars, dens, lens, mors, pons; mystax, thorax, appendix, cervix, fornix, helix, matrix, radix; larynx, pharynx, meninx; calx, falx; magnitudo, tendo, libido, hirudo, valetudo; cartilago, margo, origo; articulatio, constrictio, bifurcatio, decussatio, formatio, dilatatio, regio; carotis, cuspis, iris, parotis, epiglottis.

Teng bo'g'inlilar: cutis, auris, bilis, testis, unguis, aponeurosis, pelvis, basis, pubes.

II. Sifatlarni otlar bilan moslashtirib lotin tiliga tarjima qiling:

A. (xususiy, miyaga oid, plevraga oid, nog'oraga oid, bo'g'imga oid) bo'shliq; (deltasimon, qanotsimon, yonbosh, chaynovchi) do'mboqlik; (o'rta, ichki, tashqi) quloq; tashqi asos; (toshsimon, medial, yuqori, oldingi, o'ng, chap, suyakka oid, chuqur, lateral, belga oid, to'shga oid, yurakka oi), qism; (qanotsimon, qovurg'aga oid, qanotga oid, katta, qalqonsimon) tog'ay; (murakkab, pastki jag'ga oid, ko'ndalang, oddiy) bo'g'im; (katta, tanglayga oid, dumg'azaga oid, oziqlantiruvchi, ko'ruv, ko'z yoshiga oid, kesuvchi, umurtqaga oid, yuzga oid, uyquga oid) kanal; (kapillar, limfaga oid, lateral, qonga oid) tomir.

B. (o'rta, distal, proksimal) falanga; (oldingi, songa oid, tovonga oid) soha; (medial, lateral) ildiz; (to'shga oid, akromionga oid, yuqori, bachadonga oid) oxiri; (yurakka oid, me'daga oid, o'n ikki barmoq ichakka oid, buyrakka oid, qizilo'ngachga oid) botiqlik; (ichki, ko'ruv) o'q; (oldingi, peshonaga oid, tangachasimon, yuqori, ko'z yoshiga oid, erkin, so'rg'ichsimon, o'ng) qirg'oq.

III. O'zbek tiliga tarjima qiling:

A. cavitas medullaris, s. cavum medullare, basis cranii externa, cartilago thy(r)eoidea, rima oris, synchondrosis sphenoccipitalis, pars thoracica, pyramis medullae oblongatae, glandula parotis accessoria, cartilago alaris major, margo inferior pulmonis sinistri, auris externa, bifurcatio tracheae.

B. tuberositas phalangis distalis, phalanx media, basis phalangis mediae, apex patellae, basis patellae, symphysis intervertebralis, pars thoracica, pyramis renalis, basis pyramidis renalis, margo uteri dexter, extremitas uterina, axis bulbi externus, musculus helici minor, cortex lentis, axis lentis, facies posterior lentis, pancreas accessorium, pars endocrina pancreatis, margo liber unguis, mons pubis.

C. cavitas, s. cavum nasi, aponeurosis linguae, cuspis dentalis, basis stapedis, tuberositas masseterica, pars libera gingivae, cartilago nasi, cuspis coronae dentis, cavitas, s. cavum oris propria (proprium), fixatio epithelialis gingivae.

D. labyrinthus osseus auris internae, terminatio nervi cutis, vestibulum oris, caput pancreatis, os coccygis, vas capillare, ductus cochlearis auris internae, bifurcatio trunci pulmonalis, arteria carotis, regio thoracis posterior, regio cervicis anterior, pars thoracica aortae, pelvis major et minor, vas lymphaticum superficiale, cavitas, s. cavum thoracis, margo dexter cordis, sanguis venosus et arteriosus, canalis palatinus major, arteria carotis communis, margo inferior pulmonis sinistri, margo superior partis petrosae (=pyramidis).

E. pars optica retinae, bursa tendinis calcanei (Achillis), articulatio capitis costae, inclinatio pelvis, arcus tendineus fasciae pelvis, axis pelvis, axis opticus, pia mater medullae (spinalis), symphysis pubica, vagina tendinis musculi extensoris hallucis longi, articulatio humeri, canalis tendinis musculi flexoris carpi radialis, os pubis, margo lateralis pedis, margo ciliaris iridis, fornix sacci lacrimalis, regio mediana thoracis, arcus cartilaginis cricoideae, substantia, nucleus et cortex lentis.


F. cutis frontis, pars oralis, fornix pharyngis, vestibulum laryngis, pars laryngea pharyngis, margo linguae, canalis mandibulae, pulpa dentis, dens incisivus superior lateralis, facies contacta dentis, margo infraorbitalis, pars libera gingivae, musculus dilatator naris.

IV. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. bosh miya qattiq pardasi, pilorik kanal, miyachaning hayot daraxti, me'daning gumbazi, halqum gumbazi, katta toshsimon asab kanali, og'iz burchagi, fibroz qinning halqali qismi, yelka bo'g'imi, me'da osti bezining kapsulasi, o'rta quloqning nog'ora bo'shlig'i, katta tanglay kanali, burun to'sig'ining tog'ayi, halqumning pastki toraytiruvchi mushagi.

B. oshiq-boldir bo'g'imi orqa sohasi, bachadon bo'yinchasining kanali, orqa katta boldir suyagi payining sinovial qini, chanoq yuqori aperturasi, moyakning lateral yuzasi, tirnoqning ildizi, konyunktivaning pastki gumbazi, hiqildoqning qiyshiq qismi, to'r pardasining kiprikli qismi.

C. burun ildizi, orqasi va uchi; tanglay aponevrozi, yuqori jag'ning ko'z osti kanali, burun to'sig'ining tog'ayi, tishning dahlizga oid yuzasi, medial yuqori kesuvchi tish, tish bo'shlig'i, og'iz yorig'i.



1.10-rasm. Yuz muskullari.



Leksik minimum

appendix, icis *f*

a. carotis, tidis *f*

articulatio, onis *f*

auris, is *f*

basis, is *f*

bilis, is *f*

cavitas, atis *f* (=cavum, i *n*)

cervix, icis *f*

cutis, is *f*

extremitas, atis *f*

frons, frontis *f*

ortiq, o'simta

uyqu arteriyasi

bo'g'im

quloq

asos

o't, safro

bo'shliq

bo'yin

teri

oxir

peshona

gl. parotis, tidisf
 impressio, onisf
 iris, idisf
 lens, lentisf
 meninx, ngisf
 pars, partisf
 radix, icisf
 pelvis, isf
 pelvisrenalis
 phalanx, ngisf
 pubes, isf
 pyramis, idisf
 regio, onisf
 synchondrosis, isf
 symphysis, isf
 tuberositas, atisf


quloq oldi bezi
 botiq, iz
 rangdor parda
 gavhar
 miya pardasi
 qism
 ildiz
 chanoq, tos, jom
 buyrak jomi
 falanga
 qov
 ehrom, piramida
 soha
 sinxondroz
 bitishma, simfiz
 do'mboqlik

Istisno so'zlar

axis, ism
 canalis, ism
 coccyx, ygism, seu os coccygis
 dens, dentism
 fornix, icism
 larynx, ngism
 margo, inism
 pancreas, atisn
 pharynx, ngism
 sanguis, inism
 tendo, inism
 thorax,

o'q; II bo'yin umurtqasi
 kanal
 dum suyagi
 tish
 gumbaz
 hiqildoq
 chet, qirg'oq
 me'da osti bezi
 halqum
 qon
 pay

(6) (7)



¹Barbara A.Gyls, Regina M.Masters"Medical Terminology Simplified fourth edition
 "USA2010/Chapter-5.P.162



Nazorat savollar:

- 1.III turlanish Femininum rodiga tegishli otlar Nom. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega ?
- 2.III turlanish Femininum rodiga tegishli otlar Gen. Sing. da qanday qo'shimcha oladi?
- 3.III turlanish Femininum rodiga oid istisno so'zlarni lug'at shakli bilan ayting.
- 4.I-II guruhdagi sifatlar III turlanishda turlanuvchiFemininum rodidagi otlar bilan qanday moslashadi?

Mollities corpus debilitat. – Noziklik tanani bo'shashtiradi.

Aliis inserviando consūmor. – O'zgalarga xizmat qila yonaman.

§9. Otning III turlanish Genus Neutrum.

Maqsad: Otning III turlanish Neutrum rodi belgilari va negiz xususiyatlarini *bilib olish*. Otning *n* rodi va negiz xususiyatini aniqlashni; III turlanish *n* rodidagi otlarni sifatlar bilan bosh va qaratqich kelishik birlikda *moslashtira olish*.

III turlanish Genus Neutrumdagi otlar

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-en	-in+is
-ma	-at/is
-us,ur	-o/e/u+ris
-e	-is
-l	-ll/al+is
-ar	-ar+is
-ut	-it+is

Mashqlar

I. Birlik qaratqich kelishigini hosil qiling:

abdomen, semen, nomen, inguen, foramen, pecten, tegmen, limen; genus, pectus, tempus, crus, pus; sulfur, femur; stroma, systema, carcinoma; rete, ile; fel, mel; pulvinar, calcar, thenar; caput, occiput, sinciput.

II. So'zlarni lug'at shaklini belgilab, turlanishini aniqlang:

declive, raphe, rete, diploë, systole, chole, diastole, dyspnoë; zygoma, oedema, struma, squama, stroma, trauma, bregma, platysma, chiasma, parenchyma, mamma, diastema, diaphragma.

III. Sifatlarni otlar bilan moslashtirib lotin tiliga tarjima qiling:

(boyinturuqqa oid, dumaloq, oval, kesuvchi, katta, ensaga oid, o'tkir qirrali, so'rg'ichsimon, engakka oid) teshik; (o'ng, chap, lateral, kalta, uzun, pardali, oddiy, umumiy, oldingi) oyoqcha; (uzun, kalta, chuqur, qiyshiq, ko'ndalang, lateral) boshcha; (qadoqli, kiprikli, g'orsimon, shishasimon, yog'li) tana; (o'ng, chap, harakatchan, bo'lakka oid, kistaga oid) buyrak; (qo'shimcha, harakatchan) taloq; (dum suyagiga oid, aortaga oid) koptok; (markaziy, asabga oid, limfaga oid) tizim; (mo'jizavor, arteriyaga oid, qo'l kafti ustiga oid, bo'g'imga oid) to'r; (harakatchan, bo'lakka oid, zichlashgan) jigar.

IV. O'zbek tiliga tarjima qiling.

A. glomus caroticum, ren accessorius, systema lymphaticum, sinus occipitalis durae matris, cavitas (=cavum) abdominis, glomus pulmonale, caput superius musculi pterygoidei, pancreas accessorium, foramen palatinum majus, tegmen tympani, lobus anterior hypophysis, cavitas oris propria, foramen venae cavae, lobus hepatis dexter/sinister, crus anterius capsulae internae, stroma ganglii, hepar mobile, appendix fibrosa hepatis, rete venosum, porta hepatis, cortex thymi, hilus lienis, cortex renis, tuber frontale, musculus longus capitis.

B. pars cartilaginea tubae auditivae, arteria meningea media, caput ossis femoris, corpus adiposum infrapatellare, diaphragma urogenitale, pars dorsalis pontis, corpus pineale, calcar avis, crus membranaceum simplex, rete mirabile, corpus adiposum orbitae, systema nervosum centrale, radiatio corporis callosi, corpus vitreum, pecten anale, corpus medullare, systema urogenitale, pecten ossis pubis, caput et crus stapedis, stroma iridis, parenchyma testis, articulatio talocruralis, arteria circumflexa femoris lateralis.

C. diaphragma oris, basis cartilaginis arytenoideae, periodontium insertionis, corpus mandibulae, stroma glandulae, foramen infraorbitale maxillae, musculus rectus capitis posterior major, crus mediale cartilaginis alaris majoris, isthmus cartilaginis,

foramen mentale, corpus adiposum buccae, canalis radialis dentis corpus linguae, crus anterius, radix superior nervi hypoglossi, ganglion spirale cochleae, crus osseum commune, pars ossea tubae auditivae, apex capitis fibulae, rete articulare genus, canalis infraorbitalis maxillae, foramen apicis radialis dentis, facies anterior lentis, foramen caecum linguae, musculus obliquus externus abdominis.




Leksik minimum

abdomen, inis <i>n</i>	qorin
caput, itis <i>n</i>	bosh
chiasma, atis <i>n</i>	kesishma
corpus, oris <i>n</i>	tana, gavda
crus, cruris <i>n</i>	boldir; oyoqcha
diaphragma, atis <i>n</i>	diafragma
femur, oris <i>n</i>	son, son suyagi
foramen, inis <i>n</i>	teshik
glomus, eris <i>n</i>	koptok
hepar, atis <i>n</i>	jigar
occiput, itis <i>n</i>	ensa
pectus, oris <i>n</i>	ko'krak
stroma, atis <i>n</i>	sinch
systema, atis <i>n</i>	tizim
tempus, oris <i>n</i>	chakka
tegmen, inis <i>n</i>	qoplama
viscus, eris <i>n</i>	ich, botin
zygoma, atis <i>n</i>	yonoq

Istisno so'zlar

lien, lienis <i>m</i>	taloq
ren, renis <i>m</i>	buyrak



1.11-rasm YURAK-QON TOMIR VA LIMFA SISTEMASI



Nazorat savollari:

- 1.III turlanish Neutrum rodiga tegishli otlar Nom. Sing. da qandayqo'shimchalarga ega ?
- 2.III turlanish Neutrum rodiga oid otlarning Gen. Sing. da yasalishida qanday qo'shimcha oladi?
3. I-II guruh sifatlari III turlanish Neutrum rodidagi otlar bilan qanday moslashadi?.

5.III turlanishdagi otlarning negiziniqanday aniqlash mumkin?

6.III turlanish otlarning lug'at shakli qanday yoziladi?

Ne noceas, si juvare non potes. – Zarar yetkazma, gar yordam bermasang.

Mens sana in corpore sano. – Sog' tanda sog'lom aql.

§10. I-V turlanishdagi ot va sifatlarning bosh kelishik ko'plik formasi (*Nominativus pluralis*).

Maqsad: Ot va sifatlarning bosh kelishik ko'plik formasidagi qo'shimchalarini *bilib olish*. Sifatlarni otlar bilan bosh kelishik ko'plikda *moslashtira olish*.

Bosh kelishik ko'plik formasi

1. Jadval yordamida otlarning bosh kelishik ko'plik, turlanish va rodlarda o'zgarishlarni kuzating:

Turlanish Rod	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
I		-ae	
II	-i		-a
III	-es		-a, -ia (-e, -al, -ar qo'shimchali otlar)
IV	-us		-ua
V		-es	

Berilgan misollarni tahlil qiling:

Lug'at shakli	Turlanish	Negiz	Nom. pl.
vertebra, <i>aef</i>	I	vertebr-	vertebrae
sulcus, <i>im</i>	II	sulc-	sulci
ligamentum, <i>in</i>	II	ligament-	ligamenta
dens, <i>dentism</i>	III	dent-	dentes
cartilago, <i>inisf</i>	III	carilagin-	cartilagines
foramen, <i>inisin</i>	III	foramin-	foramina
processus, <i>usm</i>	IV	process-	processus
genu, <i>usn</i>	IV	gen-	genua
facies, <i>eif</i>	V	faci-	facies

2. Jadval yordamida otlarning bosh kelishik ko‘plik shaklining yasalishiga diqqat qiling.

Otlarning bosh kelishik ko‘plik shaklini yasash uchun quyidagi amallar bajariladi:

- 1) otning lug‘at shakli olinadi;
- 2) turlanishi aniqlanadi;
- 3) negizi ajratiladi;
- 4) negizga bosh kelishik ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi.

3. Jadval yordamida sifatlarning bosh kelishik ko‘plik qo‘shimchalarining rodlarda, guruhlarda va qiyosiy darajada o‘zgarishini kuzating:

Rod	Birinchi guruh (I-II turlanish) va orttirma daraja	Ikkinchi guruh (III turlanish)	Qiyosiy daraja (III turlanish)
<i>m</i>	-i	-es	(ior)-es
<i>f</i>	-ae		
<i>n</i>	-a	-ia	(ior)-a

4. Jadval yordamida sifatlarning bosh kelishik ko‘plik shaklining yasalishiga e’tibor bering:

Nom. Sing.	Guruh	Turl.	Rod	Negiz	Nom. Plur.
pilosus	I	II	<i>m</i>	pilos-	pilosi
pilosa	I	I	<i>f</i>	pilos-	pilosae
pilosum	I	II	<i>n</i>	pilos-	pilosa
vertebralis	II	III	<i>m, f</i>	vertebral-	vertebrales
vertebrale	II	III	<i>n</i>	vertebral-	vertebralia
simplex	II	III	<i>m, f</i>	simplic-	simplices
simplex	II	III	<i>n</i>	simplic-	simplicia
posterior	qiyosiy daraja	III	<i>m, f</i>	posterior	posteriores
posterius	qiyosiy daraja	III	<i>n</i>	posterior	posteriora

Sifatlarning bosh kelishik ko‘plik shaklini yasash uchun quyidagi amallar bajariladi:

- 1) sifatlarning lugʻat shakli olinadi;
- 2) uning guruhi yoki darajasi aniqlanadi;
- 3) uning turlanishi aniqlanadi;
- 4) uning rodi aniqlanadi;
- 5) uning negizi ajratiladi;
- 6) bosh kelishik koʻplik qoʻshimchasi qoʻshiladi.

Nomenklaturada uchraydigan qisqartmalar

<i>Singularis</i>		<i>Pluralis</i>	
<i>Qisqartma</i>	<i>Soʻzning toʻliq shakli</i>	<i>Qisqartma</i>	<i>Soʻzning toʻliq shakli</i>
A.	Arteria	Aa.	arteriae
B.	Bursa	Bb.	bursae
Fasc.	Fasciculus	Fascc.	fasciculi
For.	Foramen	Forr.	foramina
Gangl.	Ganglion	Gangll.	ganglia
Gl.	Glandula	Gll.	glandulae
Lam.	Lamina	Lamm.	laminae
Lig.	Ligamentum	Ligg.	ligamenta
M.	Musculus	Mm.	musculi
N.	Nervus	Nn.	nervi
Nucl.	Nucleus	Nucll.	nuclei
R.	Ramus	Rr.	rami
Reg.	Regio	Regg.	regiones
Seg.	Segmentum	Segg.	segmenta
Sul.	Sulcus	Sull.	sulci
Sut.	Sutura	Sutt.	suturae
Tr.	Tractus	Trr.	tractus
Tun.	Tunica	Tunn.	tunicae
V.	Vena	Vv.	venae

Vag.	Vagina	Vagg.	vaginae
------	--------	-------	---------

Mashqlar

I. Otlarni qaysi turlanishga mansubligini aniqlang, *Nom. pl.* hosil qiling:

pyramis, idis *f*; cellula, ae *f*; dens, dentis *m*; facies, ei *f*; os, ossis *n*; gyrus, i *m*; cornu, us *n*; septum, i *n*; ductus, us *m*; gingiva, ae *f*; sectio, onis *f*; bursa, ae *f*; crus, cruris *n*; t(a)enia, ae *f*; folliculus, i *m*; plexus, us *m*; appendix, icis *f*; ampulla, ae *f*; recessus, us *m*.

II. Lotin tiliga tarjima qiling, lug‘at shaklini ko‘rsating:

nomlar, segmentlar, kesiklar, gardishlar, sinxondrozlar, venalar, tizimchalar, qinlar, asablar, tishlar, yo‘llar, kirish teshiklari, so‘rg‘ichlar, qirg‘oqlar, kesishmalar, liqildoqlar, choklar, o‘tkir qirralar, pushtalar, qovurg‘alar, falangalar, o‘ymalar, sinuslar, bezlar, to‘siqlar, bo‘g‘imlar, egatlar, sohalari, tolalar, barmoqlar, chuqurlar, poyalar, o‘zaklar, yaproqlar, botiqlar.

III. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. mushaklar: bosh, ko‘z, til, tanglay, bo‘yin, hiqildoq orqa, ko‘krak, qorin, chanoq diafragmasining, yuqori a‘zoning, ko‘z olmasining; aylantiruvchi mushaklar: bo‘yinning, ko‘krakning, belning; suyaklar: yuz, kalla suyagining, yuqori a‘zo, qo‘l kaftining , oyoq kaftining , belbog‘ning, ko‘krak qafasi; venalar: miyaning , ko‘prikning, miyacha; kesiklar: gipotalamusning.

B. katta bosh miya pushtalari, miyachayaproqlari, kalla liqildoqlari, qoplama kesishmasi, gavhar nurlari, bosh sohalari, teri egatlari, ko‘prik o‘zaklari, chambar ichak tasmalari, jigar boylamlari, kalla suyagining choklari, teri tutqichlari, tizza venalari, hiqildoq tog‘aylari, ayrisimon bez bo‘lakchalari, buyrak venalari, kalla sinxondrozlari, kamalak parda burmalari, burun tog‘aylari, o‘pka alveolalari, kekirdak tog‘aylari, og‘iz bezlari, ko‘krak qafasi bo‘g‘imlari, nog‘ora parda shoxlari, o‘rta dumba mushagi haltalari, o‘t pufagi shilliq pardasining burmalari, yuqori a‘zo mushaklari.

IV. *Nom. pl.* dagi otlar bilan moslashgan sifatlarni belgilang, tarjima qiling:

nodi (lumbales, lymphatici, pectoralia, epigastrici, pulmonales, dextri, internae, iliaci, occipitales, profunda, mastoidei, regionales); papillae (linguales, conicae,

fungiformes, vallatae, filiformes, foliatae, flava, palmaria, cruciata, intercarpei, alaria, radiata, dorsalia, supraspinalia, costoxiphoidea); dentes (acustici, incisivi, molares, longae, canini, premolares, decidui, permanentes, majores, brevia, minores); plexus (iliaci, rectales, inferiores, gastricae, medii, vesicales, medianae, viscerales, vasculares); foramina (ethmoidalia, minora, nervosae).

V. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

A. musculi subcostales, glandulae labiales, tubercula dentis, dens caninus, pyramides renales, venter posterior, venulae rectae, sinus intermedii, cellula anterior, ganglia cardiaca, plicae gastricae, nervi craniales, nervi spinales.

B. spatia interglobularia, nomina anatomica, venae intercoslaes anteriores, canaliculi dentales, ductus sublinguales minores, crura ossea, arteriae ciliares posteriores longae, vasa sinusoidea lienis, facies articulares, labia oris, juga alveolaria, valvulae venosae, alveoli denales.

VI. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

A. musculi (suboccipitales, faciales, masticatores, suprahyoidei, infrahyoidei, rotatores, interspinales, intertransversarii, intercostales); regiones (faciales, cervicales, pectorales, abdominales, dorsales, pleuropulmonales); arteriae (minores, ciliares, breves, posteriores, musculares, gastricae, articulares, nutriciae); articulationes (fibrosae, cartilagineae, synoviales, vertebrales); venae (vestibulares, rectae, minimae, atrioventriculares, tracheales, bronchiales, thoracicae, pharyngeae, nasales, meningeae, labiales, temporales, maxillares, tympanicae, parotidea, superficiales, occipitales, ethmoidales).

B. ligamenta (flava, supraspinalia, ventralia, auricularia); fibrae (longitudinales, externae, radiales, dentatae, circulares, corticospinales, periventriculares); rami (capsulares, pharyngeales, mastoidei, glandulares, intermedii, thymici, mammarii, duodenales, calcanei, gastrici, tracheales); foramina (papillaria, nervosa, alveolaria, minora, intervertebralia, pelvina, sacralia); articulationes (sternocostales, intercarpeae, interphalangeae); ganglia (cardiaca, renalia, thoracica).

C. dentes (incisivi, canini, premolares, molares, decidui, permanentes); glandulae (ciliares, oris, salivariae, lacrimales, buccales, molares, linguales, palatinae, mucosae, pharyngeae).

VII. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. bo'yinning qirralararo mushaklari, oldingi va orqa tepa suyakka oid arteriyalar, katta bosh miyaning pastki venalari, me'daga oid chuqurchalar, bo'laklararo yuzalar, ko'krak yurakka oid tarmoqlar, kichik til ostiga oid oqimlar, tilning dorsal shoxlari, oldingi orqa alveolaga oid arteriyalar.

B. o'rta dumba mushagining ko'stga oid haltalari, to'g'ri ichakning ko'ndalang burmalari, chambar ichakning yarimoysimon tasmalar, kichik buyrakka oid kosachalar, qora moddaning shoxchalari, yonbosh chigallar, chanoqqa oid tugunlar (asabga oid), qo'l kaftining venalari, orqa miya kesiklari, ko'prikning ko'ndalang tolalari, orolchaning kalta pushtalari.

C. qo'shimcha burun tog'aylari, ponasimon sinus aperturasi, pastki qoziq tishlar, yuqori katta oziq tishlar, kichik tanglay kanallari, katta va kichik toshsimon asab egatlari, orqa yuqori alveola teshiklari, peshona suyagining ko'zga oid qismi, yuqori va pastki burun chig'anoqlari, katta va kichik shoxlar, ponasimon suyakning qanotsimon o'simtalari, yuqori va orqa quloqqa oid mushaklar.



Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

ampulla, ae <i>f</i>	ampula
apertura, ae <i>f</i>	apertura (teshik)
cellula, ae <i>f</i>	hujayra
fibra, ae <i>f</i>	tola
gingiva, ae <i>f</i>	milik
glandula, ae <i>f</i>	bez
palpebra, ae <i>f</i>	qovoq
papilla, ae <i>f</i>	so'rg'ich
plica, ae <i>f</i>	burma
retina, ae <i>f</i>	to'r parda

II turlanishdagi otlar

alveolus, <i>im</i>	katakcha, alveola
bulbus, <i>im</i>	piyozcha (olmacha)
bulbus oculi	ko‘z olmasi
cilium, <i>i n</i>	kiprik
folium, <i>i n</i>	barg, yaproq
gyrus, <i>im</i>	pushta
metacarpus, <i>im</i>	qo‘l kafti
metatarsus, <i>im</i>	oyoq kafti
nucleus, <i>i m</i>	o‘zak
ramus, <i>i m</i>	tarmoq, shoxcha
spatium, <i>i n</i>	sath (oraliq)
supercilium, <i>i n</i>	qosh

IV turlanishdagi otlar

manus, <i>usm</i>	qo‘l
recessus, <i>usm</i>	chuqurlik, cho‘ntak

I guruh sifatlari

accessorius, <i>a, um</i>	qo‘shimcha
cavernosus, <i>a, um</i>	g‘orsimon
fibrosus, <i>a, um</i>	tolali, fibroz
flavus, <i>a, um</i>	sariq
gastricus, <i>a, um</i>	me‘daga oid
glut(a)eus, <i>a, um</i>	dumbaga oid
hepaticus, <i>a, um</i>	jigarga oid
lymphaticus, <i>a, um</i>	limfaga oid
mucosus, <i>a, um</i>	shilliqli
nutricius, <i>a, um</i>	oziqlantiruvchi
oesophageus, <i>a, um</i>	qizilo‘ngachga oid
pelvinus, <i>a, um</i>	chanoqqa oid
proprius, <i>a, um</i>	xususiy

subcutaneus, a, um

teri ostiga oid

II guruh sifatlari

brevis, e

kalta

ciliaris, e

kiprikka oid

communis, e

umumiy

corticalis, e

po‘stloqqa oid

labialis, e

labga oid

lumbalis, e

belga oid

papillaris, e

so‘rg‘ichli, so‘rg‘ichga oid

pectoralis, e

ko‘krakka oid

pulmonalis, e

o‘pkaga oid

radialis, e

nurli; bilak (*suyagi*)ga oid

spinalis, e


orqa miyaga oid

superficialis, e

yuzaki

ulnaris, e

tirsak (*suyagi*)ga oid



1.12-rasm Tana qisimidagi ichki va jinsiy azolar (A) Posterior (B) Anterior

¹Barbara A.Gyls, Regina M.Masters”Medical Terminology Simplified fourth edition
“USA2010/Chapter-10.P.447



Nazorat savollari:

1. I-V turlanishdagi otlarni Nom plda qo'shimchalari qanday?
2. I-II guruh sifatleri I-V turlanishdagi otlar bilan Nom. Pluralisda qanday moslashadi ?
3. Moslashganda sifatlar otning nimalarini oladi?
4. Ko'plik qo'shimchalarini olishda nimaga etibor berish kerak?

Quem medicamenta non sanant, natūra sanat. –Dori davolamaganni tabiat davolaydi.

Cuivis dolori remedium est patientia. –Har og'riqqa vosita - sabr.

§11. I-V turlanishdagi ot va sifatlarning qaratqich kelishik ko'plik son (Genetivus pluralis) shakli.

Maqsad: Ot va sifatlarning qaratqich kelishik ko'plik sondagi tugallanmalarini *bilib olish*. Sifatlarni har bir turlanish Genetivus pluralis shaklidagi otlar bilan *moslashtiraolish*.

Qaratqich kelishik ko'plik formasi

Ot va sifatlarning *Genetivus pluralis* shaklini hosil qilish uchun taxminiy asosli harakatlar:

- 1) otl va sifatlarning lug'at shakli;
- 2) turlanishni aniqlash;
- 3) negizni ajratish;
- 4) negizga *Gen. Plqo* 'shimchasini qo'shish.

Eslab qoling:	Turlanish	Gen. pl.
	I	-arum
	II	-orum
	IV	-uum
	V	-erum

I, II, V turlanishdagi otlarning hamda I guruh sifatleri, xususan orttirma daraja sifatlarining umumiy -um qo'shimcha komponenti negizning unli oxiriga -r- orqali, IV turlanishda esa bevosita -u- unlisiga qo'shiladi.

<i>Lugʻat shakli</i>	<i>Tur l.</i>	<i>Negiz</i>	<i>Unli oxir</i>	<i>Qoʻshimcha</i>	<i>Gen. pl.</i>
glandula, aef	I	glandul-	-a-	-r-um	glandularum
nervus, im	II	nerv-	-o-	-r-um	nervorum
septum, in	II	sept-	-o-	-r-um	septorum
ganglion, in	II	gangli-	-o-	-r-um	gangliorum
textus, usm	IV	text-	-u-	-um	textuum
cornu, us n	IV	corn-	-u-	-um	cornuum
facies, eif	V	faci-	-e-	-r-um	facierum
thoracicus	II	thoracic-	-o-	-r-um	thoracorum
thoracica	I	thoracic-	-a-	-r-um	thoracorum
thoracicum	II	thoracic-	-o-	-r-um	thoracorum

III turlanishdagi, II guruhsifatvaqiyosiydarajadagisifatlarining

Genetivuspluralisqoʻshimchalari

-um

1

undoshbilantugallanuvchinegizliotlar

(«undoshli tipdagi»)

Sifatlarning qiyosiy darajasi
(«undoshli tipdagi»)

-ium

2 undosh bilan tugallanuvchi negizli

otlar («aralashtipdagi»)

-is, -es teng boʻgʻinlilari («aralash
tipdagi»)

-e, -al, -ar otlari («unli tipdagi»)

II guruh sifatlari («unli tipdagi»)

1. Otlarning *Gen. pl.* shaklini hosil qilishda inobatga olish kerak:

a) negiz 1 yoki 2 undosh bilan tugallanganligiga: radix, icis *f*–radici-um; pars, partis
f– part-ium;

b) -es, -is otlari teng yoki noteng boʻgʻinligiga: paries, etis *m*– pariet-um; pyramis,
idis *f*– pyramid-um; auris, is *f*– aur-ium;

c) -e, -al, -ar bilan tugallanganligiga: rete, is *n*– ret-ium.

2. Sifatlarning *Gen. pl.* shaklini hosil qilishda esda tutish kerak:

a) II guruh sifatlari -ium qo'shimchasiga ega bo'lganda: brevis, e – brev-ium; simplex, icis – simplic-ium;

b) qiyosiy daraja sifatlari -ior li negiziga -um qo'shimchasi qo'shiladi: anterior, ius (anterior-is – negiz anterior-) anterior-um.

Mashqlar

I. Otlarni qaysi turlanishga mansubligini aniqlang, lug'at shaklini belgilang:

concharum, sulcorum, processum, digitorum, facierum, lamellarum, arteriarum, oculorum, lingularum, ligamentorum, plexum, genuum, aperturarum, recessum.

II. Lotin tiliga tarjima qiling, *Gen. pl.* hosil qiling:

tugun, bez, sinus, yuza, kirish teshigi, boylam, arteriya, chigal, bo'lmacha, milk, lab, burchak, shox, egat, lunj, gangliy, dahliz.

III. Lotin tiliga tarjima qiling, *Nom. pl.* va *Gen. pl.* hosil qiling:

konussimon so'rg'ich, til osti-ustiga oid mushak, yonoqqa oid o'simta, tanglayga oid egat, jag'-til ostiga oid chizig', eng kichik vena, kesuvchi mushak, ko'ndalang tanglay burmasi, g'orsimon chigal, ko'ruv asabi.

IV. Berilgan otlardan *Gen. pl.* hosil qiling:

pes, pedism; cavitas, atis *f*; foramen, inis *n*; unguis, is *m*; thenar, aris *n*; dens, dentis *m*; caput, itis *n*; frons, frontis *n*; paries, etis *m*; tempus, oris *n*; canalis, is *m*; apex, icis *m*; calcar, aris *n*; tuberositas, atis *f*; cervix, icis *f*; os, ossis *n*; ars, artis *f*; stapes, edis *m*; glans, glandi *f*; meninx, ngis *f*.

V. Berilgan sifatlardan *Gen. pl.* hosil qiling:

frontalis, e; anterior, ius; dentalis, e; orbitalis, e; posterior, ius; molaris, e; infraorbitalis, e; superior, ius; sphenoidalis, e; major, jus; premolaris, e; minor, us.

VI. *Gen. pl.* ga qo'ying:

vas sanguineum, valvula semilunaris, nervus spinalis, vena minima, dens premolaris, papilla lingualis, alveolus dentalis, cornu minus, septum interradiculare, concha nasalis, facies articularis, glandula lingualis, ligamentum flavum, canalis alveolaris, processus transversus, massa lateralis, foramen alveolare.

VII. Lotin tiliga tarjima qiling, *Nom. pl.* va *Gen. pl.* hosil qiling:

katta qanot, ko‘z kosasiga oid qism, engak do‘mboqchasi, alveolalararo to‘siq, til osti burmasi, lateral yuza, kichik tanglay teshigi, pastki kichik oziq tish, bo‘yin umurtqasi, kesuvchi tish, simpatik chigal, qoziq tish, peshonaga oid sinus, o‘pkaga oid vena, katta oziq tish, belga oid umurtqa, quloqqa oid yuza, katta tanglay kanali, orqa uzunchoq boylam, tashqi qovurg‘alalaro mushak.

VIII. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. qovurg‘alarning ko‘taruvchi uzun mushaklar, qovurg‘alarning ko‘taruvchi kalta mushaklar, paylar kesishmasi, kesuvchi va qoziq tishlarning medial yuzasi, bukuvchi mushaklar paylarining bog‘ichi, pastki yozuvchi mushak paylarining bog‘ichi, paylar boylami, tomirlarning tomirlari, qizil va sariq suyak ko‘miklari, peshonaga oid sinuslarning to‘sig‘i, chap bo‘lmachaning o‘pka arteriyalariga oid teshiklari, bo‘yin umurtqalarining oldingi va orqa do‘mboqlari, simpatik chigallarning gangliyalari, o‘ng bo‘lmachaning bo‘sh venalariga oid sinus.

B. yuzaki barmoqlarni bukuvchi mushaklar, kalta barmoqlarni yozuvchi mushaklar, qo‘l barmoqlari paylarining sinovial qinlari, yuqori kichik boldir mushaklari paylarining bog‘ichi, qo‘l barmoqlarining fibroz qinlari, umumiy bukuvchi mushaklarning sinovial qinlari, dumba mushaklarining mushaklararo haltalari, qo‘l bosh barmog‘ining uzun uzoqlashtiruvchi mushak va kalta yozuvchi mushak paylarining qini, qo‘l kaftining bilakka oid yozuvchi mushaklar paylarining qini.

C. lablar jipislashuvlari, qovoqlar yorig‘i, tomirlar asabi, kesuvchi va katta oziq tishlar, kesuvchi va kichik oziq tishlarning tilga oid yuzasi, ponasimon sinuslar, ponasimon sinuslar to‘siqlari, qanotsimon o‘simtalar, qanotsimon o‘simtalar medial va lateral plastinalari, katta va kichik toshsimon asablar, katta va kichik toshsimon asablar kanallari, katta va kichik toshsimon asablar kanallarining tirqishi, qovoqlar yon jipislashuvi.

IX. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

A. nuclei nervorum cranialum, facies anterior et posterior dentium premolarium et molarium, vagina synovialis mm. peroneorum (fibularium) communis, rr. trigeminales et trochleares, sinus venarum cavarum, mm. palati et faucium, forr. venarum minimarum, noduli valvularum semilunarium.

B. vincula tendinum, cavernae corporum cavernosorum, lunulae valvularum semilunarium, decussatio nn. trochlearium, stratum lamellarum generalium externarum et internarum, plexus cavernosi concharum, tunica conjunctiva palpebrarum, ligg. ossiculorum auditus, articulationes ossiculorum auditus.



Leksik minimum

I turlanishdagi otlar

comissura, aef	jipishlashuv(bitishma)
glandulasuprarenalis	buyrak usti bezi
medulla, aef	miya
medulla oblongata	uzunchoq miya
medulla ossium	suyak iligi, suyak ko'migi
medulla spinalis	orqa miya
trachea, aef	kekirdak
vagina, aef	qin
valvula, ae f	to'sqich
vesica, aef	pufak
vesica fellea (s. biliaris)	o't pufagi
vesica urinaria	qovuq, siydik pufagi

II turlanishdagi otlar

atrium, in	bo'lmacha
bronchus, im	bronx
carpus, i m	qo'lning kaft usti qismi
lobus, im	bo'lak
lumbus, i m	bel
metacarpus, i m	qo'l kafti
nodulus, i m	tuguncha
retinaculum, in	bog'ich
stratum, in	qavat, qatlam
thalamus, im	ko'ruv bo'rtig'i
thymus, im	ayrisimon bez

III turlanishdagi otlar

abscessus, usm

abscess

sensus, us m

sezgi; ma'no

I guruh sifatleri

arteriosus, a, um

arteriyaga oid

cardiacus, a, um

yurakka oid

membranaceus, a, um

pardali

oblongatus, a, um

uzunchoq

opticus, a, um

ko'ruv

peron(a)eus, a, um (s. fibularis)

kichik boldir (*suyagi*) ga oid

pyloricus, a, um

pilorusga oid

ruber, bra, rum

qizil

sanguineus, a, um

qonga oid

spurius, a, um

soxta

urinarius, a, um

siydikka oid

II guruh sifatleri

analís, e

orqa chiqaruv teshigiga oid

biliaris, e

o'tga oid

cerebellaris, e

miyachaga oid

generalis, e

umumiy

intermuscularis, e

mushaklararo

medullaris, e


miyaga oid

paranasalis, e

burun atrofiga oid

semilunaris, e

yarimoysimon



1.13- rasm.Yuqori va quyi nafas yo‘llari ifodasi.

¹Barbara A.Gyls, Regina M.Masters”Medical Terminology Simplified fourth edition
 “USA2010/Chapter-10.P.440



Nazorat savollari:

1. III turlanishda Masculinum, Feminum va Neutrum rodlariga tegishli otar Nom.pl et Gen.pl. da qanday qo'shimchalariga ega bo'ladi?
2. Masculinum va Femininum rodlaridagi otlar kelishiklarda turlanganda bir xil qo'shimchalarga ega bo'ladimi?
3. III turlanishda turlanuvchi otar sifatlar bilan Nom. pluralisda qanday moslashadi ?
4. Gen. pl. da qanday qoshimchalarga ega boladi?
5. Nom. pl. da qanday qoshimchaga ega?

Optimum medicamentum quies est. – A'lo dori vositasi - oromdir.

Medicamenta heroica in manu imperiti sunt, ut gladius in dextra [manu] furiosi. – Malakasizning qo'lidagi kuchli dori, jinnining o'ng [qo'l] idagi qurol kabi.

§12. Son.

Maqsad: 1 dan 15 gacha sanoq va tartib sonlarini; lotin va yunon kelib chiqishga ega son prefikslarini *bilib olish*. Terminlarda son prefikslarini *ajrata olish*.

1 dan 15 gacha miqdor va tartib sonlari

Arab raqamlari	Sanoq sonlar	Tartib sonlar	Rim raqamlari
1	unus, a, um	primus, a, um	I
2	duo, duae, duo	secundus, a, um	II
3	tres, tria	tertius, a, um	III
4	Quattuor	quartus, a, um	IV
5	Quinque	quintus, a, um	V
6	Sex	sextus, a, um	VI
7	Septem	septimus, a, um	VII
8	Octo	octavus, a, um	VIII
9	Novem	nonus, a, um	IX
10	Decem	decimus, a, um	X

11	Undecim	undecimus, a, um	XI
12	Duodecim	duodecimus, a, um	XII
13	Tredecim	tertius decimus, a, um	XIII
14	Quattuordecim	quartus decimus, a, um	XIV
15	Quindecim	quintus decimus, a, um	XV

Sanoq sonlar orasida faqat unus, a, um; duo, duae, duo; tres, tria rod qo'shimchasiga ega. Tartib sonlar I guruh sifatleri kabi moslashadi va turlanadi.

Old qo'shimcha sifatida qo'llaniluvchi lotin va yunon sonlari.

Anatomik terminshunoslikda lotin kelib chiqishiga ega son prefikslari, farmasevtik va klinik terminshunoslikda esa yunon kelib chiqishiga ega son prefikslari ustunlik qiladi.

	Lotin prefikslari	Misollar	Yunon prefikslari	Misollar
yari m	semi-	semilunaris, e yarimoysimon	hemi-	hemispherium, i n yarim palla
bir	uni-	unicornis, e bir shoxli	mono-	mononucleosis, is f mononukleoz
ikki	bi-	biceps, ipitis ikki boshli	di-	dicheilia, ae f qo'sh lab
uch	tri-	trigeminus, a, um uch shoxli	tri-	trioxazinum, i n trioksazin
to'rt	quadri-	quadriceps, ipitis to'rt boshli	tetra-	tetraboras, atis m tetraborat
besht			pent-	pentaminum, i n pentamin
olti			hex-	hexenalum, i n geksenal
yetti			hept-	heptylresorcinum, i

				<i>m</i> geptilrezorsin
sakk iz			octo-	octoestrolum, i <i>n</i> oktestrol

Nazorat savollari:

1. Lotinvaunonsonlar anatomiyada qandayqo'llaniladi?
2. Klinikada qaysi sonlar qo'llaniladi ?
3. Sonlar old qo'shimchashaklida qaysi nomlarda ishlatiladi.
4. Sonlarni kelib chikish tarixi qanday ?

§13. I bo'lim anatomiya va gistologiya atamashunoslik ta'limoti

bo'yichatakrorlash

Maqsad: O'tilgan materialni tizimli qaytarish, tibbiyotterminlarini bosh va qaratqich kelishik birlik va ko'plik sonlarida tarjima qilish mahoratini mustahkamlash.

Mashqlar

I. Berilgan so'zlarning lotin tili lug'at shaklini ayting:

chigal, ichak, gangliy, til, ariq, teshik, yuza, yo'l, asab, o'simta, mushak, halta, qirg'oq, o'q, shox, yoriq, qism, boylam, sinus, qovoq, suyak, tish, tizim, muguz, bronx, tomir, do'mboqcha, yonoq.

II. Berilgan so'z birikmalarini og'zaki tarjima qiling:

A. margo anterior, os hyoideum, nodus lymphaticus, spina nasalis posterior, colon transversum, fissure orbitalis, radix vestibularis, foramen occipital magnum, crista tuberculi minoris, fornix pharyngis, meatus externus, incisura pancreatis, dura mater encephali, lobus hepatis dexter.

B. corpus vesicae felleae (biliaris), ampulla recti, ligamentum fibulare, cornu sacrale, musculus glut(a)eus minor, ductus hepaticus sinister.

C. nervus facialis, glandula lacrimalis, stratum cerebrale, musculus transversus menti, cavitas nasi propria, ductus sublingualis major, nervus musculi tensoris veli palatini, hiatus canalis nervi petrosi minoris, apex radices dentis.

III. Berilgan soʻz birikmalarini ogʻzaki tarjima qiling:

pastki kesuvchi tish, soʻrgʻichsimon katakcha, katta qanot, tishlararo boʻshliq, kichik togʻay, kesuvchi kanal, kichik til osti yoʻli, gʻalvirsimon teshik, qon tomir, kichik shox.

IV. Berilgan soʻz birikmalarini *Gen. pl.* ga qoyib yozing:

burun bezi, alveola teshigi, pastki boʻgʻim oʻsimtasi, tepa suyagi.


V. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. umumiy jigar yoʻli, orqa miya gangliyi, ichki eshituv yoʻli, vena chigali, katta nogʻoraning oʻtkir qirrasi, tepa doʻmbogʻi, yuqori qoziq tish, chakka chizigʻi, tishlararo soʻrgʻich, burun toʻsigʻining koʻtaruvchi mushak, koʻkrak qafasining aylantiruvchi mushak, yuqori halqumning toraytiruvchi mushak, ogʻiz burchagining tushiruvchi mushak, bosh mushaklari, yonbosh chigallar, kalta meʼda venalari, kichik tanglay kanallari, (asab) chanoq tugunlari, tana sohalari, qattiq miya pardalarining sinuslari, togʻay oʻymalari, oldingi oʻrta orqa miya venalari, ogʻiz lablari, hiqildoq mushaklari, qorin mushaklari, koʻkrak mushaklari, jigar boʻlaklari, tomirlar tomirlari, ensa mushaklari, oʻng boʻlmacha kavak venalari sinusi, aorta qopqoqlari yetishmovchiligi, orqa serbar mushagi, kalla asablarning oʻzaklari, yuqori chigʻanoq boylami, orqa miya asablarining chigallari, jigar boylamlari, umumiy uyqu chigali, ensa shoxining piyozchasi, bel asablari, umumiy oʻt yoʻlining qisuvchi mushagi, qizil suyak koʻmigi, taloqning visseral yuzasi.

B. qoʻshimcha umurtqaga oid vena, parietal qorin parda, qoʻl bosh barmogʻining yaqinlashtiruvchi mushak, orqa dumgʻazaga oid teshiklar, tizza boylamlari, qoʻl barmoqlarining fibroz qini, segmentga oid bronxlarning shoxlari, oʻt pufagining tanasi, siydik chiqaruv kanalining tashqi (chiqish) teshigi, siydik pufagining mushakka oid pardasi, yuqori oldingi yonbosh oʻtkir qirra, qovurgʻa boshchasining boʻgʻimi, oyoq falangalararo boʻgʻimi, suyak ampulalari, synovial bogʻlanmalar (boʻgʻimlar), chot mushaklari, oʻng oʻpka venalari, teri bogʻichlari, nogʻora pardasi orqa choʻntagi, buyrak usti bezining yuqori qirgʻogʻi.

C. yuz va chaynovchi mushaklar, tishning medial plastinkasi, tilning oʻrtancha egati, koʻz kosasining yuqori va pastki devorlari, pastki tish yoyi, milklar, tishlar, ogʻiz

bezlari, kesuvchi tishlarning medial yuzasi, orqa til bezlari, burun to'sig'ining harakatchan qismi, kurak-til osti mushagining yuqori va pastki qornchasi, pastki milk shoxlar, pastki jag'ning alveolaga oid qismi, pastki jag'ga oid limfa tuguni, tilning ko'r teshigi, qo'shimcha burun tog'aylari, burun atrofi sinuslari.



1.14-rasm Bosh yuz jag' qismiga tegishli suyaklar nomi


Qisqartma	To'liq shakli	Ma'nosi
ABGs	arterial blood gases	arterial qonning gazga to'yinish darajasi
AIDS	acquired immune deficiency syndrome	orttirilgan immun tanqisligi sindromi
ARDS	acute respiratory distress syndrome	o'tkir nafas distressi sindrom
CA	cancer; chronological age; cardiac arrest	saraton; taqvim yosh; yurak to'xtashi
CF	cystic fibrosis	kistali fibroz
COPD	chronic obstructive	surunkali obstruktiv o'pka

	pulmonary disease	kasalligi
CO₂	carbon dioxide	uglerod dioksidi
CPAP	continuous positive airway pressure	doimiy musbat bosim
CPR	cardiopulmonary resuscitation	yurak-o'pka qayta jonlantirish
CT	computed tomography	kompyuter tomografiyasi
DPT	diphtheria, pertussis, tetanus	bo'g'ma, ko'kyo'tal, qoqshol
Dx	diagnosis	tashxis
FEV₁	forced expiratory volume in one second	bir soniyada jadal chiqarilgan nafas hajmi
FVC	forced vital capacity	(o'pkalarning) jadal hayotiy sig'imi
HF	heart failure	yurak yetishmovchiligi
HMD	hyaline membrane disease	gialin pardalar kasalligi
IPPB	intermittent positive-pressure breathing	takrorlanuvchi musbat bosimda nafas
IRDS	infant respiratory distress syndrome	chaqaloqlar nafas distressi sindromi
MRI	magnetic resonance imaging	magnit rezonans tomografiyasi
NMT	nebulized mist treatment	purkagich bilan davolash
O₂	oxygen	kislorod
OSA	obstructive sleep apnea	uyquda nafas to'xtashi sindromi
PCP	<i>Pneumocystic</i> pneumonia; primary care physician; phencyclidine (hallucinogen)	pnevmosistali zotiljam; birinchiyordam shifokori; fensiklidin (gallutsinatsiya)

		chaqiruvchi vosita)
PFT	pulmonary function test	o'pka faoliyati tekshiruvi
PND	paroxysmal nocturnal dyspnea	tungi paroksizmal nafas qisishi
RD	respiratory disease	nafas yo'llari kasalligi
SIDS	sudden infant death syndrome	chaqaloqning to'sitdan o'lishi sindromi
SOB	shortness of breath	nafas qisishi
TB	tuberculosis	sil
URI	upper respiratory infection	yuqori nafas yo'llari infeksiyasi
VC	vital capacity	(o'pkaning) tiriklik sig'imi

II BO'LIM

KLINIK TERMINOLOIY. KLINIK TERMIN YASASH USULLARI



Primo diluculo surgere saluberrimum est. – Saharda turmoq foydali.

*Facile omnes, cum valēmus, recta consilia aegrōtis damus. –
Barchamiz, sog'ligimizda, kasalga to'g'ri maslahatni oson bera olamiz.*

*Omnium artium medicina nobilissima est-Barcha san'atlar ichida tibbiyot eng olijanobidir.
Bene dignoscitur, bene curator-Tashxis to'g'ri ,bo'lsa kasallik yaxshi davolanadi.*

§14. Yunon alifbosi. Terminologik soʻz yasallishining baʼzi umumiy

tushunchalari: soʻz tarkibi → morfema → soʻz yasallishi strukturasi → soʻz yasovchi va yasama negiz → TE → soʻzlarning boʻlinishi → soʻz yasash usullari.

Terminologik soʻz yasallishida suffiksatsiy.

Maqsad: Terminologik soʻz yasallishining baʼzi umumiy tushunchalarini, lotin va yunon qoʻsimchalari minimumini *bilib olish*. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar maʼnosini chiqarishni; berilgan maʼno boʻyicha qoʻshimchali soʻzlarni hosil *qila olish*.

MAQSAD:

Bob oxirida qila olishingiz kerak:

- Dasturlangan oʻqitish usulidan foydalangan holda tibbiyot atamashunosligini oʻrganishni;
- Tibbiy soʻzlar yasashda 4 elementni ajratish va aniqlashni;
- Tibbiy atamalarining boshqa qismlarini tahlil qilish va aniqlashni;
- Ushbu bobda koʻrsatilgan qoidalarni qoʻllab tibbiy soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni;
- Jarrohlik, diagnostik, patologik va qoʻshma suffikslar namunalarini ajratish va oʻzlashtirishni;
- Ushbu bobda koʻrsatilgan qoidalarni qoʻllab tibbiy soʻzlarning birlik va koʻplik shakllarini yozishni;
- Koʻplik sonda kelgan atamalar uchun qoʻllanmalardan foydalanishni;
- Ushbu bobda berilgan tibbiy atamalar talaffuzini tatbiq qilishni;
 - Faoliyatingizni muvaffaqiyatli yakunlash uchun ushbu bobda olgan bilimlaringizni namoyish etishni.


Yunon alifbosi

Yunon alifbosi 24 harfdan iborat.

<i>Yozilishi</i>	<i>Nomi</i>	<i>Lotincha transliteratsiya</i>
A α	Alfa	A
B β	beta (vita)	bh, b, v
Γ γ	Gamma	gh, g
Δ δ	Delta	dh, d
E ε	Epsilon	E
Z ζ	dzeta (zita)	Z
H η	eta (ita)	I
Θ θ	teta (fita)	Th
I ι	Yota	I
K κ	Kappa	K
Λ λ	lambda (lamda)	L
M μ	mu (mi)	M
N ν	nu (ni)	N
Ξ ξ	Ksi	x, ks
O ο	Omikron	O
Π π	Pi	P
P ρ	Ro	R
Σ σς	Sigma	S
T τ	tau (tav)	T
Υ υ	Ipsilon	y, v, f
Φ φ	Fi	ph, f
X χ	Xi	ch, kh
Ψ ψ	Psi	Ps
Ω ω	Omega	O

Soʻz yasalishining baʼzi umumiy tushunchalari

Soʻz tarkibi. Morfema turlari. Morfem tahlil. Soʻz tarkibi quyidagi na mazmun, na shakl jihatidan boʻlinmas, eng kichik maʼnoli qismlar farqlanadi: *old qoʻshimcha (prefiks), oʻzak, suffiks* va *tugallanma (fleksiya)*. Ushbu eng kichik maʼnoli qismlar *morfema* (yun. morphe - shakl) deyiladi. Oʻzakka nisbatan joylanishi bilan farq qiluvchi prefiks va suffiks birgalikda *soʻz yasovchi affikslar* (lot. affixus - qoʻshimcha) deyiladi. Ularning oʻzakka qoʻshilishidan yangi soʻzlar - *yasama soʻzlar* hosil boʻladi. Tugallanma - grammatik ahamiyatga ega affiks boʻlib, shakl yasash (kelishik, son, rod) uchun xizmat qiladi. Soʻzni morfemalarga boʻlish *morfem tahlili* yoki *tarkibiy tahlil* deyiladi:



Tugallanmagacha boʻlgan soʻzning oʻzgarmas qismi leksik maʼno tashiydi va *soʻz negizi* deb ataladi.

Bevosita tarkib (BT) ga koʻra soʻz yasalishi tahlili. Soʻz yasovchi va yasama negizlar. Soʻz yasalishi tahlilining mohiyati – soʻzdan ikki *bevosita tarkib* (BT) ni ajratib olishdir. Ular, qoʻshilishi tufayli yasama soʻz paydo boʻladigan, yagona parcha (soʻz yasovchi negiz) va affiks(lar).

Morfem tahlilni soʻz yasalishi tahlili orasidagi farqni quyidagi misolda namoyish etish mumkin. Morfem tahlil nuqtai nazaridan *interlobularis* - boʻlaklararo sifati 5 morfemaga ajraladi: *inter-* (prefiks), *-lob-* (oʻzak), *-ul-*, *-ar-* (suffiks), *-is* (tugallanma); soʻz yasalishi nuqtai nazaridan esa 2 BT ajratiladi: *inter-* (prefiks) + *lobular(is)* (soʻz yasovchi negiz):

soʻz
yasamaydigan
negiz
lob(us)

1-darajali
yasama negiz
lob-ul(us)
soʻz yasovchi
negiz

2-darajali
yasama negiz
lobul-ar(is)
soʻz yasovchi
negiz

3-darajali
yasama negiz
inter-lobular(is)
soʻz yasovchi
negiz

Termin soʻzlarning boʻlinishi va yunon-lotin termin elementlari (TE)

Bir qismi qandaydir boshqa soʻzda qaytarilgan va maʼnolari jihatidan boʻgʻlangan soʻzlar *boʻlinuvchi* soʻzlar hisoblanadi. Boʻlinish *toʻliq*yoki *notoʻliq* boʻlishi mumkin:

1) toʻliq boʻlinish – pod-algia (*yun.* pus, podos + algos), pod-o-metria (*yun.* metreo) va neur-algia (*yun.* neuron), my-algia (*yun.* mys, myos) hamda kephal-o-metria (*yun.* kephalos), thorac-o-metria (*yun.* thorax, thorakos);

2) yarim boʻlinish – pod-agra (*yun.* podagra - oyoq uchun qopqon). Soʻzning birinchi qismi zamonaviy terminlar orasida uchragani uchun boʻlinuvchi hisoblanadi, ikkinchi qismi – agra – esa amaliy jihatdan yagona.

Koʻplab qadimgi yunon va lotin tillari morfemalari terminshunoslikda oʻziga xos maʼnoga, baʼzan ilgari maʼnoning ona tiliga xos boʻlmagan yangi maʼnoga ega boʻlishadi. Bunday maʼnolarni *terminologik* deb atash mumkin. Misol tariqasida, yunon soʻzi *kytos* - idish lotinlashgan holi *cytus* «hujayra» maʼnosida oʻzak morfema sifatida oʻnlab terminlar – yasama soʻzlar – tuzilishida muntazam ravishda qoʻllaniladi. Yunon sifatlari suffiksi *-itis* dastlab «tegishlilik» umumiy maʼnosini bergan boʻlsa, hozirda «yalligʻlanish» maʼnoli termin otlar qismiga aylandi.

Termin elementlar. (TE). Mavjud boʻlgan yoki yangi terminlar yaratishda tayyor holda muntazam foydalaniladigan va terminshunoslikda unga berilgan tushunchani saqlaydigan yasama soʻz qismi (morfema, morfemalar bloki) *termin element* (TE) deyiladi. Bunda yunon-lotin kelib chiqishli xalqaro termin elementining qaysi transkripsiya, lotinchayoki oʻzbekcha, shaklida namoyonligi muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Termin soʻzni TE ga boʻlish uni morfemalarga boʻlish bilan har doim ham mos kelavermaydi, chunki baʼzi TE oʻzida *butun blok* – ikki-uch morfemaning bir butun qoʻshilishini mujassam etgan. Bunday rasmiy va sarmazmun muttasilligida ushbu morfemalar bloki bir turda hosil qilingan yasama soʻzlar qatoridan boʻlib olinadi, mas., *asthen-opia*, *asthen-o-spermia*, *asthen-o-depressivus*, *asthen-isatio* terminlarida *asthen(o)-* (*yun.* asthenes - kuchsiz) blokli tTE boʻlib olinadi. Koʻp uchrovchi TE *tom-ia* (*yun.* tome - kesish, qirqish), *rhap-ia* (*yun.* rhapshe - chok), *log-ia* (*yun.* logos - fan) – yasama negizning tugallanma qismi – tarkibi boʻyicha ikki morfemali: oʻzak +

soʻzlarga «harakat, hodisa» umumiy maʼnosini beruvchi -ia suffiksi. Koʻp uchrovchi TE *ectomia* esa 3 ta qadimgi yunon morfemalaridan iborat: ek- old qoʻshimchasi + *tome* oʻzagi + -ia suffiksi.

Soʻz yasash usullari

Soʻz yasashning asosiy usullari *affiksliv* yoki *affikssiz* boʻladi. Affiksli soʻz yasash–soʻz yasovchi affikslar (prefiks, suffiks) ni soʻz yasovchi negizga qoʻshish orqali amalga oshiriladi. Affikssiz soʻz yasash, asosan, murakkab soʻzlarni hosil qilishda ishlatiladi.

Suffiksatsiya

Suffiksatsiya deb suffiksni soʻz yasovchi negizga qoʻshishga aytiladi. Natijada olingan yasama negiz *suffiks*al deyiladi. Suffikslar muhim *tasniflash* vazifasini bajaradi. Suffiksatsiyada soʻz yasovchi negiz sifatida turli soʻz turkumlari – ot, sifat, feʼldan foydalaniladi. Ayrim suffikslar faqat maʼlum bir soʻz turkumi negizi bilan qoʻshiladi, mas., -al, -ar suffikslari ot negizi bilan, -io, -or suffikslari feʼl negizi bilan. Undosh harf bilan boshlanuvchi suffiksning soʻz oʻzagiga qoʻshilishiyordamchi unli orqali sodir boʻladi: -i-, odatda, lotin soʻzlarida va -o-yunon kelib chiqishli soʻzlarda, mas.: *lot.* *cruc-i-formis* - xochsimon; *tuberos-i-tas* - doʻmboqlik; *yun.* *bronch-o-genus* - bronxogen.

NB!

Sifat yasalishida suffiks ot negiziga (qar. k. birlikda) qoʻshiladi: *thorax*, *acis* – *thorac-ic-us*; *cartilago*, *inis* – *cartilagin-e-us*.

Odatda, soʻz yasovchi negiz va suffiks bir tilga oid – yo lotin tiliga, yo yunon tiliga. Lekin terminshunoslikda *gibrid* soʻzlar ham kam emas, ayniqsa, sifatlar orasida, mas.: *brachi-al-is*, *acromi-al-is*, *pyramid-al-is*, *petr-os-us*, *arteri-os-us* soʻzlarida negiz yunoncha, suffikslar esa lotincha. Oʻzida ham yunon, ham lotin suffikslarini mujassam etgan sifatlar ham uchraydi: *spheno-id-al-is* (-id – *yun.*, -al – *lot.*).

Lotin va lotinlashgan yunon suffikslari

Ot yasovchi suffikslar

1. Deminutivlar – kichraytirish maʼnosini beruvchi otlar:

<i>Suffikslar</i>	<i>Soʻz yasovchi ot negizi</i>	<i>Yasama soʻz misollari</i>
-------------------	--------------------------------	------------------------------

-ul- (us, a, um)	glob-us ven-a fren-um	kurra vena yugan	glob-ulus ven-ula fren-ulum	kurracha kichkina vena yugancha
-cul- (us, a, um)	canal-is aur-is gen-u	kanal quloq tizzacha	canal-i-culus aur-i-cula gen-i-culum	kanalcha quloqcha tizzacha
-ol- (us, a, um)	bronch-us are-a	bronx maydon	bronch-i-olus are-ola	bronxiola maydoncha
-ell- (us, a, um)	lam-ina cereb(rum)	varaq katta bosh miya	lam-ella cereb-ellum	varaqcha miyacha
-ill- (us, a, um)	mam(ma)	sut bezi	mam(m)-illa	ko'krak so'rg'ichi

NB!

Soʻz yasovchi negiz I yoki II turlanishga mansub boʻlgan holatda yasama kichraytiruvchi ot (deminutiv) turlanishni saqlab qoladi. Boshqa holatlarda soʻz yasovchi negizning turlanishidan qatʼiy nazar I yoki II turlanishni oladi, mas.: nodus, i m nodulus; vas, vasis n vasculum.

Eslatma:

1) odatda, III turlanishdagi otlarning unli va aralash turlariga -cul- (us, a, um) suffiksi qoʻshiladi: collis, is *m* – colliculus - tepalikcha; auris, is *f* – auricula - quloqcha; rete, is *n* – reticulum - toʻrcha. Agar soʻz yasovchi negiz sifatida III turlanishdagi otning undosh turi qoʻllanilsa ham -cul- (us, a, um) ishlatiladi: corpus, oris *n* – corpusculum - tanacha; vas, vasis *n* – vasculum - tomircha.

2) avval undosh kelgan unli bilan tugallanuvchi oʻzakka -ol- (us, a, um) suffiksi qoʻshiladi: arter-i-a – arteri-ola; fov-e-a – fove-ola.

3) -ll- suffiksi bilan ifodalangan soʻzlar kichraytirish maʼnosini olib boʻlgan yasama negizlardan hosil boʻlgan 2-darajali kichraytiruvchi otlar hisoblanadi: capsula - idish, quti – capsula (1-darajali deminutiv) gʻilof, quticha – caps-ella (2-darajali deminutiv) kichik quticha.

4) o‘zagida r, l, m, n undoshlarini tutgan so‘zlardan deminutivlar -ll- (us, a, um) yoki -ell- (us, a, um) suffikslari bilan hosil qilinadi: cerebrum – cerebellum, scalper (*scalprum* - tig‘, pichoq) – scalpellum.

5) kichraytirish ma’nosiga ega bo‘lmagan otlarni deminutivlardan ajrata olish kerak: *macula* - dog‘; *acetabulum* - quymuch kosasi.

6) ba’zi sun’iy yaratilgan terminlar kichraytirish ma’nosiga ega emas: gastrula, blastula, morula, organella.

2. Harakat va jarayonni anglatuvchi otlar:

Suffikslar	So‘z yasovchi fe’l negizi (supin)		Yasama so‘z misollari	
-io- (tio, sio, xio)	flex-um transsudat- um	bukmoq terga botmoq	flex-io transsudat-io	bukish transsudatsiy a

Eslatma:

1) -io- nafaqat harakat va jarayonni, balki shu harakat natijasini ham anglatishi mumkin: *decussatio* - kesishma (X shaklidagi hosila); *impressio* - botiq; *terminatio* - oxir.

2) -io- dan sun’iy hosil bo‘lgan so‘zlar orasida ba’zilari fe’l emas, ot negizidan kelib chiqqan: *decapsula-tio* - dekapsulatsiya, a’zo qobig‘ini operativ olib tashlash; *hepatis-a-tio* - jigarlanish, o‘pka to‘qimasining zichlashishi.

3. Harakat bajarilayotgan predmet (a’zo, asbob, uskuna), faoliyatni amalga oshirayotgan shaxsni anglatuvchi otlar:

Suffikslar	So‘z yasovchi fe’l negizi (supin)		Yasama so‘z misollari	
-or- (tor, sor, xor)	adduct-um flex-um extens-um curat-um extract-um	yaqinlashtirm oq bukmoq yozmoq g‘amxorlik qilmoq	m. adduct-or m. flex-or m. extens-or curat-or extract-or	yaqinlashtiruv hi bukuvchi yozuvchi vasiy

		chiqarmoq		ekstraktor
--	--	-----------	--	------------

4. Harakat natijasini anglatuvchi otlar:

<i>Suffikslar</i>	<i>So 'z yasovchi fe 'l negizi (supin)</i>		<i>Yasama so 'z misollari</i>	
-ura- (tura, sura, xura)	rupt-um	uzmoq	rupt-ura	uzilish
	apert-um	ochmoq	apert-ura	tuynuk
	incis-um	o'ymoq	incis-ura	o'yma
	flex-um	bukmoq	flex-ura	bukilma

Sifat yasovchi suffikslar

1. So'z yasovchi negizda ko'rsatilgan belgiga boy bo'lish ma'nosini anglatuvchi sifatlar:

<i>Suffikslar</i>	<i>So 'z yasovchi ot negizi</i>		<i>Yasama so 'z misollari</i>	
-os- (us, a, um)	squam-a	tanga	squam-osus	tangali
	fibr-a	tola	fibr-osus	tolali
	infect-io	yuqish	infecti-osus	yuqumli

2. So'z yasovchi negizda ko'rsatilgan belgiga tegishlilik ma'nosini anglatuvchi sifatlar:

<i>Suffikslar</i>	<i>So 'z yasovchi ot negizi</i>		<i>Yasama so 'z misollari</i>	
-al- (is, e)	coron-a	toj	coron-alis	toj tomirga oid; tish tojiga oid
	clavicul-a	o'mrov	clavicul-aris	o'mrovga oid
-ic- (us, a, um)	thorax, acis	ko'krak	thorac-icus	ko'krakka oid
	zygoma, atis	qafasi	zygomat-icus	yonoqqa oid
-e-	gaster, tris	yonoq me'da	gastr-icus	me'daga oid
	perone	kichik boldir	peron-eus	kichik

(us, a, um)	pharynx, ngis oesophag-us	suyagi halqum qizilo'ngach	pharyng-eus oesophag-eus	boldirga oid halqumga oid qizilo'ngachg a oid
-in- (us, a, um)	palat-um uter-us pelv-is	tanglay bachadon chanoq	palat-inus uter-inus pelv-inus	tanglayga oid bachadonga oid chanoqqa oid

Eslatma:

1) agar so'z yasovchi negizlar -lyoki -r bilan tugallansa, -al/-ar- suffikslari dissimilatsiyasi ro'y beradi: *vertebralis*, *clavicularis*.

2) -al/-ar- suffiksli bir qator sifatlar «o'xshashlik» nostandart umumiy ma'no tashiydi: *circularis* - doiraviy; *reticularis* - to'rsimon; *pyramidalis* - piramidasimon.

3. So'z negizida ko'rsatilgan belgiga o'xshashlik ma'nosini anglatuvchisifatlar:

Suffikslar	So'z yasovchi ot negizi		Yasama so'z misollari	
-ide- (us, a, um) -ides	rhombos delta	romb delta	rhombo-ideus delto-ideus delto-ides	rombsimon deltasimon
-form- (is, e)	crux, crucis	xoch	cruci-formis	xochsimon

Bu turdagi ko'pchilik sifatlar XVII asrda anatomlar tomonidan sun'iy yaratilgan. Ulardan ayrimlari, mas., *m. arytaenoideus* - cho'michsimon mushak; *m. hyoideus* - asl. ipsilonsimon mushak (ypsilon, υ), *m. mastoideus* - so'rg'icsimon mushak; *m. pterygoideus* - qanotsimon mushak, umuman so'z yasovchi negizda berilgan jismlarga o'xshash emas. Bunday «ziddiyat» bilan *vena mastoidea* - so'rg'ichsimon vena terminsi ham taqdirlangan, negaki u so'rg'ichga o'xshamaydi; uning nomi *processus mastoideus* - so'rg'ichsimon o'simtaga tegishliligi bilan tushuntiriladi. *venae sigmoideae* terminsiga ham monand sabab topamiz: ushbu termin bilan ifodalangan venalar sigma yunon harfiga umuman o'xshamaydi, ammo ular *colon sigmoideum* - sigmasimon chambar ichakka tegishli.

4. Soʻz yasovchi negizda koʻrsatilgan belgini tashuvchi maʼnosini anglatuvchisifatlar:

<i>Suffikslar</i>	<i>Soʻz yasovchi ot negizi</i>		<i>Yasama soʻz misollari</i>	
-fer (us, a, um)	semen, inis	urugʻ	semin-i-fer	urugʻga oid (urugʻ tashiydigan)
	sudor, oris	ter	sudor-i-fer	terga oid
-phor- (us, a, um)	Oon	tuxum	oo-phorus	tuxum tashiydigan

5. Negizdakoʻrsatilgan belgini 1) «tugʻdiradigan, yetishtiradigan, chaqiradigan» (faol maʼno); 2) «tugʻiladigan, chaqiriladigan» (sustmaʼno) anglatuvchisifatlar:

<i>Suffikslar</i>	<i>Soʻz yasovchi ot negizi</i>		<i>Yasama soʻz misollari</i>	
-gen- (us, a, um) -genes	cancer	saraton	cancero- genus	saraton chaqiradigan
	pyon	yiring	pyo-genus	yirinlatadigan ; yiringlagan
	enteron	ichak	entero-genus	ichak kasalligi sababli

Mashqlar

I. Oʻzbek tiliga tarjima qiling:

tuberalis, tuberosus, tuberculum, tuberositas, tubercularis; tubus, tubulus, tuba, tubula, tubalis; bulla, bullosus; capitulum, capitalis; denticulus, dentalis; vesicula, vesicularis.

II. Qoʻshimchalarni belgilang, oʻzbek tiliga tarjima qiling:

cuticula, tuberculum, mamilla, frenulum, glomerulum, ossiculum, ventriculus, corpusculum, lingula, lingualis, lingularis, radícula, ventralis, dorsalis, tympanicus, caninus, meningeus, membranosus, cardiogenus (*yun.* cardia - yurak), spongiosus, analis, femoralis, geniculum, maxillaris, mandibularis, mucosa, serosa, granulosus,

alveolaris, gluteus, coccygeus, carpeus, parotideus, tarseus, phalangeus, caroticus, pubicus, neurogenus.

III. Qo‘shimchalar ma‘nosini ko‘rsating, o‘zbek tiliga tarjima qiling:

papilla parotidea, ductus pancreaticus, fossa condylaris, fossula petrosa ossis temporalis, incisura fibularis, processus styloideus, ductus hepaticus, os scaphoideum, palatum osseum, vena gastrica, m. gluteus, arteria meningea, ductuli prostatici, fossa canina maxillae, cavitas medullaris, cornu sacrale, apex ossis sacri, tuber ischiadicum, systema nervosum centrale.

IV. Ma‘no jihatidan so‘z yasovchi qo‘shimchalardan foydalangan holda sifat yasang:

«- simon, o‘xshash» - xanjar (*yun. xiphos*), bigiz (*yun. stylos*), pona (*yun. sphen*), trapetsiya (*yun. trapezion*), o‘rgimchak to‘ri (*yun. arachne*), qalqon (*yun. thyreos*), qanot (*yun. pteryg-*), so‘rg‘ich (*yun. mastos*), pona (*lot. cuneus*), zamburug‘ (*lot. fungus*), duk (*lot. fusum*), chuvalchang (*lot. vermis*).

«ko‘p, boy» - tolali, shilliqli, g‘orli, gangliyli, koptokchali, donchali, tomirchali, do‘mboqli.

«tegishli, oid» - ko‘krak qafasiga tegishli, nog‘oraga oid, diafragmaga oid, uyqu arteriyasiga oid, me‘daga oid, limfaga oid, ko‘ruv bo‘rtig‘iga oid, siydik nayiga oid.

V. io qo‘shimchasi yordamida fe‘l negizidan ot yasang:

A. resectum - kesib olmoq, qirqib olmoq; extirpatum - ildizi bilan yulib olmoq; sectum - kesmoq, qirqmoq; punctum - sanchmoq; extractum - chiqarmoq; extensum - uzatmoq, cho‘zmoq.

B. obturatum - tiqinlamoq; occlusum - bekitmoq; contractum - tortmoq; luxatum - chiqmoq, siljimoq; invasum - bostirib kirmoq; transfusum - quymoq; secretum - ajratmoq; depressum - tushirmoq, bosmoq; commotum - chayqatmoq; compressum - qismoq; infectum - singdirmoq, yuqtirmoq; selectum - tanlamoq; mutatum - o‘zgartirmoq; injectum - ichiga tashlamoq; perforatum - teshib o‘tmoq.

VI. or qo‘shimchasi yordamida fe‘l negizidan ot yasang:

constrictum - toraytirmoq; depressum - tushirmoq, bosmoq; injectum - ichiga tashlamoq; supinatum - to‘ntarmoq, ag‘darmoq; erectum - to‘g‘rilamoq; monitum -

eslatmoq, nazorat qilmoq; excavatum - o'yib olmoq; acceptum - qabul qilmoq; receptum - olmoq; ordinatum - tartibga solmoq.

VII.-ura qo'shimchasi yordamida fe'l negizidan ot yasang:

junctum - bog'lamoq; strictum - toraymoq; curvatum - egmoq; fissum - tilmoq, yormoq; comissum - biriktirmoq; sutum - tikmoq; fractum - sindirmoq, buzmoq.

VIII. Klinik terminlarni tarjima qiling:

perforatio appendicis, abscessus chronicus, abscessus hepatis ascaridosus, glaucoma malignum pigmentosum, glaucoma juvenile, polypus mucosus simplex, polypus fibrosus, cancer papillaris, eruptio medicamentosa, ulcus gangraenosum, cysta dentalis radicularis, cysta bronchogena, cysta palatina, cancer pulmonis.

IX .Termin-so'z tuzilmalarini o'qing. Suffikslarni ajrating.

manosini taxlil qiling

1. necrosis pulpaе
2. resection apices radices dentis
3. dermatitis faciei(dermato-teri)
4. papillae fungiformes linguae
5. pulpitis diffusa acuta
6. periodontitis acuta
7. perforatio parietis sinus maxillaris
8. fractura mandibulae
9. glossitis purulenta profunda
10. pulpitis gangraenosa chronica
11. glossitis rhomboidea.
12. parodontosis chronica

X. Termin-so'z tuzilmalarini lotin tiliga tarjima qiling:

1. Tanglayda yiring bo'lishi (tilning, pulpaning)
2. Tishning kraiesi (tishlarning)
3. Chuqur yiringli o'yma
4. Kariesli tish (tishlar)

5. Kariesli bo'shliq (dog')
6. Katta shikastlanish (kichik)
7. Labdagi yara
8. Yuzning ishishi
9. Yaxshi sifatli (yomon sifatli) o'simta
10. Yuqori jag'ning sinishi (pastki)
11. Boshning shikastlanishi (yuzning, tishning)
12. Pastki labning yallig'lanishi (yuqori)
13. Yuqumli kasallik
14. Shikastlanishdan keyingi behush holat
15. Og'ish bo'shlig'ining xavfli osimtasi




Leksik minimum

abscessus, us <i>m</i>	abscess
acutus, a, um	o'tkir
benignus, a, um	yaxshi sifatli, xavfsiz
cancer, cri <i>m</i>	saraton
caries, ei <i>f</i>	karies, suyakchirishi
colica, ae <i>f</i>	qorinda to'satdan bo'ladigan oq'riq (sanchiq)
coma, atis <i>n</i>	koma, behush holat
comatosus, a, um	komaga oid
cysta, ae <i>f</i>	pufak, kista
cystosus, a, um	kistali
diabetes, ae <i>f</i>	diabet
diabeticus, a, um	diabetga oid
diffusus, a, um	tarqalish, diffuz
eczema, atis <i>n</i>	chilla yara, ekzema
fractura, ae <i>f</i>	sinish
gangraena, ae <i>f</i>	qorason, gangrena

gangraenosus, a, um
glaucoma, atis *n*
hernia, ae *f*
hernialis, e
icterus, i *m*
ileus, i *m*
infantil, e
infectio, onis *f*
infectiosus, a, um
inflammatio, onis *f*
juvenilis, e
malignus, a, um
morbus, i *m*
oedema, atis *n*
paralysis, is *f*
paralyticus, a, um
paresis, is *f*
pneumonia, ae *f*
senilis, e
spasmus, i *m*
spasticus, a, um
trauma, atis *n*
traumaticus, a, um
ulcus, eris *n*
ulcerosus, a, um
varix, icis *m, f*
varicosus, a, um
volvulus, i *m*

gangrenali
nazla, glaukoma
churra
churraga oid
sariqlik
ichak tutilishi
bolalarga xos
yuqish, infeksiya
yuqumli
yallig‘lanish
o‘spirinlarga xos
yomon sifatli, xavfli
kasallik
shish
falaj, shol
falajlikka oid
parez, yarim falaj
zotiljam
qarilikka xos
tirishish, spazm
spazmgga oid
shikastlanish
shikastlanishga oid
yara
yarali
vena tuguni, kengaygan vena
kengaygan venaga oid
ichaklarning buralib qolishi

ORGANLARNING NOMLARINI KLINIK TERMINLARDA YOZING VA TALAFFUZ QILING. SUFFIKSLARNI AJRATIB KO'RSATING.



<u>dent/al</u> <u>pancreat/itis</u> <u>dermat/o/logist</u>	1–22 1.1. Tibbiy terminlarda oʻzaklar, odatda, yunon yoki lotin dan kelib chiqqanligini koʻrishingiz mumkin. agi soʻzlar oʻzagining tagiga chizing: dent/al
part	1–23 oshiyada <i>dent</i> - tishni, <i>pancreat</i> - meʼda osti bezini, <i>dermat</i> -terini anglatadi. oʻzak tana _____ (anatomik tuzilma) ni ifodalaydi.

Birikmashakllar

Birikma shakl (BSh) soʻz oʻzagining unli tovush bilan birikishidan hosil boʻladi. Bu unli tovush, odatda, o dan iborat. Unli tovush oʻz mustaqil maʼnosiga ega emas, lekin ikki soʻz elementini bogʻlash imkonini beradi.

birikma shakl	1–24 Soʻz oʻzagi singari, BSh boshqa elementlar bilan qoʻshilib soʻz hosil qilishda asosiy poydevor hisoblanadi. Ushbu darslikda <i>dent/o</i> va <i>gastr/o</i> kabi soʻz oʻzagi/unli tovush koʻrinishida birikma shakl, oʻzagi/unli tovush (odatda, o) _____ nomli yangi elementni ifodalagan. Soʻz yuzaga keltiradi.
therm/o gastr/o	1–25 <i>Therm/o/meter</i> da BSh-_____/_____. <i>Gastr/o/scope</i> da BSh _____/_____.

birikma shakl gastr, o	1–26 _____ is an example of the word element called a _____. da oʻzak - _____; birikma unli - _____. <i>Gastr/o</i>
o o o	1–27 Quyidagi har bir element uchun birikma unli kiriting: <i>arthr/o</i> _____ <i>phleb/o</i> _____ _____
therm/o abdomin/o nephro	1–28 Quyidagi birikma shakllarning soʻz oʻzagi tagiga chizing: <i>therm/o</i> <i>abdomin/o</i> <i>nephro</i>

¹Barbara A.Gylys, Regina M.Masters”Medical Terminology Simplified fourth edition
“USA2010/Chapter-1.P.5



Nazorat savollari:

1. Suffikslar qachon va qanday hollarda qo'llaniladi?
2. Otlardan qaysi suffikslar yordamida sifat hosil qilamiz?
3. Kichraytirish ma'nosini anglatuvchi suffikslarni ayting?
4. Tegishli va oid ma'nosini anglatuvchi sifatlarni ayting.?
5. Boy va ko'p ma'nosini beruvchi suffikslarni ayting.
6. Kasallik chaqiruvchi ma'nosini beruvchi suffiksni ayting va misollar keltiring.

Facile dictum, difficile factum. – Oson aytmoq, qiyin qilmoq.

Otium post negotium. – Ishdan keyingi hordiq.

§15. So'z yasalishi (davomi). Prefiksatsiya. Prefiks-suffiksli yasama so'zlar.

Maqsad: Ko'p qo'llaniluvchiyunon-lotin dubletlarini va anatomik prefikslarni *bilib olish*. Berilgan ma'noda prefiksli va prefiks-suffiksli yasama so'zlarni tahlil va hosil *qila olish*. (Tana tuzilishiga va yuz soxasini ifodalovchi TE)

Prefiksatsiya

Prefikslar

Prefiks bu so'z boshida joylashgan so'z elementi. Bir prefiks o'rniga boshqa prefiksni qo'yish so'z ma'nosini o'zgartiradi. Prefiks, odatda, son, vaqt, makon yoki inkorni ifodalaydi. Ushbu darslikda prefiks yakka holda kelsa, oxiriga defis qo'yiladi.

Prefiksatsiya – old qo'shimchani (prefiksni) o'zakka qo'shish, bunda ma'no o'zgarmaydi, balki ushbu tushunchaga *lokalizatsiyasi* (yuqori, quyi, oldingi, orqa), *yo'nalishi* (yaqinlashish, uzoqlashish), *kechishi* (ilgari, keyin), *mavjudligi* yoki *inkor etishi* kabi tarkibiy qismni qo'shadi.

Prefikslar ko'makchilardan rivojlangan, shuning uchun ularning o'z ma'nosi tegishli ko'makchilarniki bilan mos keladi.

Ba'zi prefikslarning o'z ma'nosi asosida *ikkilamchi*, *ko'chma* ma'nolar yuzaga kelgan. Shu tarzda yunon ko'makchisi para (atrofi, yoni) da *ko'chma* ma'no "chekinish, og'ish, ma'lum hodisaning tashqi namoyon mohiyatiga mos kelmaslik" rivojlangan, mas.: *paranasalis* – burun atrofi; *paramnesia* (*yun.* *mnesis* - xotira) – xotira buzilishi va yolg'on xotiraning yuzaga kelishi; *paratyphus* – *Salmonella*

avlodiga mansub ma'lum bakteriyalar tomonidan qo'zg'atiluvchi odam yuqumli kasalliklar guruhining umumiy nomi bo'lib, ich terlama (qorin tifi) alomatlariga o'xshash (!) ba'zi klinik ko'rinish bilan xarakterlanadi.

Morfologiyafan sohalarida qo'llaniluvchi tushunchalarda AE-prefikslar o'z ma'nosiga ega. Patologik holatlar, kasalliklar, a'zo faoliyatining buzilishlarini ifodalovchi terminlarda esa AE-prefikslar ikkilamchi ma'noda foydalaniladi, misol uchun *anat.* hypogastrium - qorin osti; *pat. fiziol.* hypotonia - mushakning yoki kavak a'zo mushak qavatining tonusi tushishi.

Anatomik nomenklaturada lotin prefikslari, patologik anatomiya, fiziologiya, klinika fan sohalarida esa yunon prefikslari ustunlikka ega. Biroq istisnalar ham uchrab turadi: epicranialis - kalla usti, epifascialis - fassiya usti, endocervicalis - bo'yin ichi.

NB!

Prefikslarning negizga qo'shilishida negizning boshlang'ich tovushi ta'siri ostida prefiksda o'zgarish sodir bo'lishi mumkin. Bu, asosan, assimilatsiyada (*lot.* assimilatio - qiyoslash, o'xshatish) namoyon bo'ladi: prefiksdagi so'nggi undosh so'z yasovchi negizning boshlang'ich tovushiga to'liq yoki qisman qiyoslashadi, mas., ad-prefiksi c, f, g, n, p boshlang'ich undoshlari oldida mos ravishda ac-, af-, ag-, an-, ap-ga to'liq qiyoslashadi; prefikslardagi so'nggi n boshlang'ich b, p oldida m ga o'tadi yoki l, m, r oldida to'liq assimilatsiyaga uchraydi. Ba'zi lotin prefikslarida eliziya, ya'ni so'nggi undoshning tushib qolishi mumkin, mas., ex- va e-; con- va co-; dis- va di-. Yunon prefikslari ana-, dia-, cata-, meta-, para-, anti-, epi-, apo-, hypo-, meso- da eliziya so'nggi unlinegizning boshlang'ich unlisi oldida tushib qolishi bilan namoyon bo'ladi. Shu bilan unlilarning qator kelishi bartaraf etiladi, mas., met-encephalon (meta+encephalon), di-encephalon (dia+encephalon).

Ko'p qo'llaniluvchiyunon-lotin prefikslari

Prefikslar		Ma'nosi	Misollar	Tarjimasi
Lot.	Yun.			
ad- (ac-, af-, al-, an-,		yaqinlashish, birlashish,	ad-ductio ag-gluntinatio	yaqinlashtirish yopishtirish

ap-, as-, at-)		qo'shilish	ad-nexa (an-nexa) af-ferens as-sistens	o'simtalar olib keluvchi yonda turuvchi
ab- (abs-, a-)	apo- (ap-, aph)	uzoqlashish	ab-oralis abs-tinentia a-vulsio apo-physis aph-aeresis (apo+hairesis)	og'izdan uzoqda tiyilish uzilish o'siq aferez (tortib olish)
intra-, intro-	endo-, ento-	ichkari, ichki	intra-abdominalis intro-itus endo-scopia ento-derma	qorin ichi kirish tana bo'shliqlari va kanallarini vizual tekshirish usuli ichki pushtyaprog'i

Eslatma: intra- "vaqt mobaynida" ma'nosiga ham ega: *intra-vitalis* - tiriklikdagi.

extra-, extero-	ecto-, exo-	tashqari, tashqi	extra-uterinus extero-receptor ecto-derma exo-glossia	bachadondan tashqari tashqi muhitdan taassurotni qabul qiluvchi retseptor tashqi pushtyaprog'i tilning yiriklashib og'izdan chiqib turishi
-----------------	-------------	------------------	--	--

infra-, sub-	hypo- (hyp-)	ost, quyi, pastki normadan kam	infra-scapularis sub-acromialis hypo-gastrium	kurak osti akromion osti qorin osti hypotonia
supra-, super-	hyper-, epi-	usti yuqori normadan ortiq	supra-scapularis supra-acromialis super-medialis epi-gastrium epi-glottis	kurak usti akromion usti yuqori medial qorin usti hiqildoq usti sohasi hypertonia
ante-, prae- (pre-) , pro-	pro-	oldingi, old; oldin, avval	ante-brachium prae-senilis pro-lapsus pro-nephros	bilak qarilikdan oldin a'zo tushib qolishi buyrak oldi
post-	meta- (met-)	keyin, so'ng	post-nasalis meta-thalamus met-encephalon	tug'ruqdan keyin ko'ruv bo'rtig'i orti miya qismi

Eslatma: meta- “bir joydan yoki holatdan boshqasiga o'tish”, “o'zgarish” ikkilamchi, ko'chma ma'nolariga ga ham ega: *meta-stasis* - patologik materialning organizm bir joyidan boshqa joyiga ko'chishi; *meta-bolismus* (yun. metabole) - moddalar almashinuvi.

inter-	meso- (mes-), dia- (di-)	oraliq, ora, o'rta	inter-muscularis meso-derma dia-physis di-encephalon	mushaklararo o'rta pushtyaprog'i uzun naysimon suyaklarning o'rta qismi oraliq miya
--------	--------------------------------	-----------------------	---	---

NB!

meso-prefiksi qorinichia'zosini anglatuvchini negizga qo'shib, ushbu a'zoning tutqichini hosil qiladi: *meso-colon* –chambarichak tutqichi; *meso-gastrium* - me'da tutqichi.

dia- prefiksining o'zga ma'nosi quyidagi jadvallarda berilgan.

circum-	peri-, para- (par-)	atrof, old	circum-analis peri-arterialis peri-cranium gl. par-otis para-metrium	orqa peshov atrofi arteriya atrofi kalla suyak usti pardasi quloq oldi bezi bachadon atrofi kletchatkasi
---------	------------------------	------------	--	---

NB!

peri- prefiksi a'zo nomi bilan birga ushbu a'zoni qoplab turgan tashqi qobiq, g'ilof, to'qima, qorin pardani bildiradi: *peri-metrium* - bachadon seroz (qorin pardaga oid) pardasi; *peri-osteum* - suyak usti pardasi; *peri-bronchitis* - bronxni o'rab turuvchi to'qima yallig'lanishi; *peri-nephritis* - buyrak fibroz g'ilofining yallig'lanishi.

para-prefiksi ichki a'zo nomi bilan birga ushbu a'zoni atrofidagi kletchatka (siyrak tolali biriktiruvchi to'qima) ni anglatadi: *para-nephritis* - buyrak atrofi kletchatkasi yallig'lanishi.

para-prefiksi "normadan og'ish", "berilgan so'z yasovchi negizdan farqlanuvchi" ikkilamchi ma'nolariga ham ega: *par-acusis* - eshitish taassurotlarini noto'g'ri yoki o'zgargan idrok qilish; *para-struma* - qalqon oldi bezlarining bo'qoqni eslatuvchi gipertrofiyasi.

trans-		orqali; ma'lum chegarada harakatlanish	trans-thoracalis trans-plantatio	ko'krak qafasi orqali ko'chirib o'tkazish
per-	dia-	orqali;	per-foratus	teshilgan

		harakat ma'nosining kuchayishi	per-tubatio per-sistens per-tussis dia-rrheo (dia+rrheo)	bachadon naylarini shishirish qolishining davom etishi ko'kyo'tal ich ketishi
retro-		orqa, ort	retro-nasalis retro-sternalis retro-versio retro-gnathia retro-bulbaris	burun orti to'sh orti orqaga burilish, og'ish yuqori jag'ning ortga siljishi ko'z olmasi orti
re-		qaytalanish, takrorlanish; javoban, qarshi harakat	re-spiratio re-currens re-animatio re-fluxus	nafas olish qaytalanuvchi jonlanish teskari oqim
con- (com-, cor-, col-, co-)	syn- (sym-, sy-)	birgalikda; aloqa, bog'lanish, bilan, birikish	con-junctiva m. con-strictor com-missura m. com-pressor con-tractio cor-rectio syn-apsis sym-biosis sy-stole	ko'zning biriktiruvchi to'qimali pardasi toraytiruvchi mushak bitishma toraytiruvchi mushak qisqarish tog'rilanish ikki neyron hamda asab va

				mushak birlashish joyi birga yashash sistola
contra-	anti- (ant-)	qarama- qarshi, qarshi, holat, harakat	contra-lateralis anti-tragus ant-acidum	qarama-qarshi tomonda joylashgan quloq yumshog‘iga qarshi kislota qarshi
	ana-	pastdan yuqoriga ko‘tariluvchi harakat; harakat tiklanishi	ana-crota ana-biosis (ana+bioo) ana-mnesis	(yun. krote - zarba) puls to‘lqini ko‘tariluvchi qismi hayot jarayonlarining vaqtinchalik sekinlashishiyoki to‘xtashi anamnez

ana- prefiksi “so‘z yasovchi negiz ifodalagan man’oga qarama-qarshi harakat, holat” ma’nosiga ham ega: *ana-toxinum* - zahrini yo‘qotgan toksin.

	cata-	yuqoridan pastga tushuvchi harakat; harakat ma’nosining	cata-crota cata-mnesis	puls to‘lqini tushuvchi qismi (yun. katamnemoneuo - eslamog‘) katamnez
--	-------	--	-------------------------------	---

		kuchayishi		
in- (im-, il-, ir-)	en- (em-)	Ichida	in-cretorius im-pressio en-tropion en-cephalon em-bolia	ichki sekretsiyaga oid botiq qovoqning ichkariga buralib qolishi bosh miya (yun. ballo - tashlamoq) emboliya
ex- (ef-, e-)	ec-, ex-	Ichidan	ex-cretorius ef-ferens e-missarium ec-topia ex-ostosis	tashqi sekretsiyaga oid olib ketuvchi bitiruvchi (olib chiquvchi kanal) (yun. topos - joy) a'zoning tug'ma siljishi (yun. osteon - suyak)suyakda o'siq
in- (im-, il-, ir-)	a-(an-)	so'z yasovchi negiz belgisini inkor etilishiyoki yo'qligi	in-sufficiencia in-nocens im-potentia im-munitas ir-regularis a-pathia an-algesia	yetishmovchilik ziyonsiz quvvatsizlik (asl. majburiyatdan ozodlik) immunitet nomuntazam

				hissiy befarqlik og'riqsizlantirish , og'riqli qo'zg'alishlarni sezmaslik
	dys-	buzilish, qiynalish; faoliyatning buzilishi; normadan sifat yoki miqdoriy og'ishi	dys-tonia dys-uria	tonusning buzilishi bovul buzilishi
	eu-	normal faoliyat; to'g'ri; yaxshi holatda	eu-rythmia eu-pnoë	to'g'ri ritm normal nafas
dis- (dif-, di-)	dia-	bo'linish, ajralish, ayrilish	dis-seminatio di-vergentia dif-fusus dia-lysis dia-gnosis	tarqalish ayrilish yoyilish taqsimlanish tashxislash
de- (des-), se-		ajratish, yo'qotish	de-pilatio des-infectio de-generatio de-ferens se-paratio se-cretio	soch yulish zararsizlantirish tubanlashish olib boruvchi bo'lish ajratish

de-prefiksi pastga harakatni ham bildirishi mumkin: *m. de-pressor* - tushiruvchi mushak.

Prefiks-suffiksli yasama so'zlar

O'zakka/negizga prefiks va suffiksning bir vaqtda qo'shilishi oqibatida hosil bo'lgan so'zlar *prefiks-suffiksli yasama so'zlar* deyiladi. Shu tariqa qadimgi yunon terminshunosligida *hypo-gastr-ium* (yun. hypogastrion) - qorin quyi sohasi, *mes-enter-ium* (yun. mesenterion) - tutqich terminlari hosil bo'lgan. Natijada shunday qolip asosida *mesogastrium*, *epigastrium* terminlari va barcha tutqich nomlari (mesometrium, mesovarium va h.). Dastlab *epithelium* ko'krak so'rg'ichi ustidagi yupqa terini anglatgan (yun. thele - so'rg'ich), keyinchalik bu terminning ma'nosi kengaygan va shu qolip asosida *mesothelium*, *endothelium* terminlari yaratilgan.

Mashqlar

I. Berilgan terminlarning ma'nosini tushuntiring:

A. infraorbitalis, supraclavicularis, infratrochlearis, supratrochlearis, interclavicularis, interosseus, intralobularis, intramuscularis, parasternalis, episternalis, suprasternalis, subcorticalis, subduralis, epitympanicus, endocervicalis, applicatio (*lot.* applico - qo'yimoq), antenatalis (*lot.* natus - tug'ilish), postnatalis, intertarsea, intranatalis, mesoduodenum, interalveolaris, subcutaneus, extrapulmonalis, extrapyramidalis, extramuralis (*lot.* murus - devor), paravesicalis, submandibularis, retrobuccalis, premolares, subpleuralis, connectivus (*lot.*necto - to'qimoq, biriktirmoq), adducens (*lot.*duco - olib bormoq), abducens, abductio, praeglaucoma, praecancerosus.

B. aggravatio (*lot.* gravis - og'ir) - og'irlashish (kasallikning); exhumatio (*lot.* humus - yer) - mayyitni kavlab chiqarish; adaptatio (*lot.* aptus - layoqatli, qulay), readaptatio; decompensatio; desactivatio; synphalangia; adsorptio (*lot.* sorbeo - singdirmoq, shimmoq); reabilitatio (*lot.* habilitas - qobiliyat, yaroqlilik); praemorbidus (*lot.* morbus - kasallik); exenteratio seu eventratio - ichki a'zolarning chiqib qolishi; exarticulatio - oxirni bo'g'imdan ajratish; extirpatio (*lot.* sirps - poyaning ildizli ostki qismi) - ildizi bilan yulib olish, a'zoni to'liq olib tashlash; dementia (*lot.* mens, mentis - fikr, aql) - aqli zaiflik; diastole - yurak bo'shliqlarining bir maromda kengayishi; systole - yurakning bir maromda qisqarishi; diathermia (yun. thermos - issiqlik) - chuqur yotgan to'qimalarning qizishi; invasio (*lot.* vado -


yo‘l olmoq, intilmoq); dilatatio (*lot.* dilato - kengaytirmoq); disseminatio (*lot.* semino - sochmoq); differentialis - farqlovchi; endemia (*yun.* demos - muzofot, davlat, xalq) - ma‘lum bir kasallik bilan kasallangan odamlar guruhining doimiy mavjudligi.

C. empema (*yun.* pyon - yiring) - tabiiy bo‘shliqda yiring to‘planishi; praesenilis (*lot.* senex, senis - qari, keksa); praevenitivus - saqlaydigan; prodromalis (*yun.* prodromos - oldinda yuguruvchi) - darak beradigan; progrediens (*lot.* gradior - olg‘a qadam bosmoq) - kuchayuvchi; prolongatus - uzaytirilgan; pronephros - buyrak oldi; metanephros - ikkilamchi buyrak, to‘liq buyrak; sequestratio - jonsizlangan sohaning ko‘chishi; secretum (*lot.* secerno - ajratish); metaplasia (*yun.* plasis - shakllanish, hosil bo‘lish) - bir turdagi to‘qimaning boshqasiga turg‘un aylanishi.

D. metathalamus, hypothalamus, epithalamus, epitympanum, epiphysis (*yun.* phyto - o‘smoq), diaphysis, metaphysis, apophysis, decapitatio (doyalikda - homilani yo‘qotuvchi opertiya), decompressio (*lot.* compressio - qisilish), eutopia (*yun.* topos - joy), dystopia, revaccinatio, reinfectio, regeneratio, degeneratio, antagonismus (*yun.* agon - kurash), invalidus (*lot.* validus - kuchli), conjunctiva, collectivus.

II. Sifatlarni lotin tiliga tarjima qiling:

pastki jag‘ osti, ensa osti, til osti (asabi), til osti (yo‘li), bo‘g‘imlararo, qovurg‘alararo, mushaklararo, to‘sh orti, lunj orti, qorin pardadan tashqari, mushak ichi, qirg‘oq usti, to‘sh usti (ikki turli prefiks bilan), to‘sh osti, chakka osti, umurtqalararo, qorin parda orti, halqum orti, g‘ilof ichi, buyrak usti, ko‘krak ichi.



2-1.Rasm.bosh va boyin.

Stomatologiyaga oid mashqlar:

III. Terminlardagi pristavkalarni ajrating. Ularning ma'nosini izohlab bering:

1. analgesia - og'riq xissini yo'qotish, analgeziya;
2. conjunctiva - ko'zning biriktiruvchi pardasi, konyuktiva;
3. exoglossia - tilning kattalashishi, uning og'iz bo'shlig'idan tashqariga chiqib qolishi, egzoglossiya;
4. endoscopia - tananing bo'shliqlari va kanallarini ko'z orqali o'rganish usullari, endoskopiya;
5. epiglottis - nadgortanik;
6. entropion - qovoqning ichkariga o'girilib qolishi;
7. immunitas - yuqumlikka chiqamlilik, kasalliklar, immunitet;
8. metathalamus - miyaning ko'rish do'mbog'ining orqasida;
9. parotis (ot- -uxo) - quloq oldi bezi;
10. prognathia - yuqori jag'ning oldinga siljishi, prognatiya;
11. parodontosis - paradont kasalligi (parodontium – parodont – tishning ildizi sohasidagi anatomic o'zgarishlar yig'indisi) parodontoz.

12. periodontium - tishning suyak usti pardasi – biriktiruvchi to'qima. tish devori va tish ildizi orasidagi bo'shlig'ini to'ldiruvchi periodont;
13. retronasalis - burunning orqa qismi;
14. retrognathia - yuqori jag'ning orqaga siljishi, retrognatiya;
15. respiratio - nafas olishi, respirasiya ;
16. recurrens - oqaga qaytuvchi, rekurrentniy;
17. secretio - ajratish, sekretiya;
18. anabiosis - (gr. anabiosis -tirilmoq) – tirik organizmning vaqtinchalik holati, unda tirik organizmdagi moddalar almashinuvi deyarli toxtaydi, va hayot faoliyati ko'rinishi umuman yoqoladi, anabioz.

IV. Terminlarni to'ldiring:

1. Sezgining yoqolishi, reaktivlik yoqolishi:
...ergia
2. Xid bilishning yoqolishiyoki buzulishi:
...osmia
3. Yutishning qiyinlashishi:
...phagia
4. Qiyshayish (uzoqlashishi), misol uchun tish ildizi:
...viatio
5. Yuqori jag'ning orqaga siljishi
...gnathia
6. Pastki jag'ning oldinga siljishi:
...genia
7. Tiklanishi (misol uchun tishning ildizi):
...plantatio
8. Ajralishning kamayishi (so'lak):
...secretio
9. Yuqori umumlashgan tishlar:

...odontia

10. Sezgining kamayishi

Nazorat savollari:

1. Qaysi lotin va yunon prefikslar "orqali" biror narsa orasida bo'lish ma'nosini bildiradi?
2. Qaysi prefikslar funksiya buzilishi, ma'nosini bildiradi?
3. O'zbek tilidagi "qarshi" prefiksi lotin va yunon tilidagi qaysi prefikslarga mos keladi?
4. Endoderma, mesoderma, ektoderma so'zlaridan qaysi biri terining ichki qavati hisoblanadi?
- 5.

Qui quaerit, repērit. – Qidirgan topadi.

Homo est mundi pars. – Inson - dunyoning bir qismi.

§16. Muakkab so'zlar. Murakkab yasama so'zlar. Yunon-lotin dubletlari va yakka

TE. Klinik terminlar tuzilishi haqida umumiy tushuncha.

Maqsad: Murakkab so'zlar yasash qoidalarini; dublet va yakka TE minimumini; klinik terminlar o'ziga xos xususiyatlarini *bilib olish*. Murakkab so'zlarning rasmiy va sarmazmun (semantik) tomonlarini tahlil qilishni; yunon-lotin dubletlarini anatomik yoki klinik terminshunoslikga mos ravishda farqlab *qo'llayolish*.

Murakkab so'zlar

Agar so'z yasovchi negizlar ikki va undan ortiq bo'lsa, yasama so'z *murakkab so'z* hisoblanadi. Murakkab so'zlar ikki usulda hosil qilinadi: toza qo'shish yoki suffiksatsiya bilan birga qo'shish. Toza qo'shishda so'nggi, *tayanch qism* mustaqil so'z holida ifodalanadi. Ushbu qism so'zni grammatik jihatdan shakllantirib, ma'lum bir so'z turkumiga mansubligini belgilaganligi uchun *tayanch qism* deyiladi, mas., glossopharyngeus: birinchi komponent *glosso-* + ikkinchi, *taynach*, komponent *pharyngeus* (I guruh sifati); *rhinencephalon*: birinchirhin- + ikkinchi, *taynach*, *encephalon* (II turlanishdagi ot).

A'zo, tana qismlarin va yuz jag'ni ifodalovchiyunon-lotin dubletlari

Yunon TE	Lotin so'zlari	Ma'nosi
acro-, -acria (akron)	membrum, i <i>n</i>	tana qismining distal bo'limi, mucha; qol-oyoq uchli
arthro- (arthron)	articulatio, onis <i>f</i>	bo'g'im
cardio-, -cardium (kardia)	cor, cordis <i>n</i> ostium cardiacum (PNA)	yurak yurak, kardial teshik
cheilo-, -cheilia (cheilos)	labium, i <i>n</i>	lab
cheiro-, chiro-, -cheiria, -chiria (cheir)	manus, us <i>f</i>	qo'l
-genia (geneion)	mentum, i <i>n</i>	engak
-genia (genys, genyos)	mandibula, ae <i>f</i>	pastki jag'
glosso-, -glossia	lingua, ae <i>f</i>	til
gnatho-, -gnathia	maxilla, ae <i>f</i>	jag', yuqori jag'
gon- (gony)	genu, us <i>n</i>	tizza
kephalo-, cephalo-, -cephalia (kephale)	caput, itis <i>n</i>	bosh
melo- (melon)	bucca, ae <i>f</i>	lunj
odonto-, -odontia (odus, odontos)	dens, dentis <i>m</i>	tish
osteo- (osteon)	os, ossis <i>n</i>	suyak
podo-, -podia (pus, podos)	pes, pedis <i>m</i>	oyoq
r(h)achi- (rhachis)	columna vertebralis	umurtqa pog'onasi
rhino- (rhis, rhinos)	nasus, i <i>m</i>	burun
somato-, -soma (soma, somatos)	corpus, oris <i>n</i>	tana
spondylo- (spondylos)	vertebra, ae <i>f</i>	umurtqa

stetho- (stethos)	pectus, oris <i>n</i> thorax, acis <i>m</i>	ko'krak ko'krak qafasi
stomato- (stoma, stomatos)	os, oris <i>n</i>	og'iz
ul-, ulo- (ulon)	gingiva, ae <i>f</i>	milk
urano- (uranos)	palatum, i <i>n</i> (durum)	tanglay (qattiq)

Tish va atrofidagi to'qimalarning anatomiyasi va gistalogiyasi

Dens, dentes	tooth [tooth]	tish, tishlar
Dens incisivus, dentes incisivi	incisor [in'sīzər]	kurak tish, kurak tishlar
Dens caninus, dentes canini	-canine 'keɪ,nam	qoziq tish, qoziq tishlar
Dentes praemalaris	premalar ,premal'ar	kichik jag' tish
Dentes praemalares	small molars 'smol mal'ars	kichik jag' tishlar
Dens molaris	painter 'peɪntər	katta jag' tish
Dentes molars	-painter 'peɪntər	katta jag' tishlar
Dens serotinus, densa sapientiae	wisdom tooth 'wɪzdəm 'tu:θ	aql tish
Dentes serotini, dentes supientiae	wisdom tooth 'wɪzdəm 'tu:θ	aql tishlar
Dens lacteus, dentis lactei seu deciduus, seu decidui	milk/dairy tooth	sut tish, sut tishlar, vaqtinchalik tishlar
Dens permanens	permanent tooth	doimiy tish
Dentes permanentes	permanent tooth	doimiy tishlar
Enamelum	enamel ə'næməl	emal
Dentinum	-dentine 'dɛntɪn	dentin
Caementum (cementum)	- cement sə'ment	sement
Canaliculi dentales	-dentine 'dɛntɪn	dentin kanalchalari

Dentinum externumdentin	gabardine 'gæbər,din dentine 'dentin	Yopqich(tashqi)
Dentinum internum	dentine 'dentin	pulpa yoni dentini
Fibrae Thomseni	fibre ['faɪbə] Toms	Toms tolalari
Fibrae Ebneri	fibre ['faɪbə] Ebne	Ebner tolalari
Fibrae Korfi	fibre ['faɪbə] Korf	Korf tolalari
Conona dentis	crown of a tooth 'kraʊn	tish koronkasi
Collum dentis	cervix of the tooth 'sɜːvɪks	tish bo'yni
Collum dentis anatomicum	anatomical [,ænə'tɒmɪk[	anatomik
Collum dentis clinicum	clinical 'kəlɪnəkəl	klirik
Radix dentis	roots 'ru:ts tooth 'tu:θ	tish ildizi
Facies dentis	surface 'sɜːfɪs tooth 'tu:θ	tish yuzasi
Contactus	contact 'kɑː n, tækt	tishning tutashuvchi yuzasi
Masticatoria	chewing ['tʃuː ɪŋ]	chaynov yuzasi
medialis	medial [medial]	o'rta (medial) yuzasi
Lateralis	-lateral [lateral]	yon
Distalis	distal [distal]	orqa
Anterior	anterior [æn'tɪəriə]	oldingi yuzasi
Posterior	posterior [posterierie]	orqa yuzasi
Vestibularis	vestibular [vestibulier]	vestibulyar yuzasi
Palatine	palatine [palatine]	tanglay yuzasi
Lingualis	lingual [lingual]	til yuzasi
Margo incisalis	cutting [cAting]	kesuvchi yuzasi
Occulusiva	occlusive [okluʒi:v]	jipslashish yuzasi
Tuberculum	hillocks [hiloks]	tish do'mboqchalari
Canalis radialis dentis	root canal tooth [rut	tish kanali

	ckenael tu:0]	
Cavum dentis	tooth cavity [tu:0kaeviti]	tish bo'shlig'i
Apex radialis dentis	apex [eipek]	tish ildizi uchi
Macrocanalis, microcanalis	canal [kenael]	makrokanal mikrokanal
radialis dentis	enamel peel [i'neimlpi:l]	emal kutikulasi
Cuticula adamantina	enamel prisms [i'neimlprizms]	emal prizmalari
Prismata adamantina	interglobular space[spies]	interglobulyar bo'shliq
Spatia intenglobularia	dental pulp [dental pAlp]	tish pulpasi
Pulpa dentis	coronal pulp [koronlpAlp]	koronka pulpasi
Pulpa coronalis	root pulp [ru:tpAlp]	ildiz pulpasi
Pulpa radialis Retinaculum ligamentum	connected pulp [konectidpAlp]	tish boylami
Fibrae dentogingivales	periodontal beams [periodontal bi:mz]	tish milki tutamlari
Fibrae dentoalveolares	dentoalveolar beams [dentoalveolarbi:mz]	tish alveolyar tutamlari
Fibrae interdentalis	interdental beams [interdental bi:mz]	tishlararo tutamlar
Fibrae dentoalveolares	slanting dentoalveolar beams[slAnting]	og'ma tish
Fibrae apicales	apical beams [Apiklbi:mz]	ildiz uchi tutamlari
Alveolus	alveoli tooth [alveolai tu:0]	alveola (tish uyachasi)
Lamina compacta (solida)	compact disc [compekt disk]	kompakt plastinka(zich)
Substantia spongiosa	sponge [spAd3]	g'ovaksimon

		moddalar
Periosteum	periosteum [periosteum]	suyak pardasi
Gingiva	gum [gAm]	milk
Processus alveolaris	alveolar bone [alveolar bo:n]	alveolar o'simta
Maxilla	maxilla [maksila]	yuqori jag'
Mandibula	mandibulla [mandibul]	pastki jag'
Corpus	jaw [jo:]	jag' tanasi
Corpus maxillae	maxilla [maksila]	yuqori jag' tanasi
Corpus mandibulae	mandibulla [mandibul]	pastki jag' tanasi
Parodontium	periodontal [periodontl]	paradont
Periodontium	periosteum tooth root	tish ildizining suyak pardasi

***Ta'limot, fan, tashxislash usullari, davolash, dard va kasalliklarni
ifodalovchiyunon TE***

Yunon TE	Ma'nosi
alg-, -algia, -algesia (algos - og'riq; algesis - og'riq hissi) -odynia (odyne - og'riq)	og'riq
-gramma (gramma - yozma, tasvir)	rentgen surati; tasvir, ro'yxatga olish natijasi
-graphia (grapho-chizmoq, yozmoq, tasvirlamoq)	rentgenografiya; yozib olish, tasvirlash jarayoni; signallarni yozma ro'yxatga olish
-logia (logos - so'z, nutq, tushuncha, ta'limot, fan)	fan, ilmiy fan bo'limi
-logo- (qarang-logia)	nutq buzilishiga oid

-metria, -metr- (metreo - o'lchamoq, metron - o'lchov)	o'lchash, o'lchovchi, aniqlovchi (o'lchami, kattaligi bo'yicha)
noso- (nosos - kasallik)	kasallik
patho-, -pathia (pathos - sezgi, tashvish; dard, kasallik)	dard, kasallik, kayfiyat
-scopia (skopeco - ko'rmoq, kuzatmoq, tekshirmoq)	asbobli ko'rik, kuzatish, tekshirish
-therapia (therapeia - parvarishlash, davolash)	davolash (jarrohliksiz)

Mashqlar

I. Ot negizlaridan yallig'lanishni ifodalovchi terminlar hosil qiling:

gaster, ventriculus, larynx, appendix, pharynx.

II. Berilgan negizlardan o'smalarni ifodalovchi terminlar hosil qiling:

neur-, lip-, angi-, oste-.

III. Terminlarni TE ga qarab tahlil qiling:

A. osteologia, osteoarthropathia, somatologia, somatoscopia, acroalgia, spondylodynia, arthropathia, stomatologia, pathologia, stethometria, cardiographia, hormonotherapia, vasoconstrictio, nosologia, brachialgia, logopathia, spondylographia, rhinologia, periosteum, osteogenus, hepatogenus, glossalgia, odontalgia, pancreatodynia, ileocecalis, ileocolicus, iliofemoralis, lymphonodus, thyreopathicus, thyroglossus, ischiococcygeus, thyreogenus.

B. podalgia, acheiria, chiroscopia, gonalgia, apodia, chirospasmus, macropodia, brachiocephalicus.

C. cheilodynia, ulodynia, gnathodynia, genioglossus, geniohyoideus, meloplastica, gnathoplastica.

IV. So'zlarning ma'nosiga izoh bering:

A. somatik, analgeziyalovchi, akropatiya, artrografiya, enteroskop, enterologiya, ezofagodiniya, rinogen, patogen, rinofaringoskopiya, somatogen, somatometriya, osteoartropatiya, gepatologiya, stetoskop, analgin, kardial, kardiovaskular, glossodiniya, enteropatiya, rinoskop.

B. xeyroskop (*tib. texnika*), gonodiniya, gonartrotomiya, raxiotom.

C. mikrognatiya yoki mikrogeniya; gnatopatiya, gnatospazm.

V. Berilgan ma'noda terminlar hosil qiling:

umurtqada og'riq, yurak xastaligi bilan boq'liq, jigar zaralanishi bilan ifodalanuvchi, tishni davolash, ko'krak qafasida og'riq, boshni o'lchash, og'izni ko'rish, burun (devorlari) ni ko'rish, bosh miya rentgen tekshiruvi, qol- oyoq kasalligi, tishlar kasalligi, bosh miya kasalligi, tish og'rig'i, burun kasalligi, bo'g'im kasalligi, yurak kasalligi.

VI. Berilgan so'zlarni yunon-lotin dubletlaridan foydalangan holda ko'chiring:

ensefalometriya, kraniometriya, kardiogramma, bronxoezofagoskop, radiogepatografiya, pat(o)anatomik, pankreatalgiya, gelioterapiya (*yun. helios* - quyosh), peritoneoskopiya, pelvigrafiya, pelviskopiya, vazodilatatsiya, kefalogramma, kefalograf, kefalografiya, logoterapiya, elektroterapiya, somatoretseptor, nozografiya, glossospazm, kardiospazm (*ostium cardiacum*), duodenografiya, reogepatografiya, rektoskop, somatizatsiya, akropigmentatsiya, patogen, patologiya.

Stomatologiyaga oid mashqlar:

To'g'ri joylashnbring:

Lotin termini

Yunon termini

1~ mandibula,ae f

a~ odonto- -odontia

2~ dens, dentis, m

b~ ortho-

3~maxilla, ae f

v~ gnatho- -gnathia

4-lingua-

g~ genio-

5-palatum,i.n

d~ melo-

6.gingiva ,ae ,f

e-ulo-, -ulia

7.os.oris,n


f-glosso--glossia

8.bucca,ae,f

j-stomato-stoma

V. Quyidagi terminlar bilan **og'riqni,kasallikni davolashni** bildiruvchi terminlar tuzing.

infraorbital
bukkal
mandibulyar
mental
lingval
palatinal
paravertebral
presakral
spinal
endonevral
perinevral
retrobulbar (bulbusoculi)
epibulbar



2.2-rasm Stomatologik kasalliklar



Nazorat savollari:

- 1.Y unon dubletlari deganda nimani tushunasiz?
- 2.AElarni qanday ma'nosini tushuntirish kerak ?
3. Diagnostik usullarni ayting
- 4 O'griqni ifodalovchi AEni ayting?

Qui quaerit, repērit. – Qidirgan topadi.

Homo est mundi pars. – Inson - dunyoning bir qismi.

§17. Soʻz yasalihi (davomi). Klinik terminshunoslikda -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma suffikslari. Qisqartma soʻzlar. Yunon-lotin dubletlari va yakka TE(davomi).

Maqsad: -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma suffikslari terminologik ma'nolarini; yangi yunon-lotin dublet va yakka AEbilib olish. Berilgan ma'noda suffiksli, qo'shma va qisqartma so'zlarni tahlil va hosilqilaolish.

Klinik terminshunoslikda -osis, -iasis, -ismus, -itis, -oma suffikslari

1. -osis, -iasis suffikslari. Ushbu suffikslarni tutgan otlar, odatda, fe'l yoki otning soʻz yasovchi negizlaridan hosil boʻladi. Yasama soʻzlar “berilgan negiz jarayoni yoki natijasi” soʻz yasovchi ma'nosiga ega, mas. *stenosis* - stenoz, torayma; *sclerosis* - skleroz, zichlanish, qattiqlashish; *narcosis* - narkoz, qotib qolish, uxlatish; *lithiasis* - litiaz, tosh hosil boʻlishi; *helminthiasis* yoki *helminthosis* - gelmintiaz yoki gelmintoz, gijja kasalligi; *psoriasis* - psoriaz, teri kasalligi; *amoebiasis* - amebiaz; mitosis (yun. mitos - ip) - mitoz; phagocytosis (phagos+cytus) - fagositoz.

-osis suffiksli soʻz yasovchi negizlarning asosiy qismi quyidagi ma'nolarga ega:

- a) kasallik bilan zararlangan to'qima, a'zo, tana qismi, organizm tizimi: *fibrosis* - fibroz buzilish; *nephrosis* - nefroz, buyrak kanalchalarining degenerativ kasalligi; *neurosis* - nevroz, asab tizimi faoliyati kasalligi; *psychosis* - psixoz, ruhiy buzilish;
- b) kasallik chaqiruvchi modda: *toxicosis* (yun. toxicon - zahar) - toksikoz, zaharli moddalar tomonidan chaqirilgan kasallik; *siderosis* (yun. sideros - temir) - sideroz,

to‘qimalarda temir tuzlarining to‘planishi; *amyloidosis* - amiloidoz, to‘qimalarda amiloid cho‘kishi;

c) kasallik qo‘zg‘atuvchisi: *ascaridosis* - askaridoz, askarida chaqiruvchi gijja kasalligi; *actinomycosis* - aktinomikoz, nursimon zamburug‘ chaqirgan surunkali yuqumli kasallik;

d) ko‘payish va tarqalish: *leucocytosis* - leykositoz, periferik qonda leykositlar sonining oshishi; *fibromatosis* - fibromatoz, ko‘plab fibromalar mavjudligi.

2. -ismus suffiksi. Ushbu suffikslarni tutgan otlar turli ma’nolarni bildiradi, xususan, “berilgan negiz belgisiga xos hodisa, xususiyat, dalil”, mas. *infantilismus* (*lot.* *infantis* - bolalarga xos) - bolalikka yoki o‘smirlikka xos hislatlarni saqlagan holda jismoniy va/yoki ruhiy rivojlanishning to‘xtashi; *strabismus* (*yun.* *strabismos*) - g‘ilaylik; *alcoholismus* (*ar.* *al-kuhl* - surma) - alkogolizm; *virilismus* (*lot.* *virilis* - erkakka xos) - ayol kishida erkaklik hislatlarining yuzaga kelish sindromlari guruhi; *daltonismus* (ingliz kimyogari va fizigi Dalton sharafiga) - qizil va yashil ranglarni ajrata olmaslik.

| 4. homodontia | 4. og'iz bo'shlig'ini o'rganuvchi o'rganuvchi bo'lim |
- tish-jag';
-
- | | |
|------------------------------|---|
| 5. homeostasis | 5. Pastki jag'ning rivojlanmasligi; |
| 6. allognathia | 6. Tilning bir qismidagi mushaklarni yallig'lanishi |
| 7. hemiglossitis | 7. Notekis ranglanish (ko'zning kamalak pardasi); |
| 8. orthognathia | 8. Anomal prikus; |
| 9. orthogenia | 9. Ichki muhitning dinamik bir xilligi ; |
| 10. microgenia (brachygenia) | 10. Normal (to'g'ri) prikus; |

6. So'zlardan foydalanib termin hosil qiling. Ularni lotin va o'zbek tilida yozing:

1. havo yutish
2. barcha arteriyalarni yallig'lanishi
3. lab qurishi
4. qonda kislorod miqdorining kamayishi
5. pastki jag'ning kichik o'lchami
6. yuqori jag'ning kichik o'lchami

7. normal prikus
8. tishlarning kichikligi
9. bir taraflama paralich, yarimparalich
10. so'lak ajralishiyetishmovchiligi
11. tilning tug'ma kattalashuvi
12. uning tabiiy to'qimasini ko'chirib o'tkazish (operiruemomu)
13. orqa miya kulrang moddasini yallig'lanishi
14. (ko'pchilik) nervlarning yallig'lanishi
15. qayta tiklanish

3. Quyidagi sezgi yo'qligini bildiruvchi terminlarni tarjima qiling anesteziya:

Infraorbital

Bukkal

Mandibulyar

Mental

Lingval

Palatinal

Paravertebral

Peresakral

Spinal

Endonevral

Perinevral

Retrobulyar (bulbusoculi)

Epibulyar

Epidural

4. Berilgan terminlarni struktur-semantik analiz qiling:

1) haematomeliapolyomyositis

polyotia

glycolysis

anhidrosislymphopenia

hypaesthesia	lymphorrhoea
ageusiahyperosmia	
autopyotherapia	hyperkinesia
erythrocytosteendoscopia	
erythrophobiathyreoprivus	
bradypnoyopanmelosis	
tachypnoyopanencephalitis	
osteoarthritis	heterochromia
lymphadenitis	melanoma
lymphangiitisxanthoma	
lymphangiomaxanthochromia	
lymphadenographiachloroma	
lymphadenosispanphlegmone	

2)

Osteodontindakrioreya	
Os0teodislaziyagnatoplastika	
osteodistrofiyagnatosxis	
osteolizdakrisistostenoz	
osteomasialadenit	
osteomielit	sialogenniy
dakriosistomiyasialografiya	
rinopatiyasialolitiaz	
rinoreyasialolitotomiya	
rinorragiyasialoreya	
rinoplastika	gingivoosteoplastika
kserostomiya	autokranioplastika
perixondrit	ortoped
periodontit	logoped
parotit	ortodontiya

glossoptozpoliodontiya

onkostomatologiya

gomotontli

5. Berilgan so'zlardan termin hosil qiling*:

1. bezni olib tashlash
2. limfa tugunning yallig'lanishi
3. tishlarning tug'ma bo'lmasligi
4. labning yorilishi
5. bezni asbob yordamida tekshirish
6. tug'ma organlarning yo'qligi
7. anomal prikus
8. reaktivlik yo'qligi

* mashq kalitlar asosida bo'ladi

9. yuta olmaslik
10. bo'g'implardagi og'riq
11. lab nuqsonlarini plastik operatsiyasi
12. lab tikilishi
13. sut tishlarning yashilsimon rangli bo'lishi
14. tog'ay usti pardasining yallig'lanishi
15. yuqori jag' va tanglayni qo'shilib ketmasligi
16. bosh og'rig'i
17. yutishning buzilishi
18. oziqlanishning buzilishi (to'qimalarda)
19. tish-jag' tizimini to'g'ri shakllanganligi
20. tezgining kuchayishi
21. milkni olib tashlash
22. tilni asbob yordamida tekshirish
23. yaxshi sifatli o'simta, qon tomirlardan keladigan

24. yarimparalich (muskulning bir tomonlama paralichi)
25. qon ketishini toxtatish
26. to'qimaning buzilishi
27. suv yordamida davolash
28. ter ajralishining kuchayishi
29. nutqning buzilishi
30. kasallikning kelib chiqishi va rivojlanishi
31. suyak usti pardasini yallig'lanishi
32. so'lak bezlarini yallig'lanishi
33. so'lak yo'llarida tosh yig'ilishi
34. og'iz bo'shlig'idagi og'riq
35. tug'ma tanglay yorig'larini jarrohlik yo'li bilan tiklash

6. Berilgan termin-so'zlarni lotin tiliga tarjima qiling. Ularning ma'nosini izohlab bering*:

1. Paradontal gipesteziya 2. Pulpaning giperemiyasi 3. Paradontal giperesteziya 4. Gipertrofik gingivit 5. Tish displaziya 6. O'tkir limfadenit 7. O'tkirosteomiyelit 8. Distrofik parodontoz 9. Lab gematoma 10. Pastki jag'ning xavfli o'simtasi 11. Markaziy anosmiya 12. Tam bilishning gipergevziyasi yoki giperesteziyasi (tam bilish – gustatorius, um)

7. Terminlarni o'zbek tiliga tarjima qiling va ma'nosini tushuntirib bering*:

1. stuporpsychogenus
2. xanthochromiacongestivaliquoriscerebrospinali
3. leptomeningitisserosaacuta
4. gingivitishypertrophica
5. poliometitisacuta
6. sclerosisangiogena
7. parodontopathiatrophica

8. *abscessuspalatiduri*
9. *sanatiocavitoris*
10. *necrosisulpae*
11. *periadenitismucosanecroticarecurr*
12. *parodontosisseupyorrhoeaalveolaris*
13. *replantatiodenti*
14. *paralysisglosso-labio-pharyngea*
15. *adenitissubmandibularis*

8. Lotin tiliga tarjima qiling va shu termini sinonimini analiz qiling “parodontoz”:

Amfodontoz = parodontoz (ampho – oba; oba odnovremenno)

Paradentit

Paodontoklaziya

Periodontoz

Periodontoliz

Polialveoliz

Muddatidan oldin alveola atrofiyasi atrofiya

Tish qattiq to'qimalarining kariesga aloqador bo'lmagan shikastlanishi.

hypoplasia	gipoplaziya/ yetarlichaakillanmaslik/
pathologica	patalogik yedirilish
lacunacuneiformis	ponosimon nukson
erosio	eroziya, yemirilish
necrosis	nekroz, chirish
acidosa	kislotali
alcalina	ishkorli
endogenes	ichki sababli

traumadentis	tish shikasti
mechanicum	mexanik shikastlanish
chemicum	ximiyaviy shikastlanish
physicum	fizikaviy shikastlanish
pigmentatio	pigmentatsiya , ranglanish
pigmentationigrities	korayish, kora pigmentatsiya
indumentum	karash
osteopetrosis	mramor kasalligi
dysplasia	displaziya
amelogenesisimperfecta	yetilmagan amilogenez
dentinogenesisimperfecta	yetilmagan dentinogenez
osteogenesisimperfecta	yetilmagan osteogenez
fracturadentis	tish sinishi

cardi/o/gram	1-57 1.57 misolidan 1.62 misoligacha soʻz yasalihi uch qoidasidan foydala g. a -gram dan soʻz yasang: _____ / _____ / _____ (root) (suffix) misolda qaysi qoidadan foydalanilgan? 2 - qoida: _____ _____
carcin/oma	1-58 Carcin va -oma dan soʻz yasang: _____ / _____ misolda qaysi qoidadan _____ (root) (suffix) 1 ilgan? qoida: _____ _____
enter/o/cyst/o/plasty	1-59 Complete the following frames to reinforce the three rules of building on page 10. 1.38. Enter + cyst + -plasty dan soʻz yasang: _____ / _____ / _____ / _____ / _____ (Use Ushbu misolda qaysi qoidalaridan foydalanilgan? to indicate combining form.) 3 - qoida: _____ _____ 2 - qoida: _____ _____
	1-60 Leuk + cyt + -penia dan soʻz yasang: _____ / _____ / _____ / _____ / _____ misolda qaysi qoidalaridan foydalanilgan? 3 - qoida: _____ _____ 2 - qoida: _____ _____

III BO'LIM

RETSEPTURA BILAN BOG'LIQ LOTIN GRAMMATIKASI ELEMENTLARI. FARMASEVTIK TERMINSHUNOSLIK VA RETSEPT



§20. Farmasevtik terminologiyaga kirish. Dori vositalari nomenklaturasi.

Maqsad: Ba'zi asosiy farmasevtik terminlarni; dori vositalarining nomlarining yasallish usullari va namunali tuzilishini *bilib olish*. Dori-darmon nomlari va qisman, ularning tarkibiy qismlari yozilish xususiyatlarini *bog'lay olish*.

Farmasevtik terminshunoslik

Farmasevtik terminshunoslik «farmatsiya» (yun. *pharmakeia* – dori tayyorlash va qo'llash) nomi ostiga birlashuvchi va dori-darmonlar tarkibini o'rganish, qidirib topish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi qator maxsus fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuada markaziy o'rinni qo'llash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan dorivor moddalar va preparatlar ya'ni dori darmonlar nomenklaturasi egallaydi. Dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar 2 xil nomga ega:

- 1) ilmiy yoki tizimli nom;
- 2) trivial (lot. *trivialis* - odatiy) nom

Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar

1. Kimyoviy tarkib haqida ma'lumot beruvchi tarkibiy qismlar:

Tarkibiy qism	Ma'nosi	Misol
-acet(yl)-	atsetilsalitsil kislota mavjudligi	<u>Acet</u> osal
-aeth(yl)- (yun. aither - efir)	etil, etilen mavjudligi	<u>Aeth</u> acardium
-arsen-	margimush mavjudligi	Myar <u>sen</u> olum
-az(o)-, -(a)zid-, -(a)zin-, -zol- (yun. azotos - hayotsiz)	azot yoki azot guruhi mavjudligi	<u>Az</u> etidin
-benz- (ar. benzoa - xushbo'y shira)	benzol halqa mavjudligi	<u>Benz</u> ohexonium
-bis-	vismut mavjudligi	<u>Bis</u> alum
-cyan-	sianid kislota yoki uning unumlari mavjudligi	<u>Cyan</u> ocobalaminu m

-fer(r)-	temir mavjudligi	<u>Ferram</u> idum
-form- (lot. formica - chumoli)	chumoli kislotasi unumlari mavjudligi	<u>Formal</u> inum
-glyc-	glukoza, shakar mavjudligi	<u>Corglyc</u> onum
-io(d)-	yod mavjudligi	<u>Iodole</u> in
-merc- (lot. Mercurius - Merkuriy, savdo-sotiq homiysi)	simob vositalari mavjudligi	<u>Mercu</u> ropin
-meth(yl)- (yun. methy - asal)	metil, metilen mavjudligi	<u>Methac</u> yclinum
-ox(y)- (yun. oxys - nordon)	kislorod mavjudligi	<u>Oxytetrac</u> yclinum
-phen(yl)- (yun. phaino - yoritmoq)	fenil mavjudligi	<u>Phenobar</u> italum
-phosph- (yun. phosphoros - nur sochuvchi)	fosfor mavjudligi	<u>Phosphem</u> idum
-phthor- (yun. phthoros - buzilish)	ftor mavjudligi	<u>Phthoro</u> cort
-thi(o)- (yun. theion - oltingugurt)	oltingugurt mavjudligi	<u>Thiodip</u> inum
-yl- (yun. hyle - modda; daraxt)	kislota va uglevodorod radikallari mavjudligi	<u>Methyl</u> androstendiol
-zep(am)-	benzodiazepin unumlari mavjudligi	<u>Phenazepan</u> um

2. Dori vositasining terapevtik yo‘nalganligini ko‘rsatuvchi tarkibiy qismlar:

-alg-, -dol-	og‘riq qoldiruvchi, analgetik	<u>Promedol</u> um
-aller(g)-	allergiyaga qarshi	<u>Allergival</u>
-atrax-	Tinchlantiruvchi	<u>Atraxin</u>
-barb-	uyqu chaqiruvchi	<u>Barbamyl</u> um
-chol(e)-, -bil-	o‘t haydovchi	<u>Cholenzim</u> um
-cid- (lot. occidere - o‘ldirmoq)	mikrobga, parazitga qarshi	<u>Streptocid</u> um

-cor-, -card-	yurakka oid, toj tomirlarini kengaytiruvchi	<u>Corvalolum</u>
-c(o)um-, -arol-	qon ivishiga to'sqinlik qiluvchi	<u>Acenocumaro</u> l
-haem(at)-, -aem-	qon yaralishini rag'batlantiruvchi	<u>Haematogenu</u> m
-lax-	bo'shashtiruvchi, surgi	<u>Acetolax</u>
-myc(o)-, -fung-	zamburug'ga qarshi	<u>Amycazolum</u>
-orex-	ishtaha tushiruvchi	<u>Anorex</u>
-peps-	ovqat hazm bo'lishini tartibga soluvchi	<u>Pepsinum</u>
-pres(s)-, -ten-	qon bosimini tushiruvchi, gipotenziv	<u>Apressinum</u>
-phlog- (-flog-)	yallig'lanishga qarshi	<u>Flogicort</u>
-pyr-	harorat tushiruvchi	<u>Antipyrinum</u>
-sed-, -tranqu-, -val-	tinchlantiruvchi, sedativ	<u>Sedonal</u>
-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptik	<u>Enteroseptolu</u> m
-trast-, -gnost-, -graf-	rentgen kontrast, tashxisga oid	<u>Choletrast</u>
-tromb-	tromblar agregatsiyasiga to'sqinlik qiluvchi	<u>Trombolytinu</u> m
-ur-	siydik haydovchi	<u>Diurometan</u>
-vas-, -angi-	qon tomirini kengaytiruvchi, spazmni yo'qotuvchi	<u>Vasodilatol</u>
-verm-, -helm(int)-	gijjaga qarshi	<u>Univerm</u>
-vom(it)-, -emet-	qayt qilishga qarshi	<u>Emetisan</u>

3. Dori vositaning farmakologik guruhini ko'rsatuvchi tarkibiy qismlar:

a) og'riqsizlantiruvchilar:

-aesthes-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik	<u>Anaesthesinu</u>
-----------	---------------------------------	---------------------

		m
-cain-	mahalliy og'riqsizlantiruvchi	<u>Novocainum</u>
-morph- (<i>yun.</i> Morpheus - Morfey, tush ma'budi)	umumiy og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	<u>Morphinum</u>
-narc-	umumiy og'riqsizlantiruvchi (narkotik)	<u>Narcotan</u>

b) antibiotiklar, mikrobg qarshilar:

-ceph- (-cef-, -cep-)	sefalosporinlar guruhi antibiotiklari	<u>Cephaloridinum</u>
-cillin-	penitsillinlar guruhi antibiotiklari	<u>Oxacillin</u>
-cyclin-	tetrasiklin guruhi antibiotiklari	<u>Tetracyclinum</u>
-mycin-, -mycetin-	<i>Streptomyces</i> shtammi zamburug'laridan ishlab chiqariladigan antibiotiklar	<u>Laevomycetinum</u>
-sulfa-	mikrobg qarshi sulfanilamidlar	<u>Norsulfazolum</u>

c) gormonal:

-cort(ic)-	buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari	<u>Hydrocortisonum</u>
-gest-	sariq tana gormonlari	<u>Progesteronum</u>
-insul-	me'da osti bezi gormonlari	<u>Insulincrisesum</u>
-oestr- (<i>yun.</i> oistros - ehtiros)	ayol jinsiy gormonlari vositalari	<u>Dimoestrolum</u>
-stan-, -ster-, -vir-, - andr-, -test-	erkak jinsiy gormonlari vositalari	<u>Tetrasteronum</u>
-parathy-	qalqon oldi bezi vositalari	<u>Parathyreoidinum</u>
-pitu(itr)-	gipofiz orqa bo'lagi vositalari	<u>Pituitrinum</u>
-thyr- (-tyr-, -tir-)	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar	<u>Liothyroninum</u>

d) fermentli:

-as-	Fermentlar	Lydasum
------	------------	---------

e) vitaminli:

-vit-	vitaminlar	Hexavitum
-------	------------	-----------

4. O‘simlik yoki hayvon mahsulotlarini ko‘rsatuvchi tarkibiy qismlar:

-al(li)-	sarimsoq, piyoz	Allisatum
-anth-	gul	Strophanthinum
-api-, -virap-	asalari hayot faoliyati mahsulotlari	Apisatronum
-haemato-	hayvon qoni	Haematogenum
-ichthy- (yun. ichthyos - baliq)	qazilma baliq va boshqa dengiz hayvon qoldiqlari tutgan tog‘ jinslari	Ichthyolum
-papaver-	ko‘knor boshchasi, guli, urug‘i	Papaverinum
-phyll-	barg	Euphyllinum
-phyt-	o‘simlik	Phytinum
-rhiz-	ildiz, ildizpoya	Glycyrrhizin
-theo- (1. yun. theobroma - “ma‘budlar taomi”, kakao; 2. xit. thea - choy)	choy bargi	Theophyllinum
-vipr-	ilon zahri	Vipraxinum

Keng tarqalgan dori shakllari

aërosolum, in	aerozol
applicatio, onis f	applikatsiya (balchiq, parafin qo‘yish muolajasi)
auristilla, ae f	quloq tomchisi
bacillus, i m	tayoqcha
butyrum, i n	sariyog‘

capsula, ae <i>f</i>	kapsula
capsula, ae <i>f</i> amylacea seu oblata	kraxmalli kapsula yoki g'ilofli
capsula, ae <i>f</i> gelatinosa	jelatinali kapsula
charta, ae <i>f</i>	qog'oz
caramelum, i <i>n</i>	karamel
cataplasma, atis <i>n</i>	kataplasma (<i>mahalliy isitish uchun xamirsimon yoki bo'tqasimon qorishma</i>)
collyrium, i <i>n</i>	ko'z malhami
conspersio, onis <i>f</i>	sepki
cremor, oris <i>m</i>	krem
decoctum, i <i>n</i>	qaynatma
dragée (<i>fr.</i>)	draje
emplastrum, i <i>n</i>	plastir
emulsum, i <i>n</i>	emulsiya
extractum, i <i>n</i>	ekstrakt
globulus, i <i>m</i>	sharcha
granulum, in	granula
gutta, ae <i>f</i>	tomchi
infusum, i <i>n</i>	damlama
limonatum, i <i>n</i>	limonad
linimentum, i <i>n</i>	surtma
lotio, onis <i>f</i>	losyon
membranula ophtalmica seu lamella ophtalmica	ko'z plyonkalari
mixtura, ae <i>f</i>	aralashma
naristilla, ae <i>f</i>	burun tomchisi
oleum, i <i>n</i>	moy
pasta, ae <i>f</i>	pasta
potio, onis <i>f</i>	ichimlik

pulvis, eris <i>m</i>	kukun
sapo, onis <i>m</i>	sovun
serum, i <i>n</i>	zardob
sirupus, i <i>m</i> [medicinalis]	sirop
solutio, onis <i>f</i>	eritma
solvella, ae <i>f</i>	eriydigan tabletka
species, ei <i>f</i> (ko‘plikda <i>species, erum</i>)	yig‘ma
suppositorium, i <i>n</i>	shamcha
suspensio, onis <i>f</i>	suspenziya
stylus, i <i>m</i> seu stylum, i <i>n</i>	qalam
tabuletta, ae <i>f</i>	tabletka
tabuletta obducta	qobiqli tabletka
tinctura, ae <i>f</i>	tindirma
unguentum, i <i>n</i>	malham
vaccinum, i <i>n</i>	vaksina, emlik



3.1-rasm. Dori shakllari

Mashqlar

I. Dori vositalari nomidagi sizga ma'lum tarkibiy qismlarni belgilang, ma'nosini tushuntiring:

A. Valocordinum, Cocarboxylasum, Morphinum, Testoenatum, Mycosolon, Sarcolysinum, Bicillinum, Rifothyroinum, Amycazolum, Mammophysinum, Oestronum, Erythromycinum, Aëvitum, Valosedan, Diodthyrosinum, Polyoestradiolum, Pharyngosept, Adriamycinum, Mycoseptin, Chinocidum, Chlorophthalmum, Methicillinum, Kanamycinum, Cholosasum.

B. Rifamycinum, Novurit, Sulfazinum, Pantocidum, Pyocidum, Streptodecasum, Norsulfazolum, Urodanum, Adrenalinum seu Epinephrinum, Gonadotropinum, Somatotropinum, Histidinum, Novocainum, Haemodesum, Enterodesum, Haemophobinum, Panangin, Quadevitum.

C. Synoestrolum, Gentamycinum, Synthomycinum, Phenobarbitalum, Barbamylum, Leucogenum, Laevomycetin, Mycoheptinum, Melosanum, Glycerinum, Glucosum, Asthmatinum, Anaesthesinum, Hydrocortisonum.

II. Dor vositalarining nomini lotin transkripsiyasida yozing:

A. streptosid, geparin, fibrinogen, pankreatin, lidaza, apressin, gidrolizin, dikloksatsillin, dikain, korvalol, insulin, nitroglitsrein, rezorsin, raunatin, rezerpin, validol, neodikumarin, papaverin, akrixin, pantotsid, angiotenzinamid.

B. tetrasiklin, penitsillin, xinin, bruneomitsin, olivomitsin, amidopirin, piromekain, kardiovalen, oraza, rutin.

III. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

A. solutio Strophanthini, tabulattae Prednisolini, granula Orasi, tabulattae Octeolestroli, tabulattae Pantocrini, unguentum “Psoriasinum”, species antiasthmaticae, solutio Camphorae oleosa, emplastrum Epilini, Streptocidum solubile, solutio Streptocidi solubilis.

B. suspensio “Cindolum”, suppositoria vaginalia “Osarbonum”, tabulattae Mycoheptini obductae, species cholagogae, unguentum Tetracyclini ophtalmicum, linimentum “Sanitas”, tabulattae “Cholenzymum”, tabulattae “Praegoestrolum”, flores Calendulae, solutio Glucosi, tabulattae “Panhexavitum”, dragée “Aëvitum”, species amarae.

C. extractum placentae, tabulettae olei Menthae, folium Farfarae, radix Althaeae, solutio Dicaini, cortex Frangulae, emplastrum Plumbi compositum, tabulettae Barbamyli, extractum Leonuri fluidum, suppositoria “Anaesthesolum”, tabulettae “Bellasthesinum”, tabulettae Aloës obductae, infusum foliorum Digitalis, fructus Crataegi, chole conservata medicata.

IV. Lotin tiliga tarjima qiling:

A. siroplar, ekstraktlar, eritmalar, moylar, damlamalar va qaynatmalar, shamchalar, murakkab kukunlar, urug‘lar, gullar, ildizlar, oq ildizpoya, oq po‘stloq, tomchilar, rutin tabletkalari, promeran tabletkalari, lutenurin surtmasi, vazelin moyi, monomitsin tabletkalari, mielosan tabletkalari, moychechak gullari, nitroglitserin tabletkalari, “Piramein” tabletkalari, dibiomitsin ko‘z malhami.

B. “Flakarbin” granulalari, arpabodiyon moyi, novokain eritmasi, “Undevit” drajesi, arpabodiyon mevalari, streptosid surtmasi, geparin malhami, arnika gullari, arnika gullari damlamasi, valeriana tindirmasi, arslonquyruq tindirmasi, eman po‘stlog‘i qaynatmasi, gazanda barglari.

C. tetrasiklin malhami, daktinomitsin eritmasi, yod spirtli eritmasi, “Kamfomen” aerosoli, follikulin moyli eritmasi, eruvchan furagin, tinchlantiradigan yig‘ma, amidopirin va butadion tabletkalari, valeriana ildizi damlamasi, valeriana ekstrakti qobiqli tabletkalari, marvaridgul maysasi.



Leksik minimum

cortex, icis <i>m</i>	po‘stloq
flos, floris <i>m</i>	gul
folium, i <i>n</i>	barg, yaproq
fructus, us <i>m</i>	meva
gemma, ae <i>f</i>	kurtak
herba, ae <i>f</i>	maysa
radix, icis <i>f</i>	ildiz
rhizoma, atis <i>n</i>	ildizpoya
semen, inis <i>n</i>	urug‘
succus, i <i>m</i>	sharbat



3.2-rasm.

Tindirma



Nazorat savollari:

1. Trival nomlar bilan ilmiy nomlarni farqini tushuntiring.
2. Farmakologik axborat beruvchi tarkibiy qismlarni tushuntiring.
3. Yumshoq dori shakillarini sanab bering.
4. Qattiq dori shakillarini sanab bering.

5. Suyuq dori shakillarini sanab bering.

Vita brevis, ars longa, tempus praeceps, experimentum periculosum, judicium difficile. – Umr qisqa, san'at boqiy, vaziyat o'tkinchi, tajriba shubhali, mulohaza qiyin.

Vivere naturae si convenienter amarent mortales, medica nil opus esset ope. – Agar odamlar tabiatga muvofiq yashashga moyil bo'lganlarida tibbiyot yordami kerak bo'lmas edi.

§21. Fe'l. Fe'lning grammatik kategoriyalari va lug'at shakli. 4 tuslanish va negiz haqida tushuncha. Buyruq mayli (Imperativus). Istak mayli (Conjunctivus).

Maqsad: Buyruq mayli birlik shakli hamda III shaxs istak mayli birlik va ko'plik shakllarini hosil qilish qoidalarini; fe'lli retseptura formulirovkalarini *bilib olish*. Fe'l negizini topish va uning tuslanishini aniqlashni; buyruq va istak mayllarining ba'zi shakllarini hosil va tarjima *qila olish*.

Fe'lning grammatik kategoriyalari

Predmetning harakatini bildirib “nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?” so'roqlarga javob beradigan so'z turkumi *fe'l* deb ataladi. Lotin tilida fe'llar shaxs, son va zamonda o'zgaradi. Fe'l 3ta shaxs, 2ta son (birlik va ko'plik), 6ta zamon, 4ta mayl, 4ta tuslanishga ega:

I tuslanish	II tuslanish	III tuslanish	IV tuslanish
-a	-e	undosh yoki -u	-i

Retseptura formulirovkalari

Retseptning lotincha qismi buyruq maylidagi “Recipe” – “Ol” fe'li bilan boshlanadi. Uning lug'at shakli *recipio, ere, 3* - “olmoq” bo'lib, retseptda shart maylida ishlatilmaydi.

Imperativus (buyruq mayli)		Conjunctivus (shart mayli)	
<i>Da. Signa.</i>	Ber. Belgila.	<i>Detur. Signetur.</i>	Berilsin. Belgilansin.
<i>Misce. Da. Signa.</i>	Aralashtir. Ber. Belgila.	<i>Misceatur. Detur. Signetur.</i>	Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.
<i>Sterilisa!</i>	Sterilizatsiya qil!	<i>Sterilisetur!</i>	Sterilizatsiya

			qilinsin!
<i>Repete.</i>	Takrorla.	<i>Repetatur.</i>	Takrorlansin.
<i>Da tales doses.</i>	Shunday dozalarda ber.	<i>Dentur tales doses.</i>	Shunday dozalarda berilsin.

Retseptura formulirovkalarida fio, fieri fe'li

fio, *eri* noto'g'ri fe'li tushlanganda aniq nisbat tugallanmasini oladi, lekin majhul ma'noga ega. Ushbu fe'ldan shart mayli *fi-* negiziga *-a* suffiksini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi; III shaxs birlik – *fiat*, III shaxs ko'plik – *fiant*. Bu shakllar *misce* fe'li bilan boshlanuvchi ergash gapda *ut-* “uchun” bog'lovchisi bilan qo'llaniladi. Odatda, retseptlarda *ut* bog'lovchisi tushirib qoldiriladi:

Misce, (ut) fiat + *Nom. sing.* da dori shakli nomi

Retseptda bunday formulirovka ingredientlardan sanalgandan keyin ularga ma'lum dori shaklini berish uchun qo'llaniladi. Fe'l va dori shakli nomi, odatda, kukun, malham, pasta, surtma, emulsiya, shamcha yozib berilganda birlikda hamda yig'ma yozib berilganda ko'plikda ko'rsatiladi:

Singularis

Misce, fiat pulvis.	Aralashtir, kukun hosil bo'lsin.
Misce, fiat unguentum.	Aralashtir, malham hosil bo'lsin.
Misce, fiat linimentum.	Aralashtir, surtma hosil bo'lsin.
Misce, fiat pasta.	Aralashtir, pasta hosil bo'lsin.
Misce, fiat emulsum.	Aralashtir, emulsiya hosil bo'lsin.
Misce, fiat suppositorium.	Aralashtir, shamcha hosil bo'lsin.
Misce, fiat suppositorium vaginale.	Aralashtir, qin shamchasi hosil bo'lsin.

Pluralis

Misce, fiant species.	Aralashtir, yig'ma hosil bo'lsin.
-----------------------	-----------------------------------

NB!

Ushbu formulirovkalarda *misce* fe'li buyruq mayli birlikda turadi va hech qachon shart mayli bilan almashtirilmaydi.

Mashqlar

I. Fe'llardan lotin tilida buyruq va shart mayllarini hosil qiling:

belgilamoq, sterillamoq, bermiq, davolamoq, aralashtirmoq, qo'llamoq, qaytarmoq, yashamoq, sog' bo'lmoq, tugatmoq, eshitmoq, oziqlantirmoq.

II. Terminlarni lotin tiliga tarjima qiling:

kseroform malhami, dibazol tabletkalari, yalpiz tindirmasi, papaverin eritmasi, yalpiz barglari damlamasi, mavrak barglari damlamasi, adrenalin eritmasi, qalampir yalpiz moyi, amidopirin granulalari, ixtiol malhami, evkalipt barglari damlamasi, sulfadimezin tabletkalari, evkalipt moyi, kanakunjut moyining emulsiyasi, novshadil spriti.

III. Gaplarni lotin tiliga tarjima qiling:

A. 1) 5 ml kanakunjut moyi qo'sh. 2) 30,0 kseroform malhami ol. 3) 10 ml marvaridgul tindirmasi va 15 ml valeriana tindirmasini aralashtir. 4) 3 ml qalampir yalpiz moyi qo'sh. 5) 25,0 sintomitsin surtmasi ber. 6) 20,0 kanakunjut moyi emulsiyasi ol. 7) 10 ml adrenalin eritmasi ber. 8) 20 ml kanakunjut moyini sterilla. 9) Salom; xayr.

B. 1) dibazol va papaverin berilsin. 2) 6 dona shamcha berilsin. 3) evkalipt moyi berilsin. 4) amidopirin eritmasi berilsin. 5) valeriana ildizi damlamasi berilsin. 6) novokain eritmasi sterillansin. 7) malham qaytarilsin. 8) ekstrakt berilsin! 9) qin shamchalari berilsin!



Leksik minimum

Fe'llar

addo, ere 3

audio, ire 4

curo, are 1

do, dare 1

finio, ire 4

misceo, ere 2

recipio, ere 3

repeto, ere 3

qo'shmoq

eshitmoq

davolamoq

bermoq

tugatmoq

aralashtirmoq

olmoq

qaytarmoq

salveo, ere 2	sogʻ boʻlmoq, salomlashmoq
signo, are 1	belgilamoq
steriliso, are 1	sterillamoq
valeo, ere 2	sogʻ boʻlmoq, kuchli boʻlmoq, xayrlashmoq
verto, ere 3	burmoq

Dorivor oʻsimliklar

Convallaria, ae <i>f</i>	marvaridgul
Eucalyptus, i <i>f</i>	evkalipt
Mentha (ae <i>f</i>) piperita (us, a, um)	qalampir yalpiz
Salvia, ae <i>f</i>	mavrak
Valeriana, ae <i>f</i>	valeriana

Dorivor moddalar

Adrenalinum, i <i>n</i>	adrenalin
Amidopyrinum, i <i>n</i>	amidopirin
Dibazolum, i <i>n</i>	dibazol
Ichtyolum, i <i>n</i>	ixtiol
Norsulfazolum, i <i>n</i>	norsulfazol
Novocainum, i <i>n</i>	novokain
Oleum (i <i>n</i>) Ricini (us, i <i>m</i>)	kanakunjut moyi
Papaverinum, i <i>n</i>	papaverin
Solutio Ammonii (um, i <i>n</i>) caustici (us, a, um)	ammiak eritmasi, novshadil spiriti
Sulfadimezinum, i <i>n</i>	sulfadimezin
Synthomycinum, i <i>n</i>	sintomitsin
Xeroformium, i <i>n</i>	kseroform

Boshqa soʻzlar

rectificatus, a, um	tozalangan
spiritus, us <i>m</i>	spirt
spirituosus, a, um	spirtli



3.3-rasm. Glitserin shamchasi



Nazorat savollari:

1. Lotin tilida shart va buyruq mayillari qanday?
2. Yig'malar yozilganda qanday ibora ishlatiladi?
3. Misce. Da. Signa. Shart maylida qanday bo'ladi?
4. Accusativus qanday kelishik?
5. Retseptura iboralari qanday?
6. Fe'l nechta tuslanishga ega?
7. Fe'lda nechta mayl bor?

Si juvātur, natura laudātur, si non juvātur, medīcus accusātur. – Yordam bersa, tabiatni maqtashadi, yordam bermasa, shifokorni ayblashadi.

Venterem nimis replere nocet. – Qorinni ortiqcha to'ldirish ziyon.

§22. Tushum va ablativ kelishiklari. Ko'makchilar.

Maqsad: Tushum va ablativ kelishiklari qo'shimchalarini; akkuzativ va ablativ kelishiklarini boshqaruvchi ko'makchilarni; retsept yozib berish asosiy

qoidalarini *bilib olish*. I-V turlanishdagi otlar hamda I-II guruh, qiyosiy darajadagi sifatlarning tushum va ablativ kelishik shakllarini hosil qilish.

Ko'makchilar

Lotin tilida ko'makchilar ikkita kelishik: tushum va birgalikda ishlatiladi.

1. Tushum kelishigida qo'llanadigan ko'makchilar:

ad (gacha, uchun, ichida) 20,0- 20,0 gacha

ad usurn internum - ichkariga qo'llash uchun

ad vitrum nigrum - qora shishada

contra (qarshi) tissum - yo'talga qarshi

per (orqali) os - og'iz orqali

per inhalationem - ingalyatsiya yordamida

post (keyin) mortem - o'limdan so'ng

2. Ablativ kelishigida qo'llanadigan ko'makchilar:

cum (bilan) extracto - ekstrakt bilan

ex (-dan) aqua - suvdan

pro (uchun) injectionibus - ineksiya uchun

Keng foydalaniladigan ko'makchili retseptura formulirovkalari va kasbiy iboralar

ex tempore ehtiyojga qarab, talab darajasida

in ampullis ampulalarda

in capsulis kapsulalarda

in oblatiis g'iloqlarda

in spritz-tubulis shprints-tubiklarda

in tabulettis tabletkalarda

in tabulettis obductis qobiqli tabletkalarda

in vitro probirkada, laboratoriya sharoitida

in vitro nigro qora shishada

in vivo tirik organizmda

per inhalationem ingalatsiya yordamida

per os og'iz orqali

per rectum to'g'ri ichak orqali

per se	toza holda
pro auctore (pro me)	muallif uchun (men uchun) <i>(shifokor retseptni o'zi uchun yozganda sharifi o'rniga qo'llaniladigan termin)</i>
pro die	kuniga, sutkalik doza
pro dosi	bitta qabulga, bir martalik doza
pro infantibus	bolalar uchun
pro inhalatione	ingalatsiya uchun
pro injectionibus	ineksiya uchun
pro narcosi	narkoz uchun
pro r(o)entgeno	rentgen uchun

Ko'makchilar yordamida nuqtalar o'rnini to'ldiring:

methylenum coeruleum in capsul..., solutio Oestradioli oleosa in ampull... , Collargolum in vitr... nigr... , rhizoma cum radic... , suppositoria cum extract... Belladonnae, suppositoria cum Euphyllin... , tabulettae contra tuss... , tabulettae Dimedroli pro infant... , aqua pro injection... , oleum pro inhalation... , praepara ex tempor... , solutio Iodi ad us... intern... , Chloroformium pro narcos... , remedium pro dos... , 'pulvis pro suspension... , solutio Dimedroli in spritz-tubul....



3.4-rasm. Sirop



Nazorat savollari:

1. Ko'makchilar qaysi kelishik qo'shimchalarini oladi?
2. Cum ko'makchisini retsepta qo'llanilishini tushuntiring.
3. II-turlanish neutrumdagi otlar ablativda qanday qo'shimchaga ega?

§23. Retsept. Retsept strukturasi.

Maqsad: Retsept yozib berish asosiy qoidalarini *bilib olish*; retseptdagi lotincha qismni *rasmiylashtira olish*.

Retsept Recipe (Ol) fe'lidan boshlanadi. Har bir dori-darmon yangi qatordan yoziladi. Qatorning boshlanishida *Rp*; dan keyin dorivor modda va o'simliklar nomi bosh harf bilan boshlanadi. Dorivor moddalarning nomlari qaratqich kelishligida yoziladi.

Masalan: Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 0,1- 100 ml.

Liquoris Ammonii anisati 1 ml.

Natrii benzoatis 0,6.

Sirupi Althaeae 20 ml.

Misceatur. Detur. Signetur.

Qattiq va sachratuvchi dorivor modallar miqdori grammlar bilan belgilanadi «gramm» so'zi yozilmaydi, uning raqami o'nli kasr bilan ifodalanadi.

Masalan: Recipe: Unguenti Zinci 30,0

Recipe: Extracti Belladonnae 0,015

Suyuq dorilarning miqdori millilitrda beriladi:

Recipe: Olei Vaselini 30 ml. (30,0)

Recipe: Extracti Crataegi fluidi 20,0

Suyuq dorivor preparatlarning miqdori 1 ml kam bo'lsa u tomchilarda dozirovka qilinadi va birlikda akkuzativda (guttam), ko'plikda (guttas) yoziladi.

Ikhta yoki bir nechta dorivor moddalar teng miqdorda berilsa uning dozasi oxirgi dorivor moddadan so'ng ko'rsatiladi va raqam oldida ana (tengma-teng) so'zi yoziladi.

Recipe: Amidopyrini.

Analgini ana 0,25.

Da tales doses numero 32 in tabulettis.

Signa.

Mashqlar

I. Lotin tiliga tarjima qiling:

ineksiya uchun dibazol eritmasi, valeriana ildizi bilan ildizpoyalar, bolalar uchun dimedrol bilan shamchalar, yo'talga qarshi tabletkalar, tashqariga qo'llash uchun furatsilin eritmasi, ampulalarda diprofillin eritmasi, shprits-tubiklarda dimedrol eritmasi, kapsulalarda kanakunjut moyi, toza holda kanakunjut moyi, narkoz uchun efir, tabletkalarda validol, kapsulalarda "Aevit", 0,25 dan amidopirin tabletkalari va fenatsetin, suspenziya uchun ampitsillin kukuni.

II. Yetmayotgan tugallanmalarni qo'ying:

Recipe: Suppositori... cum Ichtyol... numero 10

Recipe: Tabulett... extract... Valerian... 0,02 obduct... numero 50

Recipe: Spirit... aethylic... 95% - 20 ml

Aqu... pro injection... 10 ml

Recipe: Pulver... cum Oxytetracyclin... pro suspension... 30,0

III. O‘zbekcha so‘zlarni lotinchaga almashtiring:

Recipe: Tabulettas (yo‘talga qarshi) numero 12

Recipe: Tabulettas Furacilini 0,02 (tashqariga qo‘llash uchun) numero 10

Recipe: Suppositoria (ekstrakti bilan) Belladonnae 0,015 numero 6

Recipe: Aetheris (narkoz uchun) 100 ml

Da (qora shishada)

Recipe: Solutionis Diprophyllini 10% - 5 ml

Da tales doses numero 6 (ampulalarda)

IV. Retseplarni lotin tiliga tarjima qiling:

1. Ol: Valeriana ekstrakti 0,3

Do‘lana tindirmasi 0,15

Rovoch tindirmasi 0,8

Barbital natriy 0,2

Etil spirti 20 ml

Distillangan suv 200 ml gacha

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin: *1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta*

2. Ol: Itshumurt po‘stlog‘i

Gazanda barglari 15,0 dan

Qalampir yalpiz barglari

Valeriana ildizi bilan ildizpoyalar 5,0 dan

Yig‘ma hosil bo‘lsin

Ber. Belgila: *1 stakan qaynatilgan suvga 1 osh qoshiq hisobidan qaynatma tayyorlansin, ½stakan ertalab va kechqurun qabul qilinsin*

3. Ol: Eufillin 0,1

Dimedrol 0,0125

Shakar 0,2

Aralashtir, kukun hosil bo‘lsin

Shunday dozalarda ber kapsulalarda 12 dona

Belgila: *1 kapsula kuniga 3 marta*

4. Ol: Marvaridgul tindirmasi

- Valeriana tindirmasi 10 ml dan
Nitroglitserin eritmasi 1% - 1 ml
Validol 2 ml
Aralashtirilsin, berilsin, belgilansin: *15 tomchidan kuniga 3 marta*
5. Ol:Do‘lana suyuq ekstrakti 25 ml
Berilsin, belgilansin: *20 tomchidan kuniga 3 marta ovqatdan oldin*
6. Ol:Barbital natriy 0,5
Kakao moyi qancha kerak bo‘lsa, shamcha hosil bo‘lishi uchun
Shunday dozalarda berilsin 12 dona
Belgilansin: *kechasi 1 shamchadan*
7. Ol:Furatsillin tabletkasi 0,02
Shunday dozalarda ber 10 dona
Belgila: *1 tabletkani 1 stakan suvda eritilsin, chayish uchun*
8. Ol:Monomitsin 0,25
Shunday dozalarda ber tabletkalarda 50 dona
Belgila: *1 tabletkadan kuniga 2 marta*
9. Ol:Amidopirin
Fenatsetin 0,25 dan
Shunday dozalarda berilsin tabletkalarda 12 dona
Belgilansin: *1 tabletkadan kuniga 3 marta*
10. Ol:12 dona sulfadimezin tabletkalari 0,5
Ber. Belgila: *1 tabletkadan kuniga 4 marta*
11. Ol:6 dona “Anuzol” shamchalari
Berilsin. Belgilansin: *kechasi 1 shamchadan to‘g‘ri ichakka*
12. Ol:50 dona “Revit” drajesi
Berilsin, belgilansin: *1 draje kuniga 3 marta*
13. Ol:30 dona florenal bilan ko‘z pardalari
Berilsin. Belgilansin: *pastki qovoqqa qo‘yilsin sutkasiga 2 marta*



3.5-rasm. Mazlar



Leksik minimum

Dorivor o'simliklik

Belladonna, ae <i>f</i>	belladonna
Crataegus, i <i>f</i>	do'lana
Frangula, ae <i>f</i>	itshumurt
Rheum, i <i>n</i>	rovoch
Urtica, ae <i>f</i>	gazanda, qichitqi o't

Dorivor moddalar

Aether, eris <i>m</i>	efir
Barbitalum-natrium, i <i>n</i>	barbital natriy
Cacao	kakao
Cordigitum, i <i>n</i>	kordigit
Dimedrolum, i <i>n</i>	dimedrol
Diprophyllinum, i <i>n</i>	diprofillin
Euphyllinum, i <i>n</i>	eufillin
Furacilinum, i <i>n</i>	furatsilin
Mentholum, i <i>n</i>	mentol
Nitroglycerinum, i <i>n</i>	nitroglitserin
Phenacetinum, i <i>n</i>	fenatsetin
Saccharum, i <i>n</i>	shakar

Tetracyclinum, i n	tetrasiklin
Validolum, i n	validol
<i>Boshqa so'zlar</i>	
aethylicus, a, um	etilli
aqua, ae f	suv
destillatus, a, um	distillangan
fluidus, a, um	suyuq
obductus, a, um	qoplangan, qobiqli
oleosus, a, um	moyli
quantum satis	qancha kerak bo'lsa



Nazorat savollari:

1. Akuzativda qo'llaniladigan ko'makchilarni ayting?
2. Ablativda qo'llaniladigan ko'makchilarni ayting?
3. Recipe so'zining ma'nosini ayting?
4. Misce, fiat ... formulirovkasining ma'nosini ayting?
5. Akuzativda qo'llaniladigan ko'makchilar ishtirokida retsept qanday yoziladi?
6. Ablativda qo'llaniladigan ko'makchilar ishtirokida retsept qanday yoziladi?
7. Ko'makchilar ishtirokida retsept qanday yoziladi?

Oratio medicus est. – Til shifokordir.

Summum bonum cumulatur ex integritate corpōris et ex mentis ratiōne perfecta. – Oliy saodat jismoniy va aqliy salomatlikda erishiladi.

§24. Lotin tilida kimyoviy nomenklatura. Kimyoviy moddalar, kislotalar, oksidlar nomlari.

Maqsad: Muhim kimyoviy moddalar lotincha nomlarini *bilib olish*. Kislota va oksidlarning nomlarini lotin tilida hosil *qila olish*.

Kimyoviy moddalarning nomlari

Barcha kimyoviy moddalarning nomlari II turlanish *n* rodidagi otlar bo‘lib, faqat ikkita: *Sulfur*, *uris*, *n* (III turlanish) – oltingugurt va *Phosphorus*, *i*, *m* – fosfor kimyoviy moddalarining nomi bundan istisno.

NB! Kimyoviy moddalarning belgisi lotincha nomlardan olingan bo‘lib, ularning orfografik xususiyatini aks ettiradi: Ca - Calcium, Fe - Ferrum, K – Kalium va boshqalar.

Muhim kimyoviy moddalar lotincha nomlari

Kimyoviy modda	Lotincha nomi	O‘zbekcha nomi
Al	Aluminium, <i>i n</i>	aluminiy
Ag	Argentum, <i>i n</i>	kumush
As	Arsenicum, <i>i n</i>	margimush
Au	Aurum, <i>i n</i>	oltin
B	Bromum, <i>i n</i>	brom
Ba	Barium, <i>i n</i>	bariy
Bi	Bismuthum, <i>i n</i>	vismut
C	Carboneum, <i>i n</i>	uglerod
Ca	Calcium, <i>i n</i>	kalsiy
Cl	Chlorum, <i>i n</i>	xlor
Cu	Cuprum, <i>i n</i>	mis
F	Fluorum, <i>i n</i> (<i>lot.</i>) seu Phthorum (<i>yun.</i>)	ftor
Fe	Ferrum, <i>i n</i>	temir
H	Hydrogenium, <i>i n</i>	vodorod
Hg	Hydrargyrum, <i>i n</i>	simob
I	Iodum, <i>i n</i>	yod
K	Kalium, <i>i n</i>	kaliy

Li	Lithium, i n	litiy
Mg	Magnesium, i n seu Magnium, i n	magniy
Mn	Manganum, i n	marganets
N	Nitrogenium, i n	azot
Na	Natrium, i n	natriy
O	Oxygenium, i n	kislorod
Pb	Plumbum, i n	qo'rg'oshin
Ph	Phosphorus, i m	fosfor
S	Sulfur, uris n	oltingugurt
Si	Silicium, i n	kremniy
Zn	Zincum, i n	rux

Kislotalar

Kislotalarning lotincha nomi ikkita soʻzdan iborat: *acidum*, *i*, *n* - kislota va mos kelgan sifat. Birinchi oʻrinda ot, ikkinchi oʻrinda sifat keladi. Sifat kislota nomini yasovchi modda negiziga *-ic+um*, *-os+um* qoʻshimchasi yordamida yasaladi.

- *icum* qoʻshimchasi kislota tarkibida kislorod miqdorining ortiqqligini bildiradi va oʻzbek tilidagi *-at-* qoʻshimchasiga toʻgʻri keladi:

Acidum sulfuricum – sulfat kislota

- *osum-* qoʻshimchasi kislota tarkida kislorod miqdorining kamligini bildiradi va oʻzbek tilidagi *-it-* qovshimchasiga toʻgʻri keladi:

Acidum sulfurosum – sulfid kislota

Kislorodsiz kislotalarning nomlaridagi sifatlarning tarkibi quyidagicha yasaladi: *hydro-* prefiksi + kislota nomini yasovchi modda nomining oʻzagi + *-icum* va oʻzbek tilidagi *-id* qoʻshimchasiga toʻgʻri keladi:

Acidum hydrosulfuricum – sulfid kislota

Oksidlar

Oksidlarning nomlari ikkita soʻzdan iborat: birinchi oʻrinda moddaning nomi qaratqich kelishigida, ikkinchi oʻrinda oksid nomi keladi.

Oxy- kislorod borligini koʻrsatadi, prefikslari esa birikma tarkibini aniqlaydi:

oxydum, i, n oksid

peroxydum, i, n peroksid

hydroxydum, i, n gidroksid

Mashqlar

I. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling:

1. Recipe: Acidi folici 0,0008

Acidi ascorbinici 0,1

Dentur tales doses numero 30 in tabulettis

Signetur: *1 tabletkadan kuniga 3 marta*

2. Recipe: Solutionis Hydrogenii peroxydi dilutae 50 ml

Detur. Signetur: *1 stakan suvga 1 osh qoshiqdan, chayish uchun*

3. Recipe: Sulfuris depurati

Magnesii oxydi

Sacchari ana 10,0

Misce, fiat pulvis

Detur. Signetur: *qabulga ½ choy qoshiqdan*

4. Recipe: Unguenti Hydrargyri albi 5% - 25,0

Detur. Signetur: *zaralangan teri sohalariga surtilsin*

5. Recipe: Solutionis Iodi spirituosae 5% - 20 ml

Tannini 3,0

Glycerini 10,0

Misce. Da. Signa: *milkka surkash uchun*

6. Recipe: Magnesii peroxydi 0,25

Da tales doses numero 12

Signa: *1 kukundan kuniga 3 marta*

7. Recipe: Solutionis Chlorophtalmi 1% - 15 ml

Da. Signa: *2 tomchidan kuniga 4 marta (glaukomada)*

II. Retseptlarni lotin tiliga tajima qiling:

1. Ol:50 dona yog’ kislota tabletkalari

Ber. Belgila: *1 taletkadan kuniga 3 marta*

2. Ol: Benzoy kislota 0,6

- Salitsil kislota 0,3
Vazelin 10,0
Aralashtir, malham hosil bo'lsin
Ber. Belgila: *zararlangan teri sohalariga surkash uchun*
3. Ol:50 dona askorbin kislota drajesi 0,05
Ber. Belgila: *kuniga 2 drajedan*
4. Ol:Salitsil kislota 5,0
Rux oksidi 25,0
Talk 50,0
Aralashtir, kukun hosil bo'lsin
Berilsin, belgilansin: *sepki uchun*
5. Ol:Atsetilsalitsil kislota
Fenatsetin 0,25 dan
Kofein 0,05
Shunday dozalarda ber tabletkalarda 12 dona
Belgila: *1 tabletkadan bosh og'rig'ida*
6. Ol:Simob sariq oksidi 0,6
Ixtiol 0,8
Rux malhami 20,0
Aralashtir, malham hosil bo'lsin
Berilsin, belgilansin: *zararlangan teri sohalariga surtilsin*
7. Ol:Salitsil kislota 1,0
Rux oksidi
Bug'doy ohori 12,5 dan
Vazelin 50,0 gacha
Aralashtir, pasta hosil bo'lsin
Ber. Belgila: *zararlangan teri sohalariga surtilsin (Lassar pastasi)*

Группы Периоды	a I	a II	a III	a IV	a V	a VI	a VII	a VIII	VIII					
1	H 1,0079 1s ¹ Водород						He 4,0026 1s ² Гелий							
2	Li 6,94 2s ¹ Литий	Be 9,012 2s ² Бериллий	B 10,811 2s ² 2p ¹ Бор	C 12,011 2s ² 2p ² Углерод	N 14,0067 2s ² 2p ³ Азот	O 15,999 2s ² 2p ⁴ Кислород	F 18,998 2s ² 2p ⁵ Фтор	Ne 20,179 2s ² 2p ⁶ Неон						
3	Na 22,989 3s ¹ Натрий	Mg 24,305 3s ² Магний	Al 26,981 3s ² 3p ¹ Алюминий	Si 28,086 3s ² 3p ² Кремний	P 30,973 3s ² 3p ³ Фосфор	S 32,06 3s ² 3p ⁴ Сера	Cl 35,453 3s ² 3p ⁵ Хлор	Ar 39,948 3s ² 3p ⁶ Аргон						
4	K 39,098 4s ¹ Калий	Ca 40,08 4s ² Кальций	Sc 44,956 3d ¹ 4s ² Скандий	Ti 47,90 3d ² 4s ² Титан	V 50,942 3d ³ 4s ² Ванадий	Cr 51,996 3d ⁵ 4s ¹ Хром	Mn 54,938 3d ⁵ 4s ² Марганец		Fe 55,847 3d ⁶ 4s ² Железо	Co 58,933 3d ⁷ 4s ² Кобальт	Ni 58,70 3d ⁸ 4s ² Никель			
5	Rb 85,47 5s ¹ Рубидий	Sr 87,62 5s ² Стронций	Y 88,906 4d ¹ 5s ² Иттрий	Zr 91,22 4d ² 5s ² Цирконий	Nb 92,906 4d ⁴ 5s ¹ Нобий	Mo 95,94 4d ⁵ 5s ¹ Молибден	Tc 98,91 4d ⁵ 5s ² Технеций		Ru 101,07 4d ⁷ 5s ¹ Рутений	Rh 102,905 4d ⁸ 5s ¹ Родий	Pd 106,4 4d ¹⁰ Палладий			
6	Cs 132,905 6s ¹ Цезий	Ba 137,33 6s ² Барий	La 138,91 5d ¹ 6s ² Лантан	Hf 178,49 5d ² 6s ² Гафний	Ta 180,948 5d ³ 6s ² Тантал	W 183,85 5d ⁴ 6s ² Вольфрам	Re 186,21 5d ⁵ 6s ² Рений		Os 190,2 5d ⁶ 6s ² Осмий	Ir 192,2 5d ⁷ 6s ² Иридий	Pt 195,09 5d ⁹ 6s ¹ Платина			
7	Fr [223] 7s ¹ Франций	Ra 226,025 7s ² Радий	Ac [227] 6d ¹ 7s ² Актиний	Ku [261] 6d ⁴ 7s ² Курчатовий	Ns [269] 6d ⁴ 7s ² Нобелий									
8	Ce 140,12 4f ¹ 5d ¹ 6s ² Церий	Pr 140,90 4f ³ 6s ² Протозим	Nd 144,24 4f ⁴ 6s ² Неодим	Pm [145] 4f ⁵ 6s ² Прометий	Sm 150,4 4f ⁶ 6s ² Самарий	Eu 151,96 4f ⁷ 6s ² Европий	Gd 157,25 4f ⁷ 5d ¹ 6s ² Гадолиний	Tb 158,925 4f ⁹ 6s ² Тербий	Dy 162,50 4f ¹⁰ 6s ² Диспрозий	Ho 164,93 4f ¹¹ 6s ² Гольмий	Er 167,26 4f ¹² 6s ² Эрбий	Tm 168,93 4f ¹³ 6s ² Тулий	Yb 173,04 4f ¹⁴ 6s ² Иттербий	Lu 174,97 4f ¹⁴ 5d ¹ 6s ² Лютеций
9	Th 232,038 6d ² 7s ² Торий	Pa [231] 5f ² 6d ¹ 7s ² Протактиний	U 238,03 5f ³ 6d ¹ 7s ² Уран	Np [237] 5f ⁴ 6d ¹ 7s ² Нептуний	Pu [244] 5f ⁶ 7s ² Плутоний	Am [243] 5f ⁷ 7s ² Америций	Cm [247] 5f ⁷ 6d ¹ 7s ² Курций	Bk [247] 5f ⁹ 6d ¹ 7s ² Берклий	Cf [251] 5f ¹⁰ 6d ¹ 7s ² Калифорний	Es [254] 5f ¹¹ 7s ² Эйнштейний	Fm [257] 5f ¹² 7s ² Фермий	Md [258] 5f ¹³ 7s ² Менделеев	No [259] 5f ¹⁴ 7s ² Нобелий	Lr [262] 5f ¹⁴ 6d ¹ 7s ² Лавренсий



3.6-rasm. Mendeleyev davriy jadvali.

Nazorat savollari

1. Kimyoviy elementlarning rod va turlanishini ayting?
2. Istisno kimyoviy elementlarni ayting?
3. Kislota nomlari nechta so'zdan iborat?
4. "icum" suffiksi nimani bildiradi?
5. O'zbek tilida qaysi qo'shimchaga to'g'ri keladi?
6. "Osum" suffiksi nimani bildiradi?
7. O'zbek tilida qaysiqo'shimchaga to'g'ri keladi?
8. Kislordsiz kislotalar qanday yasaladi ?

Medici, si omnibus morbis mederi possent, felicissimi essent hominum. – Shifokorlar barcha kasalliklarni davolay olishganlarida, odamlardan eng baxtlisi bo'lar edilar.

Amici - fures tempōris. – Do'stlar - vaqt og'rilari.

§25. Tuzlar nomi.

Maqsad: Tuzlar nomi hosil bo'lish qoidalarini *bilib olish*. Tuzlar nomini lotin tilida hosil *qila olish*.

Tuzlar

Tuzlarning nomlari kation va anionning nomidan yasaladi. Birinchi o'rinda qaratqich kelishigida ifodalangan kationning nomi, ikkinchi o'rinda esa bosh kelishigidagi anionning nomi turadi.

Anionlarning nomlari mos keluvchi kislotalarning lotincha nomi o'zagiga *-as*, *-is*, *-id+um* suffikslarni qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Lug'at shakl modeli			Turl.	Lotincha misollar	O'zbekcha misollar	
Nom.	Gen.	Rod			Suff.	Anion nomi
As	atis	m	III	sulfas, atis, m	at	sulfat
Is	itis	m	III	sulfis, itis, m	it	sulfit
id-um	id-i	n	II	sulfidum, i, n	id	sulfid

Uglevodorod radikallar nomlarida qo'llaniladigan tarkibiy qismlar

Uglevodorod radikal nomlarida qo'llaniladigan tarkibiy qismlar *-yl-* suffiksi yordamida yasalgan uglevodorodli radikalning nomlari dorivor moddalar nomlarini yasovchi murakkab otlardan iborat:

Benzylpenicillinum, Aethylmorphinum, Acidum acetylsalicylum

Ba'zan radikallarning nomlari mustaqil so'z holida ishlatiladi:

Methylii salicylas, Phenylui salicylas, Amylii nitris

Kimyoviy ma'noga ega bo'lgan tarkibiy qismlarning orfografiyasini esda tuting:

meth - metil guruh

aeth - etil guruh

phen - fenil guruh

benz - benzol guruh

Mashqlar

I. Quyida berilgan dori vositalarini lotin tilida yozing, qaratqich kelishigi birlikka qo'ying:

kaliy yodid, temir laktat, mis sitrat, gidrokortizon atsetat, adrenalin gidrokslorid, strixin nitrat, kalsiy glitserofosfat, platifillin gidrotartrat, vismut asosli nitrati, oleandomitsin fosfat, papaverin gidrokslorid, kaliy atsetat, kalsiy xlorid, magniy

sulfat, magniy asosli karbonati, kaliy arsenit, kofein-natriy benzoat, testosteron propionat, efedrin gidrokslorid, qo'rg'oshin atsetat, litiy karbonat, litiy benzoat, metilandrostandiol.

II. Quyida berilgan tuz va efir nomlarini lotin tiliga o'giring:

simob (metil, fenil, natriy) salitsilat; etilmorfin (adrenalin, platifillin, oksitetrasiklin) gidrokslorid; oleandomitsin (kodein, kalsiy, natriy) fosfat; strixnin (kumush, natriy) nitrat; rux (atropin, bariy, streptomitsin) sulfat.

IV. Quyida berilgan retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling:

1. Ol:Metilen ko'ki 0,5

Glukoza eritmasi 25% - 50 ml

Shunday dozalarda ber ampulalarda 3 dona

Belgila: *sianid kislota bilan zaharlanganda vena ichiga yuborilsin*

2. Ol:Kumush nitrat 0,25

Vinilin 1,0

Vazelin 30,0

Aralashtir, malham hosil bo'lsin

Berilsin. Belgilansin: *zararlangan teri sohalariga surtilsin*

3. Ol:Fenoksimetilpenitsillin 100 000 TB

Shunday dozalarda berilsin tabletkalarda 10 dona

Belgilansin: *1 tabletkadan kuniga 4 marta*

4. Ol:Mentol 0,1

Fenilsalitsilat 0,3

Vazelin moyi 10 ml gacha

Aralashtir. Ber. Belgila: *burun tomchisi*

5. Ol:Xloroform

Kungaboqar moyi

Metilsalitsilat 15 ml dan

Aralashtir, surtma hosil bo'lsin

Ber. Belgila: *surtish uchun*

6. Ol:Morfin gidrokslorid 0,015

Apomorfin gidrokslorid 0,05

Eritilgan xlorid kislota 1 ml

Distillangan suv 200 ml gacha

Aralashtirilsin, berilsin, belgilansin: *zaharlanishda 1 choy qoshiqdan har 2 soatda*

7. Ol:Streptosid

Norsulfazol 1,5 dan

Natriy benzilpenitsillin 25 000 TB

Efedrin gidrokslorid 0,05

Aralashtir, kukun hosil bo'lsin

Ber. Belgila: *burunning har yarmiga tortilsin yoki yuborilsin kuniga 3 marta*

8. Ol:30 dona metilandrostandiol tabletkalari 0,025

Berilsin. Belgilansin: *konyunktivitda ko'z hammomi uchun kuniga 2 marta*

9. Ol:Platifillin gidrotartrat 0,003

Natriy bromid 0,15

Kofein-natriy benzoat 0,05

Aralashtir, kukun hosil bo'lsin

Shunday dozalarda berilsin 12 dona

Belgilansin: *1 kukundan kuniga 3 marta*

10. Ol:Barbamil 0,3

Distillangan suv 25 ml

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin: *huqna uchun*

11. Ol:Kodein fosfat 0,015

Atsetilsalitsil kislota 0,5

Askorbin kislota 0,1

Rutin 0,02

Dimedrol 0,02

Kalsiy laktat 0,1

Aralashtir, kukun hosil bo'lsin

Shunday dozalarda ber 20 dona

Belgila: 1 kukundan kuniga 3 marta

12. Ol:Etilmorfin gidroxlid 0,1

Vazelin 10,0

Aralashtir, malham hosil bo'lsin

Ber. Belgila: *ko'z malhami*

13. Ol:Natriy tetraborat eritmasi 20% 30 ml glitserinda

Ber. Belgila: *shilliq pardaga surkash uchun*

14. Ol:Linkomitsin gidroxlid 0,25

Shunday dozalarda ber kapsulalarda 20 dona

Belgilansin: 2 kapsuladan ovqatdan 2 soat oldin

15. Ol:Natriy tiosulfat 10,0

Natriy xlorid izotonik eritmasi 100 ml gacha

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin: *zaharlanishda 2 osh qoshiqdan har 10 daqiqada*

16. Ol:Tiamin bromid eritmasi 3% - 1 ml

Shunday dozalarda berilsin ampulalarda 10 dona

Belgilansin: *1 ml dan mushak orasiga*

17. Ol:25 dona 0,125 oleandomitsin fosfat qobiqli tabletkalari

Berilsin. Belgilansin: *1 tabletkadan kuniga 4 marta*



3.7-rasm. Tuzlar, oksidlar.



Leksik minimum

Dorivor moddalar

Aethylmorphinum, i n

etilmorfin

Atropinum, i n

atropin

Barbamylum, i <i>n</i>	barbamil
